



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

GUVOHNOMA

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

Guliston davlat universitet o'quv-uslubiy kengashining
2024 - yil "26" - yanvardagi "6" - sonli bayonnomasi
hamda universitet rektorining 2024 - yil "27" - yanvardagi
"12" - sonli buyrug'iga asosan

I.Urazbayev, U.G'oziyev, I.Raxmonov ning
(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

60810900-"Agronomiya (anorchilik)"

(ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi))

talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

"Anorchilik"

nomli

(o'quv adabiyotining nomi)

darслиgi

ga

(o'quv adabiyotining turi: darslik, o'quv qo'llanma)

***O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi***



Rektor

M. T. Xodjiyev

Ro'yxatga olish raqami

12 - 07





Ўзбекистон Миллий
кутубхонаси

№ 5818-5765-e6f3-af8c-4a02-7241-3023
Хужжат яратилинган сана: 2024-03-05
Ариза рақами: 115711443

Хужжат берилган: "ZIYO NASHR-MATBAA" XUSUSIY
KORXONA
СТИР: 307639360

Нашрларга китобнинг ISBN халқаро стандарт тартиб рақамини бериш

МАЪЛУМОТНОМАСИ

Ахборот-кутубхона соҳасида давлат хизматлари кўрсатишнинг айрим маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 1 май 176 - сонли Қарорига, нашрларнинг чиқиш маълумотларини ГОСТ 7.4-95 “Нашрлар. Чиқиш маълумотлари” ҳамда ГОСТ 7.53-2001 “Китобларни халқаро стандарт рақамлаш” давлатлараро стандартлари талаблари асосида бўлишини таъминлаш мақсадида китоб маҳсулотларига қуйидаги ISBN халқаро стандарт тартиб рақами белгилаш учун тақдим этилди:

Муаллиф	Китоб номи	Китоб жанри	Китоб чоп этиладиган тил	Китоб ҳажми	Китоб адади	Берилган ISBN тартиб рақами
I.U.URAZBAYEV, U.L.G'OZIYEV, I.A.RAXMONOV	ANORCHILIK	Дарслик	Ўзбек тили лотин ёзувида	256	100	978-9910-792-04-5

RAXMEDOVA GULBAXOR TULKUNOVNA

Мазкур хужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон хужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу хужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Хужжат ҳақиқийлигини gero.gov.uz веб-сайтида хужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

2317



Ўзбекистон Миллий
кутубхонаси№ 5881-4665-e6b6-cb0f-6223-3163-4181
Хужжат яратилинган сана: 2024-03-05
Ариза рақами: 115714167Хужжат берилган: "ZIYO NASHR-MATBAA" XUSUSIY
KORXONA
СТИР: 307639360**Нашрларга кутубхона классификация индексларини бериш бўйича давлат хизматлари
кўрсатганлик тўғрисида маълумотнома**

Кутубхона-библиографик классификация (КБК) индекси	Муаллифлик белгиси	Библиографик тавсиф
42.8ya7	U 62	Urazbayev, I.U. Anorchilik [Matn] : darslik / I.U. Urazbayev, U.L. G'Oziyev, I.A. Raxmonov.-Sirdaryo: Ziyu Nashr-Matbaa,2024.-256 b.

ZUPAROVA NILUFAR TOLKUNOVNA

Мазкур хужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Хужжат ҳақиқийлигини govo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

1426





Ўзбекистон Миллий
кутубхонаси

№ 3190-4265-e6b6-9d84-49b9-1735-9250
Хужжат яратилинган сана: 2024-03-05
Ариза рақами: 115714947

Хужжат берилган: "ZIYO NASHR-MATBAA" XUSUSIY
KORXONA
СТИР: 307639360

Нашрларга кутубхона классификация индексларини бериш бўйича давлат хизматлари кўрсатганлик тўғрисида маълумотнома

Универсал ўнлик классификация (УЎК) индекси	Муаллифлик белгиси	Библиографик тавсиф
634.64(075)	У 62	Urazbayev, I.U. Anorchilik [Matn] : darslik / I.U. Urazbayev, U.L. G'Oziyev, I.A. Raxmonov.-Sirdaryo: Ziyu Nashr-Matbaa,2024.-256 b.

ZUPAROVA NILUFAR TOLKUNOVNA


Мазкур хужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон хужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу хужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Хужжат ҳақиқийлигини gero.gov.uz веб-сайтида хужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

6250



I.U.URAZBAYEV, U.L.G'OZIYEV, I.A.RAXMONOV

ANORCHILIK



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

I.U.URAZBAYEV, U.L.G‘OZIYEV, I.A.RAXMONOV

ANORCHILIK

**“Ziyo nashr-matbaa” XK
GULISTON-2024**

UO‘K: 634.64(075)

KBK: 42.8ya7

U 62

Anorchilik, darslik. I.U.Urazbayev, U.L.G‘oziyev, I.A.Raxmonov/Guliston:
“Ziyo nashr matbaa” XK. 2024, 256-bet

Mazkur darslik 60810900–Agronomiya (anorchilik) ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan Davlat ta'lim standarti talablari asosida tuzilgan namunaviy o'quv reja va fan dasturi asosida tayyorlangan. Bundan tashqari Oliy ta'limning 60810700-Agrokimyo va agrotuproqshunoslik, 60811800–Meva-sabzavotchilik va uzumchilik, 60811300 - Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalar uchun “Mevachilik va uzumchilik”, “Mevachilik va sabzavotchilik” fanlari uchun asosida tayyorlangan.

Darslikni yozishda mustaqillik yillarida jahon va respublika mevachilik fani texnikasi va ilg'orlari erishilgan yutuqlar hisobga olinib, anorning ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, biologik xususiyatlari, Davlat reestriga kiritilgan va keng tarqalgan navlarning ta'rifi, anorni ko'paytirish usullari, anor ko'chatzori, anor bog'lari barpo qilish, shakl berish va butalash usullari, anorni parvarishlash, hosilni terish, tashish, saqlash, xorijiy anor navlari va O'zbekistonda anor yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ma'lumotlar ham berilgan.

Ushbu darslikdan o'qituvchilar, talabalar, magistrlar, doktorantlar, dehqonlar, bog'bonlar, soha mutaxassislari va boshqa keng kitobxonlar foydalanishi mumkin.

ISBN 978-9910-792-04-5

© I.U.Urazbayev, U.L.G‘oziyev, I.A.Raxmonov
© “Ziyo nashr-matbaa” XK,

So‘z boshi

Har qanday jamiyat taraqqiyoti va uning istiqbolga belgilab olgan vazifalarining kutilgan natijasi eng avvalo keng dunyoqarashga ega bo‘lgan barkamol avlodga hamda zamonaviy fikrlovchi, chuqur bilim va salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarga bog‘liq. Bunda esa ta‘lim-tarbiya jarayonining o‘rni beqiyos. Shu boisdan, so‘nggi besh yilda mamlakatimizda ta‘lim va tarbiya jarayoni bilan bog‘liq islohotlar yanada jadallashti. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli barcha jabhalarda tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, xalqimizning dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan hamda keng jamoatchilik ishtirokida bo‘lib o‘tgan muhokamalar natijasida qabul qilingan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni hamda 2024 yil-“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining imzolanishi davlat va jamiyat rivojlanishida yangi yondashuvlarni boshlab beradi.

Mazkur tarixiy hujjat mamlakatimiz rivojining muhim fundamental asoslarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Taraqqiyot strategiyasi bilan ta‘lim sifati yangi bosqichga olib chiqiladi.

O‘zbekiston tarixiy ahamiyatga molik keng ko‘lamli islohotlarni ishonch bilan davom ettirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023 yilning “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deb e‘lon qilinishi olti yil avval O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan boshlangan davlat va jamiyatni har tomonlama yangilash bo‘yicha hayotga tatbiq etilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Joriy yilning mamlakatimizda bunday nomlanishi, shunchaki bir shior bo‘lmasdan, balki uning negizida, insonga e‘tibor sifatli bilim egasi qilish orqali ta‘minlanadi.

Shavkat Mirziyoev olimlar bilan uchrashib, oldimizda turgan ko‘pdan-ko‘p, og‘irdan-og‘ir muammolarni ilm-fansiz yechib bo‘lmasligini, boshqacha

aytganda, Yangi O'zbekiston bilim va olimga e'tibordan boshlanganligi hamda 2022 yilning oxirgi haftasini ham Prezidentimiz ta'lim masalalari, ayniqsa, zamonaviy darsliklar va o'qitishning butunlay yangicha usuliari muhokamasiga bag'ishlaganini tasodif emas.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning jasorati mana olti yildirki, milliy yetakchimiz har birimiz ongimizga singdirib kelayotgan "najot – bilimda", "najot – izlanish, o'rganish, yangilanishda" bosh g'oyasi iqtisodiyot, ilm-fan va boshqa sohalarda erishilgan barcha yutuqlarimiz o'z bilimlarimiz, uzoq va uzluksiz izlanish, o'rganishlar asosida yaratilgan tajriba, an'analarimiz – yaratuvchanligimiz evaziga sodir bo'lgan.

Albatta, inson qadri yuksalib borayotgan yurtimizga ana shunday nomlangan yillar, inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan yuksak e'tibor yarashadi. Endi oliy ta'limda faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilari sifatli ta'lim berish barobarida darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish hamda olimlarimiz suv va enyergiyani tejash, tuproq unumdorligi va hosildorlik, geologiya, sanoat, qurilish kabi bugungi kunda biz uchun dolzarb yo'nalishlarda aniq natijalar ko'rsatishlari kerak. O'ylaymizki, kelasi yilda qilinadigan ushbu ishlar har birimizning hayotimizga chinakkam yorug'liklar baxsh etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Agrar ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 30 iyuldagi PQ-4795-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi oliy ta'limini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish.

Yerdan ilm-fan tavsiyalari asosida oqilona foydalanish, uning muhofazasini to'g'ri ta'minlash va unumdorligini oshirishda yangi texnologiyalarni joriy qilish, qishloq xo'jaligi ekinlarini, jumladan mevali ekinlarni innovatsion texnologiyalar yordamida yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish qishloq xo'jaligi rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Anorning inson salomatligi uchun ahamiyatida beqiyos ekanligidan kelib chiqqan holda uni ichki va tashqi bozorlarga yetishtirib berish ishlarini rivojlantirish avvalgidan ham e'tiborli ho'lishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishilgandan keyin yer va suvga

bo'lgan munosabat tubdan isloh qilina boshlandi. Yer va suv resurslaridan oqilona, samarali foydalanish uchun mamlakatimizda qator qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi muammolarni bartaraf etish, ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir.

Shuning uchun, oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablarni hisobga olgan holda zamon talablariga mos darslik, o'quv qo'llanmalarni va amaliy mashg'ulotlarni talabalarni bilim olish sifatini oshiradigan, ularda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantira oladigan hamda ishlab chiqarishga bog'langan masalalarni tuzish, to'plash va shu masalalarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar yaratish zaruriyati paydo bo'ldi.

Shu maqsadda fanlar bo'yicha namunaviy dasturlar asosida darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratilmoqda. Ushbu darslik "Anor biologiyasi" va "Anor yetishtirish texnologiyasi" majburiy fani bo'yicha qabul qilingan namunaviy dastur asosida Guliston Davlat Universiteti "Agrotuproqshunoslik va melioratsiya" kafedrasida professor-o'qituvchilari I.Urazbayev, U.G'oziyev, I.Raxmonovlar tomonidan yaratildi.

Mualliflar tomonidan darslikni tayyorlashda anor yetishtirishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan O.P.Kulkovning "Культура граната в Узбекистане" nomli monografiyasi va bu fan bo'yicha o'qilgan ma'ruza matnlari hamda o'qitish mobaynida to'plagan materiallari asos qilib olindi. Olingan ma'lumotlarda tarjima nuqtai nazaridan xato va kamchiliklar uchun mualliflar uzr so'raydi.

Mazkur darslik mualliflarning bu boradagi dastlabki ishi bo'lganligi sababli u ba'zi xato va kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin. Shu boisdan darslik haqida aytilishi mumkin bo'lgan barcha fikr-mulohazalar va ularni tuzatish yuzasidan beriladigan maslahatlar uchun mualliflar oldindan minnatdorlik bildiradi va ularni darslikning keyingi nashrlarida, albatta, inobatga oladi. Fikr-mulohazalarni quyidagi manzilga yuborishlari so'raladi. 707012, Guliston shahri, IV-mavze, GulDU, Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrasida.

I-BOB. KIRISH. ANORCHILIKNING HOLATI, RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI, BIOKIMYOVIY TARKIBI VA INSON ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI

1.1.O'zbekistonda anorchilikning hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari

So'nggi yillarda O'zbekistonda anor yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada yaqin kelajakda ishlab chiqarishning yillik hajmi kamida 600 ming tonnadan oshishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, 2026 yilda global bozorda anor mahsulotlariga bo'lgan talab 23,14 milliard dollarga yetishi mumkin.

O'zbekistonda anor plantatsiyalari maydoni faol ravishda kengaytirilmoqda. O'tgan yilning sentabr oyida Farg'ona viloyatidagi anor bog'larining umumiy maydonini 2025 yilga qadar 20 ming gektarga yetkazish va ulardan yiliga 200 ming tonnadan ziyod hosil yig'ib olinishi rejalashtirilayotgani ma'lum qilingan. Xususan, Rishton va Oltiariq tumanlarida 1400 gektar maydonda yangi anor bog'lari yaratilgan. Shuningdek, Qishloq xo'jaligi vazirligi Qashqadaryoda anor plantatsiyalari yana 2 ming gektarga ko'payganini e'lon qildi.

Bundan tashqari, O'ZA ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2022 yillarda Surxondaryoda 9 ming 432 gektar yerda anorzorlar barpo etilishi va yillik hosil hajmini yaqin kelajakda 300 ming tonnaga yetkazish ko'zda tutilgan. Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi rejalar, shuningdek, mamlakatning boshqa mintaqalaridagi mavjud plantatsiyalar hisobga olinsa, yaqin 5-10 yil ichida respublikada anor ishlab chiqarishning yillik hajmi kamida 600 ming tonnadan oshishi prognoz qilinadi. Agar ishlab chiqarish shu qadar tez o'ssa va an'anaviy mahalliy navlar yetishtirishda davom etilsa, O'zbekiston anorni sanoat usulida qayta ishlash haqida o'ylashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Anor nafaqat yangi uzilgan mevalar bozori, balki qayta ishlash, oziq-ovqat, kosmetika, hatto farmatsevtika sanoati uchun ham qiziqarli va foydali meva hisoblanadi.

E'tiborli jihat, O'zbekiston haligacha xalqaro anor bozorida asosiy ishtirokchi emas, shuning uchun yangi mahsulotlarni sotishda eksport qiyinchiliklariga duch kelishi muqarrar. Mamlakat yiliga o'rtacha 10 mingdan 15

ming tonnagacha anor eksport qiladi va bularning deyarli barchasi sobiq sovet mamlakatlariga to'g'ri keladi. Janubiy Koreya va BAA bozorlariga anor yetkazib berilishi tobora ko'payib borayotgani respublika uchun biroz umid baxsh etishi mumkin. O'zbekiston bu mevani yetishtirish bo'yicha dunyoda yetakchi va Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik yetishtirib beruvchilardan biri bo'lishi mumkin.

1-jadval

O'zbekiston hududlarida ekilgan anor maydoni va hoslidorligi. (2021 y.)

№	Hududlar nomi	Jami maydon, ga	Hosilli bog'lar	Bir gektardan olingan o'rtacha hosil, st/ga	Jami maydon hosili, t/ga
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	55	36	47	170
2	Andijon	426	384	139	5328
3	Buxoro	209	195	170	3309
4	Jizzax	215	64	95	610
5	Qashqadaryo	840	785	102	8040
6	Navoiy	66	55	139	760
7	Namangan	275	259	102	2641
8	Samarqand	520	331	80	2657
9	Surxondaryo	2327	1872	124	23182
10	Sirdaryo	654	261	139	3629
11	Toshkent	303	191	109	2079
12	Farg'ona	1707	1509	96	14453
13	Xorazm	186	112	210	2354
	JAMI	7783	6053	114	69212

Dunyoda anor meva va sabzavotlarning umumiy aylanmasida juda oz ulushga ega bo'lishiga qaramay, ularni iste'mol qilish tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 2014 yildan 2018 yilgacha global anor importining umumiy hajmi 24 foizga o'sdi. Ko'plab bozor mutaxassislari ham global anor bozori juda tez o'sayotganini ta'kidlashmoqda. Pandemiya davrida immunitetni kuchaytirish xususiyati sabab talab yanada oshgan.

Anorning salomatlik uchun juda foydali deb hisoblanadigan ikki noyob botanik xususiyati mavjud. Punikalagin anorning urug'i va terisida joylashgan

kuchli antioksidant bo'lib, uning faolligi qizil sharob yoki yashil choynikiga qaraganda deyarli uch baravar yuqori. Shuningdek, anor urug'idan olingan punitsid kislotalari kuchli biologik ta'sirga ega. O'ziga xos xususiyatlari tufayli dunyo bozorida anor doimiy ravishda yuqori talabga ega va dunyoning ko'plab mamlakatlarida anor bog'lari maydonining o'sishiga qaramay, anorning jahon bozoridagi narxlari o'sishda davom etmoqda.

Hindiston savdo va sanoat vazirligi tadqiqotlariga ko'ra, anor va urug'larining umumiy global bozori 2018 yilda 8,2 milliard dollarga baholangan va prognozlarga ko'ra, 2026 yilga borib bu ko'rsatkich deyarli uch martaga ko'payib, 23,14 milliard dollarga yetadi. Ushbu prognoz asosida yotgan asosiy omil — bu anor xomashyosidan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan talabning o'sishi. Anor kukunidan sharbat va turli ichimliklar tayyorlanadi.

Bundan tashqari, anor nafaqat oziq-ovqatda, balki kosmetika sanoatida ham qo'llanadi va u yerda tobora keng miqyosda foydalanilmoqda. Anorni qayta ishlash bozorining eng katta segmenti anor kukuni ko'rinishidagi iste'mol hisoblanadi. Keyingi 5 yil ichida ushbu segmentning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 4,8 foiz darajasida prognoz qilinmoqda. Bozor ulushi bo'yicha ikkinchi o'rinni anor sharbatlari, siroplar va souslar tayyorlash uchun ishlatiladigan konsentratlar egallaydi. Bundan tashqari, anor sharbatlari va anor (don, urug'lar, po'stlar va boshqalar ekstraktlari) yordamida tayyorlangan kosmetika mahsulotlaridan foydalanish ommalashib bormoqda.

Dunyoning eng yirik anor iste'molchilari Osiyo-Tinch okeani mintaqasi aholisi hisoblanadi. Bu global iste'molning taxminan yarmini (45-50 foiz) tashkil qiladi. Keyingi o'rinlarni Yevropa (20 foiz), Shimoliy Amerika (15 foiz), Yaqin Sharq va Afrika (10 foiz) hamda Lotin Amerikasi (5 foiz) egallaydi. Hindiston, Eron va Xitoy dunyoda anor yetishtirish bo'yicha yetakchi mamlakatlar hisoblanadi. Shuningdek, Xitoyda anorga bo'lgan talab mahalliy ishlab chiqarish hajmidan ancha yuqori, shuning uchun Xitoy anorning yirik importchisi ham hisoblanadi. Ma'lumot uchun, 2019 yilning 1-2 noyabr kunlari Xitoy Davlat Kengashi Bosh vaziri Li Ketsyanning O'zbekistonga tashrifi davomida anor

mevasini Xitoyga eksport qilish bo'yicha kelishuv imzolangan. Bungacha Xitoy bozoriga anor olib kirishga O'zbekistonda ruxsatnoma bo'lmagan.

Dunyoda anor iste'moli tarkibida umumiy hajmning taxminan 65 foizi oziq-ovqat sanoatiga to'g'ri keladi. Qolgan 35 foizi kosmetika va farmatsevtika sanoati uchun foydalaniladi.

Dunyodagi boshqa yirik anor ishlab chiqaruvchilar: Turkiya, Eron, Tunis, Peru, Isroil va Ozarboyjon geografik joylashuvi tufayli Yevropa mintaqasi mamlakatlari va Rossiyada O'zbekistonning asosiy raqobatchilari hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu mamlakatlarning aksariyatida anor yig'ish davri O'zbekistondagi davrga to'g'ri keladi. Rossiya anorni asosan Turkiyadan import qiladi. Yirik yetkazib beruvchilar qatoriga Eron, Ozarboyjon, Misr va Peru ham kiradi. So'nggi yillarda O'zbekiston va Gruzija Rossiyaga anor yetkazib berishni faol ravishda ko'paytirayotgan mamlakatlar qatoriga qo'shilgan. O'zbekistonda anorni keng miqyosda yetishtirish tendensiyasi shubhasiz juda qiziq. Ammo ushbu biznesning istiqbollari ishlab chiqaruvchilar tomonidan qabul qilingan qarorlar va mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyalari darajasining muhokama qilinishiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5383-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» gi qarorida sohani rivojlantirish istiqbollari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018 yilning 12-13 iyun kunlari Farg'ona viloyatiga tashrif buyurib, bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish va xalq bilan muloqot qilish jarayonida ertangi kun istiqboli bilan bog'liq ko'plab ezgu tashabbuslarni ilgari surgan edi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida Farg'ona viloyatida bog'dorchilikni rivojlantirish, meva-sabzavotlar eksportini oshirish maqsadida o'nlab istiqbolli loyihalar hayotga tatbiq etilib, bu borada salmoqli yutuqlarga erishilmoqda. Belgilangan chora-tadbirlar rejasi asosida Farg'ona anorchilik agrofimasida dunyoga mashhur yangi anor navlarini yaratish,

viloyatning barcha shahar-tumanlarida anorzorlar barpo etishda barcha shahar-tumanlarda 2018 yilning o'zida 5 ming gektar yangi anorzorlar tashkil etish bo'yicha izchil sa'y-harakatlar olib borildi. Yangi anorzorlar tashkil etishga bag'ishlab o'tkazilgan 10 dan ortiq shahar-tumanlardagi seminarlar davomida anor yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni eksport qilish va ekoturizmni yo'lga qo'yishning istiqbollari xususida amaliy tavsiyalar berildi.

Ta'kidlash joizki, Farg'ona anorchilik agrofirmasi qoshida Farg'ona anorchilik maktabi faoliyati yo'lga qo'yildi. Farg'ona davlat universiteti professor-o'qituvchilari hamda agrofirma mutaxassislari hamkorligida bu yerda tarmoqda yangi ish boshlayotganlar uchun amaliy seminarlar tashkil etildi va Farg'ona anorchilik agrofirmasi mutaxassislari tomonidan namunaviy tarzda anorzorlar barpo etish ishlari olib borildi. Bu yumushlarning sifatli, belgilangan agrotexnik tadbirlar doirasida amalga oshirilishidagi har bir jarayon hayotiy va ilmiy tajribani o'zaro uyg'unlashtirgan holda tashkil etilishi ta'minlanmoqda.

2018 yil Farg'ona viloyatining Rishton tumanida 300 gektar yerda anorzorlar barpo etish rejalashtirilgan bo'lib, buning uchun 649,7 million so'm mablag' o'zlashtirilib 250 ming tupga yaqin anor ko'chatlari ekildi va 40 nafar ayiha tashabbuskorlaridan arizalar olinib, ularga yer maydonlari ajratildi. O'z avbatida 21 nafar loyiha tashabbuskorlari bilan belgilangan tartibda shartnoma imzolanishiga erishildi.

Darhaqiqat, anorchilik ulkan daromad manbai sifatida istiqbolli tarmoqdir. Kamyob va shifobaxsh ne'mat sifatida anor zamonaviy tibbiyot va tabobatda juda ham foydali hisoblanadi. Jahon bozorida esa ushbu mahsulotga bo'lgan talab va taklif yuqoriligi esa respublikamizda anorchilik tarmog'ini rivojlantirish bugungi kun talabi ekanligini anglatadi. Bu tarmoq respublikamiz qishloq xo'jaligi rivoji va meva-sabzavotlar eksporti hajmini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani ham o'zining shirindan-shakar anorlari bilan mashhur. Bu yerda yetishtiriladigan anorlarning dovrug'ini bilmaydigan, eshitmagan odam bo'lmasa kerak. Sherobod anorlari nafaqat ichki bozorlarda balki, xorijda ham ma'lum va mashhurdir. Ayni paytda

tumanda kuz ne'matining ko'plab turlari parvarishlanyapti. Quvonarlisi, yetishtirilgan hosilning ichki ehtiyojdan ortgan qismi xorijga ham eksport qilinayotir. Bugun hududda anor yetishtirish, saralash va qayta ishlash keng yo'lga qo'yilmoqda. Xususan, «Sherobod anor impeks» mas'uliyati cheklangan jamiyati ham ayni shu niyatda faoliyat olib boryapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021 yil 1 iyunda Surxondaryo viloyatiga safari davomida iqtisodiy kompleks oldiga vazifa qo'yar ekan, har bir hududning xususiyatlaridan kelib chiqib loyiha qilish, «o'sish nuqtalari»ni topib, rivojlantirish zarurligini ta'kidladi.

Surxondaryo viloyatining shunday yo'nalishlaridan biri - anorchilik. Ayniqsa, Sherobodning anorlari katta, mazali, hosildor bo'ladi. Shu bois uning bozori chaqqon, dovrug'i chet ellargacha ketgan. Bu tadbirkorlar uchun katta imkoniyat, aholi uchun daromad manbai. Tumanda 48 ta mahallaning 33 tasi anor yetishtirishga ixtisoslashgan.

Shunday anorzorlardan biri «Sardorbek Sultonbek» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tumanning «Bo'ston» mahallasida tashkil etilgan va 43 gektar yerda 30 ming donadan ziyod anor ekilgan. Qozoqi navli ushbu anorning bir donasi 1 kilogrammdan ziyod tosh bosishi mumkin. Ko'chatlar bu yildan hosilga kirdi. Yiliga jami ming tonnadan ziyod mahsulot olish mo'ljallangan.

“O'tish davri - kurash davri. Hayotimizni o'zgartirish, dunyo bozorida o'rnimizni topish uchun kurashishimiz, manfaat beradigan ishni qilishimiz kerak. Asosiy maqsadimiz - oilalarning daromadini ko'paytirish. O'zi mehnat qilib, natijaga erishgan oila barakali bo'ladi, sog'lig'iga qaraydi, farzandlarini yaxshi o'qitadi. Bilimli bolalar kelajakda o'z yo'lini topib oladi” - dedi davlatimiz rahbari.

Shu yerda Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filiali tadqiqotchilari bilan muloqot bo'ldi. "Bizda anorchilik bo'yicha an'ana bor, lekin ilm yo'q, kitob yo'q, laboratoriya yo'q. Anor jaydari usulda yetishtirilyapti. Kasallikdan himoya qilishni hamma ham bilmaydi. Eng katta narsa - nav kerak. Keyin shu navni xonadonlarga kimgazish zarur," dedi Shavkat Mirziyoyev.

Surxondaryoda qishloq xo'jaligini innovatsion yo'naltirish bo'yicha institut tashkil etish, anor bilan birga limon, xurmo yetishtirishni ko'paytirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Shuningdek davlatimiz rahbari tumanning «Kattabog'» mahallasida anorchilik bilan shug'ullanayotgan Abdurahmon Karimov xonadonida ham bo'lib, aholi turmushi va tomorqalardan foydalanish holati bilan tanishdi. Tumanda 5 mingdan ziyod aholi anor yetishtirish bilan shug'ullanib, undan katta daromad topayotgani aytili.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Farg'ona viloyatida anor yetishtirishni ko'paytirish va sohani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2018 yil 4 oktyabrdagi 791-son qarorida Farg'ona viloyatida anor yetishtiruvchi xo'jaliklarni tashkil etish va ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi xususiy sektor vakillariga ko'maklashish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy ishlar olib borish, innovatsion resurs tejamkor texnologiyalar asosida anor ko'chatlari va mahsulotini yetishtirish, uni qayta ishlashni kompleks rivojlantirish, sohaning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish hamda aholi bandligi va daromadlari darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligi ekin yerlaridan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2019 yil 690-son qarorida Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligida mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish, ayniqsa, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, viloyatda anor yetishtirish va uni qayta ishlash yo'lga qo'yildi, shuningdek, eksportbop poliz mahsulotlari hisoblangan qovun va tarvuz yetishtirish hamda baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha boy tajribalardan samarali foydalanish choralari belgilandi.

Umuman olganda respublikamizda anor ekini mevalarini yetishtirish ularning maydonlarini yanada kengaytirish, mavjud bog'larda agrotexnikasi va mehnatni to'g'ri tashkil etish orqali ulardan samarali foydalanish davr talabidir. Mazkur qo'llanmada asosiy subtropik ekinlardan

biri bo'lgan anor to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Qo'llanmada anor o'simligining kelib chiqishi, tarqalishi, ko'paytirilishi va uni yetishtirish jarayoni bilan yaqindantinishasiz.

1.2. Anorning biokimyoviy tarkibi va inson organizmi uchun foydali xususiyatlari

Anor mevasi (38,6-63,5%) suvdan, 27,6-51,6 % po'stloq, 7,2-22,2 % donadan iborat. Anorning eng yaxshi madaniy navlarida iste'mol qilinadigan qismi 65-68 % ni, suv chiqishi esa 78,5-84,5 %ni tashkil etadi.

Anorning yeyiladigan qismlarining 100 grammida 62-79 kkal quvvat bor. 100 ml suvida esa bu ko'rsatkich 42-65 kkalni tashkil etadi. O'simlik mevalarida 1,6 % oqsil, 0,1-0,7 % yog', 0,2-5,2% kletchatka va 0,5-0,7 % kul mavjud.

Mevaning kimyoviy tarkibi. Mevaning kimyoviy tarkibi juda xilma-xildir: anor vitaminlar, minerallar, aminokislotalar, yog 'kislotalari va boshqa biologik faol birikmalarga boy. Ushbu moddalarning barchasi birgalikda va alohida ravishda inson tanasiga ta'sir qiladi, uni sog'lom va mustahkam qiladi. Keling, anor tarkibida qanday elementlar borligini bilib olaylik.

2-jadval

Guruh	Moddalar
Vitaminlar	A (retinol), B ₁ (tiamin), B ₂ (riboflavin), B ₄ (xolin), B ₅ (pantotenik kislota), B ₆ (piridoksin), B ₇ (biotin, vitamin H), B ₉ (foliy kislota), B ₁₂ (siyanokobalamin)), C (askorbin kislota), D (ergokalsiferol), E (alfa-tokoferol), PP (nikotinic kislota), K (filokinon), provitamin A (beta-, alfa-karotenlar)
Makroelementlar	kaltsiy, kremniy, kaltsiy, oltingugurt, magniy, natriy, fosfor, xlor
Mikroelementlar	vanadiy, alyuminiy, bor, kobalt, temir, yod, litiy, molibden, mis, marganets, rubidiy, nikel, qalay, stronsiy, selen, qo'rg'oshin, taliy xrom, fluor, rux
Almashinmaydigan aminokislotalar	gistidin, valin, izoleysin, leysin, lizin, metionin, triptofan, treonin, fenilalanin
Almashinadigan aminokislotalar	Arginin, alanin, glisin, aspartik kislota, prolin, glutamin kislota, serin, tirozin, sistin

To'yingan yog' kislotalari	miristik, laurik, palmitik, stearik
To'yinmagan yog'li kislotalar	oleik (omega-9), palmitol (omega-7), linoleik (omega-6)
Uglevodlar	mono- va disaxaridlar, glyukoza, saxaroza, fruktoza, tola
Sterollar	kampesterol, beta-sitosterol

Anor qobig'i shuningdek shifobaxsh xususiyatlarga ega bo'lgan birikmalar bilan to'yingan: unda katsinlar guruhining taninlari, pigmentlar va minerallar oz miqdorda (temir, kaltsiy, kaliy, sink, magniy, selen, nikel, bor) mavjud. Meva urug'lari B vitaminlari, A va E vitaminlari, makroelementlar (kaliy, kaltsiy, fosfor, natriy), elementlari (temir, rux), yog' kislotalariga boy.

Tibbiyot sohasi mutaxassislari tomonidan anorning inson salomatligi uchun quyidagi xususiyatlari keltirib o'tilgan.

1. Gemoglobin miqdorini oshiradi. Anorning eng ma'lum xususiyati – anemiya (kamqonlik)ga qarshi kurashishidir. Kamqonlikda suv qo'shilgan anor suvini kuniga 3 mahaldan ovqatdan 30 daqiqa oldin 0,5 stakandan 2 oy mobaynida ichish tavsiya etiladi.

2. Qon bosimini tushiradi. Anor suvi qonni suyultiradigan ajoyib vosita hisoblanadi. Bu narsa qonning yaxshilanishi va yurakka yetib borishiga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, har kuni 50 ml anor suvi ichish qon bosimini 5 % ga tushiradi. Anor donalari gipertoniklarning qon bosimini asta tushiradi. Quritilgan anor pardalari esa choyga qo'shilganda, asablarni tinchlantiradi, tashvishlardan holi qiladi, tinimsizlikda yordam beradi.

3. Yurak faoliyatini normallashtiradi. Anor mevasi va suvi arteriyalar sklerozini (asterosklerozda qon tomir devorlarida qon nuqtalarining to'planib qolishini) sezilarli darajada keskinlashtiradi, bu esa kasallik rivojlanishini to'xtatadi. Aks holda kasallik rivojlanishi qon bosimini oshirib, infarkt yoki insultga olib kelishi mumkin. Shuning uchun diabet bilan og'riydiganlar uchun anordan ko'proq iste'mol qilsalar, ateroskleroz bilan og'rish xavfi kamayadi.

4. Insulinning o'rnini bosadi. Anor mevalari – diabetiklar uchun nafaqat

mumkin bo'lgan, balki foydali bo'lgan mevalardan biridir. Buning uchun ovqatdan oldin kuniga 4 mahal 60 tomchidan anor suvi iste'mol qilinadi. 3 kundan boshlab qondagi shaker miqdori ahamiyatli tarzda pasayadi.

5. A'zolari himoya qiladi. Anor kemirchak (qattiq biriktiruvchi to'qimadan iborat, a'zolari qoplovchi bo'g'in qatlami) ga zarar keltiruvchi fermentlarni to'xtatadi. Shuning uchun osteoartritdan aziyat chekuvchi odamlar anorni kunlik taomnomalariga qo'shishlari kerak. Bunday diagnoz qo'yilgan odamlarga anorning shamollashga qarshi xususiyati ham ayni muddao bo'ladi.

6. Saraton kasalligini, shu jumladan prostata va ko'krak bezi saratonini davolashga yordam beradi. Davolanish jarayonida har kuni 250 ml anor suvi ichish saraton rivojlanishini sezilarli darajada sekinlashtiradi. Agar ko'krak saratonida anor mevasini iste'mol qilish yoki uning suvini ichish, ba'zi bir saraton hujayralarining o'sishini nafaqat sekinlashtiradi, balki to'xtatib ham qoladi. Anorda fitokimyoviy moddalar guruhi – ellagitaninlar borligi aniqlangan bo'lib, ular estrogen gormoni bilan bog'liq bo'lgan ba'zi saraton turining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu modda estrogen ishlab chiqarilishi uchun javobgar bo'lgan ferment ishiga to'sqinlik qiladi va saraton shishining o'sishida muhim rol o'ynaydi.

7. Gijjalarni haydaydi. Yetilgan anor po'stlog'ida kuchli gijja haydovchi alkaloidlar mavjud. Gijjalardan forig' bo'lish uchun quritib maydalangan po'stloqning 40-50 grammni 400 ml sovuq suvga 6 soat tindiriladi, keyin past olovda, suyuqlikning yarmi bug'lanib ketguncha miltiratib qaynatiladi. Sovutilgan damlama sizib olinadi va 1 soat davomida kichik porsiyalar bilan ichiladi. 1 soatdan keyin ich suruvchi dori ichiladi, 4-5 soatdan keyin huqna (klizma) qilinadi.

8. Diareyani to'xtatadi. Anor mevasi va po'stlog'i bitishtiruvchi xususiyatga ega. Shuning uchun ular ich ketishi, kolid, enterokolitni davolashda an'anaviy vosita hisoblanadi. Kattalar quritilgan va maydalangan anor po'stlog'ini kuniga 3 mahal bir chimdimdan iste'mol qilishi kerak. Bolalarga esa shu maqsadda yarmiga su qo'shilgan yangi siqilgan anor suvi berish mumkin. Infektsion diareyada anor po'stlog'ida mavjud bo'lgan polifenollar dizenteriya tayoqchalari

va boshqa qo'zg'atuvchilar ko'payishini samarali tarzda kamaytiradi.

9. Ayollarga homiladorlik paytida, ayniqsa toksikoz hollarida yordam beradi, chunki anor donalari qusishga qarshilik ko'rsatuvchi xususiyatga ega. Undan tashqari agar ayol o'z taomnomasiga anorni kiritrsa, nafaqat toksikozdan forig' bo'ladi, balki o'z farzandining sog'lig'iga ham kata yordam bergan bergan bo'ladi. Sharqda agar bolaga anor suvi ichirilsa "tili tez chiqadi" degan aqida mavjud.

10. Oshqozon-ichakdagi zaharli moddalarni chiqaradi va ichakni virusga qarshi himoya bilan ta'minlaydi. Shuning uchun anor suvi oshqozon-ichak va jigar faoliyatini yaxshilaydi, shu bilan birga qonni tozalaydi.

11. Tishlarni himoya qiladi. Anor suvi antibakterial xususiyati bilan tishlarda tosh paydo bo'lishining oldini oladi. Shuningdek, og'izdan yoqimsiz hid kelishi va milk shamollashiga ham yaxshi samara beradi.

12. Og'iz va tomoqni dezinfeksiyalaydi. Angina va faringitda anor po'stlog'i damlamasi yoki anor suvi qo'llaniladi. Stomatit va gingivitda (og'iz bo'shlig'i kasalliklari) ham og'iz ushbu vositalar bilan chayiladi. Dubil moddalar og'riqni pasaytiradi, organik kislotalar esa infeksiyani yo'qotadi.

13. Tumov va grippdan tuzalish jarayonini tezlashtiradi. C vitaminining ko'p miqdorda bo'lishi tumov va gripp bilan samarali kurashish imkonini beradi. Buning uchun har kuni 1-2 stakan suv qo'shilgan anor suvi ichish kerak.

14. Nurni (radiatsiyani) tanadan olib chiqadi. Anor suvi radioaktiv izotoplar bilan ishlaydigan yoki yuqori radiatsiya hududlarida yashovchi odamlar uchun juda foydali.

15. Teridagi husnbuzarlar, toshmalarni yo'q qilishda yaxshi samara beradi. Teridagi yirtilish, timalish va kuyishlarni esa quritilgan po'stloq kukuni sepish orqali davolash mumkin.

1.3. Anorning tarqalishi va madaniylashtirish tarixi

Punica avlodi uchlamchi davrga xos bo'lgan eng qadimgi o'simlik turiga mansub. Bu o'simlikning qazilma qoldiqlari Fransiyaning janubida va Ozarbayjon yotqiziqlarida, undan ham qadimgilari hozirgi Boltiqbo'yi hududining uchinchi

cho'kindi jinslarida, *Punica* avlodi, *Diospyros*, *Laurus*, *Ficus* avlodlari bilan birgalikda Kanar yoki O'rta yer dengizi florasiga kiradi.

Anorning tabiiy tarqalish chegaralari: sharqda-Shimoliy-G'arbiy Hindiston va Shimoliy-Sharqiy Afg'oniston mintaqalari; shimolda-O'rta Osiyo respublikalarining janubiy viloyatlari, Katta Kavkaz tog' tizmasining janubida; g'arbda-Kichik Osiyo qirg'oqlari va Kurdistonning janubiy viloyatlari; janubda - Hind okeani qirg'oqlari va uning qo'ltiqlari hisoblanadi.

MDH hududida yovvoyi holda o'sadigan anorlarning eng katta butazorlari sharqiy Kavkaz orti tog'larida topilgan. Yovvoyi anorzorlari O'rta Osiyoning, Turkmaniston hududining g'arbiy Kopetog' tog'larida, O'zbekistonda, Tojikistonning Hisor va Darboz tog' tizmalarining janubiy yon bag'rilarida uchraydi. G'arbiy Kopetog'da yovvoyi anorning balandligi 6 m, Darboza tog'larida - 7 m, o'sish sharoiti uchun birmuncha noqulay bo'lgan Hisor tog'larida - atigi 3-5 m (72; 112).

N.I.Vavilov (45) anorning madaniy turlari kelib chiqishini O'rta Osiyo madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Chunki Kavkaz orti, Eron va G'arbiy Kopetog' hududlarida eng katta yovvoyi anorzorlari va shakllarining xilma-xilligi to'planganligini ta'kidlaydi.

Anor madaniy vakillarining paydo bo'lishi tarixdan oldingi davrlarga to'g'ri keladi. Anor haqidagi ma'lumotlar dastlabki tarixiy manbalarda qayd etilgan. Anor eramizdan 2000-3000 yil oldin Eron va Armanistonda yetishtirilgan. Misning qadimgi yodgorliklarida anor tasvirlari uchraydi. Gomer "Odissey"da (miloddan avvalgi 1000 yil) anorni Finikiya va Frakiyaning oddiy mevali daraxti sifatida tilga oladi. Gerodot Marafonni qamal qilgan fors shohi Kserks qo'shinlarida (miloddan avvalgi 490 yil) dastasiga anorning oltin tasviri tushirilgan qilichlar bilan qurollangan "anor brigadasi" bor edi deb yozadi. Anor daraxti Teofrastning "Tabiat tarixi" (miloddan avvalgi 350) asarida tasvirlangan (6; 3; 8; 53).

Qadim zamonlarda anor marosim va ramziy ma'noga ega bo'lib, ba'zi joylarda hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Anor mo'l -ko'pchilik va unumdorlik

ramzi bo'lib xizmat qilgan, buni Yunoniston, Kavkaz orti va O'rta Osiyoning qadimgi hududlaridan topilgan qazilma tasvirlar, xalq afsonalar va ertaklari tasdiqlaydi. Gretsiyada anor guli sevgi va onalik ramzi bo'lib xizmat qilgan.

Farg'ona vodiysida har bir anor mevasida faqat bitta don shifobaxsh xususiyatga ega degan qarashlar mavjud bo'lgan. Shuning uchun anorning shifobaxsh ta'siri bo'lishi uchun bemor mevaning barcha donalarini iste'mol qilish kerak bo'lgan.

Anorning qadimgi yunoncha nomi "rimmon" quyosh-xudosi Gadad-Rimmon ismiga mos keladi. "Rimmon" arabcha "rimman", shuningdek portugolcha "romma" yoki "romman" so'zidan kelib chiqadi. Rimliklar birinchi bo'lib anorni *Malum punicum* - Punik yoki Karfagen olma deb atashgan, bu esa Pun urushlari paytida Karfagendan Italiyaga anorning kirib kelganidan dalolat beradi. Inglizcha "Pomegranatum" so'zi Pomum granatum so'zidan kelib chiqqan, ya'ni urug' yoki donali olma. Lotincha granatus so'zi donli degan ma'noni anglatadi. K.Linney *Punicum granatum L.* deb botanik nomini berdi.

Ispan tili keng tarqalgan mamlakatlarda anor granada, Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Hindistonda - "anor" va undan olingan so'zlar: turkiy "narr", armancha "num" va boshqalar.

Madaniy anorning vatani bo'lgan-Eron, G'arbiy Kopetog', Sharqiy Kavkaz bu turning asosiy shakllanish jarayoni sodir bo'lgan va shu yerdan dunyoning boshqa mintaqalariga: Osiyoning sharqiga, shu jumladan Xitoyga, g'arbga Shimoliy Afrika va Ispaniyaga tarqalgan. Amerikaga anor birinchi marta Meksikanlar Kortes bosib olgandan keyin kelgan (45; 132; 70).

Hozirgi vaqtda madaniy anor butun dunyo bo'ylab, yani 41° janubiy kenglikdan 41° shimoliy kenglikgacha keng tarqalgan. MDH hududlarida anor yetishtirishning eng shimoliy chegarasi, ba'zi joylarda 44° shimoliy kenglikgacha boradi va undan o'tadi. O'sib rivojlanish uchun noqulay sharoitlarda, anor o'simliklari osonlikcha yovvoyilashib, yovvoyi anorzorlar hosil qiladi. Yovvoyi anorning bunday joylari Gretsiyada va boshqa O'rta Yer dengizi mamlakatlarida uchraydi.

O'rta Osiyo hududlarida, madaniy anor navlarining paydo bo'lgan vaqt noma'lum. S.P.Tolstov (165) Xorazm ekspeditsiyasi vaqtida Tuproqqala qal'asini qazish paytida (IV-asr boshlari) devorga chizilgan rasm qoldiqlaridan hosildorlik ma'budasi Anaxitaning anor mevasining tasvirini topgan.

B.S.Rozanov (132) O'rta Osiyoda anorning madaniylashtirilganligiga kamida 2000 yil, ehtimol, bundan ham ko'proq ekanligini taxmin qiladi. Markaziy Osiyo respublikalari orasida O'zbekistonda anor eng keng tarqalgan bo'lib, bu yerda hududagi barcha anor bog'larining 25% dan ortig'i joylashgan.

Anor asosan mevali ekin sifatida yetishtiriladi, lekin undan dorivor, texnik va manzarali maqsadlarda ham foydalaniladi. Uning mevalari yuqori ta'm va shifobaxsh xususiyatlarga ega, ular yaxshi saqlanish sifati bilan ajralib turadi (4-6 oygacha).

Anor mevasining qobig'i yoki po'stlog'i bir nechta kamera (bo'lma) larni yoki uyalarni o'rab olgan, ularning har biri ichida urug'i bo'lgan, sharbat bilan to'lgan yupqa membranali donlarga to'la bo'ladi.

Anor navlari qobig'i, doni, urug' massasi va shunga mos ravishda sharbat chiqimi, hamda o'sish sharoitiga qarab har xil bo'ladi. Ko'pchilik madaniy anor navlarida qobig'ining og'irligi meva massasiga nisbatan 30-50% gacha bo'ladi. 1000 ta donning og'irligi 30-45 g, 1000 ta quruq urug'i 3-6 g. Meva sharbatining chiqimi 40-60% ni tashkil qiladi.

Nazorat savollari:

1. Anor yetishtirish bo'yicha hukumat qaror va farmonlarini izohlang.
2. Anor tarkibida qaysi uglevod va vitaminlar bor va ularning ahamiyati qanday?
3. Anorning inson sog'ligi uchun ahamiyatini izohlang.
4. Anorning kelib chiqishi va tarqalishini ayting.
5. Anorning tarqalishi bo'yicha shimoliy va janubiy kenglik necha gradusni tashkil etadi?

II-BOB. ANORNING MORFOLOGIYASI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1. Anorning botanik ta'rifi

Anor *Punicaceae* oilasining *Punica* turkumiga mansub bo'lib, uning ikkita *P. protopunica*, *P. granatum* turi bor. *P. protopunica* Sokotra orolining (Hind okeani) endemik turi hisoblanadi. Sokotra oroli florasi turlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. *P. protopunica* - yumaloq yoki ellipissimon bargli, doimiy yashil daraxt. Gullari ikki tipda: uzun ustunli ikki jinsli va qisqa ustunli funksional erkak. Gulqo'rg'oni murakkab kosacha va gultoj barglari 4-6, gultoj barglari och qizil rangda. Mevalari mayda. Bu tur xo'jalik ahamiyatga ega emas. Turning barglari, gullari va mevalari *P. granatum* nikidan kichikroq (18; 9; 70).



1-rasm. *Punicum granatum*

2-rasm. *Punicum protopunica* L

P. granatum turining madaniy va yovvoyi holda o'sadigan shakllari mavjud. Tabiiy sharoitda o'sadigan anor poyasi egilgan, sershox, uchki shoxlari tarvaqaylab ketgan, balandligi 3-5 m keladigan uncha kata bo'lmagan daraxt yoki yirik buta. Novdalari silliq, tekis, ingichka, uchki qismi kurtaklar yoki tikanlar bilan tugaydi. Tikanli uchlari, ko'proq qisqa va qalinlashgan kurtaklar hosil bo'ladi. Yon kurtaklari kichik, cho'zilgan, uzunligi 2-3 mm. Uchki kurtaklari esa yirikroq, qalinlashgan, yumaloq.

Bargi. Anorning barglari oddiy, tekis qirrali, lansetsimon, yaxlit, tubi

ponasimon, tepasi yumaloq. Barglarning tagi yaltiroq, to‘q yashil, uzunligi 2-8 sm, eni 1-2 sm. Barg bandi kalta, 0,5-0,7 sm. Bir yillik novdalarining barglari yakka, qarama-qarshi joylashgan, eski novdalardagi barglari 4-6 yaproqchali murakkab shaklda.



3-rasm. Anorning bargi

Guli. Anor gullari dimorf. Ba'zi gullari ikki jinsli, tugunchasi yaxshi rivojlangan ustunchasi uzun, ko‘zachasimon shaklda bo‘lib, ko‘pincha yakka-yakka joylashgan bu gullardan meva hosil bo‘ladi, boshqa gullari kichikroq, qo‘ng‘iroq shaklda, tugunchasi qisqa rivojlanmagan, ustunchalari kalta. Kalta ustunchali gulbanda odatda 3-5 donadan joylashib, meva hosil qilmaydi. Gullari ochilguncha, uzun ustunchali gullarning gul bandi 4-5 sm, gul diametri 1-2 sm, kalta ustunli gullarni gul bandining uzunligi 2,5-3,0 sm ga yetadi. Gul ustunchalari har xil darajada reduksiyalashgan ustunchali oraliq gullar ham uchraydi. Odatda gullarining rangi och qizil yoki pushti qizil.

Gul o‘mi naysimon, etli, tuguncha ustida rivojlangan bo‘lib kosacha barg bilan birlashib o‘sgan. Gultoj barglari, odatda 5-6, ba‘zan 4-8 dona, qizil, to‘q sariq-qizil, teskari tuxumsimon shaklda, alohida kosacha barglari bilan almashib turadi. Changchilari 100-250 dona, gulqo‘rg‘onning ichida 4-5 ta halqa hosil qilib joylashgan. Changchilari ellipssimon bo‘lib uzunasiga yoriladi. Tugunchasi 5-6, ba‘zan 4-8, meva barglarning qo‘shilishdan hosil bo‘lgan, ustunchasi 5-6 tumshuqchali bo‘lib o‘rtasi botiq. Tugunchasi ostki, ko‘p uyali.



4 – rasm. Anor gullning rasmi

Mevasi. Anorda mevaning gulo'ni saqlanib qolgan, qalin qobiqli yirik yumaloq rezavor. Ba'zi anor navlarining mevalari yirik bo'ladi. Masalan, Qozoqi-anor va Achchiq-dona navlari mevasining diametri 15-18 sm ga yetadi. Mevasi ko'p urug'li. Bitta mevadagi urug'lari 1000-1200 donagacha va undan ko'p, 6-12 bo'lmali (kamerali) yoki ikkita qatlamda noto'g'ri joylashgan uyalarda joylashgan. 50-100 tagacha urug'ni o'z ichiga olgan uyalar, yupqa po'stlar bilan ajratilgan. Yuqori qavatida odatda 5-6, ba'zan 4-8 ta uya, pastki qavatida 2-5 ta uya bo'ladi. Urug'lari cho'zinchoq, qovurg'ali, qattiq, yumshoq urug'siz navlari bor. Har bir urug'i metamarfozlangan bo'lakdan hosil bo'lgan shirali qopqoq bilan o'ralgan. P.M.Jukovskiy (1971) ma'lumotlariga ko'ra, anor - eng tipik suvli mevali o'simlik. Xromosomalar soni $2n=16$. Xromosomalar shakli va hajmi jihatidan aniq farq qiladi, ikkitasi kattaroq bo'lib boshqalaridan keskin ajralib turadi. Naviga, mevasining joylashishiga va boshqa sharoitlariga qarab, pishgan mevalarining rangi och sariqdan, qizil va to'q qizil ranggacha o'zgaradi.

P. granatum turi, meva shakllaridan tashqari, bir qator manzarali formalarga ega: *var. albescens* - oq gulli formasi; *var. rubrum*-qizil gulli; *var. nana Pers*-kalta karlik anor; *var. multiplex*-mayin oq gulli manzarali anor; *var. pleniflor Hayn.ber* -mayin qizil gulli va boshqalar.



5-rasm. Anor mevasining ko'rinishi

B.S.Rozanov (132) anorning barcha madaniylashtirilgan meva shakllar turiga xos tasnifini ishlab chiqan va madaniy navlarni qamrab olgan *P. granatum* turining filogenezi qatorlarini yaratdi.

P. granatum turlarining ichida ikkita kenja turi bor:

1) *Subsp.chlorocarpa B.R.* Bu kenja tur o'z navbatida *var.viridicolla B.R.* va *var rosaeicola B.R.* tur xillariga bo'linadi.

2) *Subsp.porphycarpa B.R.* Bu kenja tur o'z navbatida *var rubricolla B. R.* va *var.cinereicolla B.R.* tur xillariga bo'linadi..

Biologik xususiyatlarga ko'ra, eng qadimgi anor *Subsp.chlorocarpa B.R.* kenja turning *var.viridicolla B.R.* tur xili hisoblanadi. Buning isboti tur xili ichida shirin, shirin-nordon, nordon, doimiy yashil shakllarning mavjudligi hamda ularning tabiatda keng tarqalishi hisoblanadi. *Subsp.porphycarpa B.R.* kenja tur ichida *var.cinereicolla B.R.* tur xili ancha yosh hisoblanadi. Bu tur kam differensiyallashgan, doimiy yashil shakli yo'q, yovvoyi holda uchramaydi, sovuqqa chidamliligi bilan ajralib turadi.

Anorning keng tarqalgan madaniy navlarining ko'p qismi *var rubricolla B.R.* va *var.cinereicolla B.R.* tur xillariga mansub. *var rubricolla B.R.* tur xillariga Qizil-anor, Surx-anor, Bala-myursal, Pushti gyulosh, Kirmizi-kabux, *var.cinereicolla B.R.*—tur xiliga Qozoqi-anor, Shax-nar kabi navlari kiradi. *Subsp.chlorocarpa B.R.* kenja turining *var.viridicolla B.R.* tur xiliga Boysun, Dashnabad bedonasi, Shoulyan va Zubayda navlari; *var rosaeicola B.R.* tur xiliga

Achchiq-dona, Oq-dona va Qizil-dona navlari kiradi.

2.2.Ildiz tizimi

Anor ko'chatlari dastlabki 1-2 yil ichida oz sonli shoxlari bo'lgan o'zakli ildizni hosil qiladi. Ko'chatxonadan bog'ga ko'chirilgandan so'ng, urug'lik va payvandlangan o'n-o'n besh yillik o'simliklar shunga o'xshash ildiz tizimiga ega.

Ishlab chiqarish sharoitida anor yillik novdalardan olingan qalamchalar yordamida payvandlab ko'paytiriladi. Ko'chatxonada o'simliklarning ildiz tizimining rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq: tuproq unumdorligi, qalamchalar hajmi, ekish sanalari va boshqalar.

Ildizlar ekilgan qalamchanning pastki kurtak zonasida rivojlanadi. Yaxshi rivojlangan ko'chatlarda katta ildizlarning o'sib borayotgan asoslari qalamchanning pastki kesimida hosil bo'lgan kallus halqasini qoplaydi. Kam rivojlangan bir yillik anor ko'chatlarida kam sonli ildizlar, qalamchanning pastki kesimining kallusi yuqorida joylashgan ildizlarning asoslari bilan qoplanmagan. Ularning ko'pchiligi ma'lum masofada (5-15 sm) sezilarli darajada egilib, tuproqning chuqur qatlamlariga kirib boradi. Eng katta egilish joyida birinchi yirik novdalar paydo bo'lib, asosan pastga qarab o'sadi. Natijada, bir yillik yaxshi rivojlangan ko'chatda katta ildizlar ochiq soyabon qolipiga o'xshash shakl hosil qiladi (O.P.Kulkov; 1983).

Gorizontal yo'nalishda ildizlar odatda tekisroq va ingichka bo'lib o'sadi. Ko'chatxonada o'stirilganda, bunday ildizlar odatda qatorida ketma-ket kuzatiladi, chunki qator oralarida ular ishlov berish paytida yo'q qilinadi. Eng katta ildizlarda, ishlov berilmagan tuproq qatlamida hosil bo'lgan novdalar yondosh qator yo'nalishi bo'yicha gorizontal ravishda o'sishi mumkin. 70-80 sm qator oralig'ida va 20-30 sm qatordagi o'simliklar orasidagi masofa bilan bir yillik ko'chat ildizlarining bir qismi yondosh ko'chatlarning ildizlari joylashgan zonaga kiradi.

Anor ko'chatining ildizlari asosan ko'p sonli shoxlanishlar bilan o'ralgan. Bundan tashqari, ildizlarning asosiy massasi joylashgan joydan tashqariga chiqadigan, to'g'ri, biroz tarvaqaylab ketgan, kichikroq diametrli ildizlar mavjud.

Bir yillik anor ko'chatlarini ildizlari 100-120 sm chuqurlikka yetib borishi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bog' yaratishda amaliyot quyidagi to'rt muhim omillarni o'z ichiga oluvchi tadbirlar, texnologiyalar va tizimlarni targ'ib qiladi:

- 1) Iqtisodiy daromad olish imkoni mavjudligi.
- 2) Atrof-muhitga zarar keltirmasligi.
- 3) Yer resurslaridan unumli foydalanganligi.
- 4) Xavfsiz va yuqori sifatdagi oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish amaliyoti.

Quyidagi shaxslarga va muassasalarga yuqoridagi talabni qo'llanilishi mumkin:

- Mahsulotiga qo'shimcha qiymat qo'shishga va yangi bozorlarga intilayotgan kichik, o'rta va katta hajmdagi dehqon va fermer xo'jaliklari.
- Mukammal agrotexnik tadbirlar yordamida yetishtirilgan ishonchli sifatdagi va xavfsiz oziq-ovqat istemol qilish istagidagi iste'molchilar.
- Yuqori sifatdagi mahsulotlardan foyda olish istagidagi dehqon, fermer xo'jaliklari, tomorqa yer egalari va tadbirkorlar.
- Atrof-muhitni asrashga qaratilgan tadbirlarni targ'ib qiluvchi shaxslar.

Yangi anorzorlar rejasini tuzish va ularni barpo qilish. Bog' barpo qilishda shuni aytish mumkinki, yangi bog'larni rejalashtirishda anorchilikning rivojlanishida muhim rol o'ynovchi uchta asosiy masalaga alohida e'tibor berish tavsiya qilinadi:

1. Imkoniyat darajasida ko'chatlarni sovuq urishdan saqlovchi tadbirlarni bajarish;
2. Neytral pH ko'rsatgichiga yaqin namlikni yaxshi o'tkazuvchan tuproq sharoitini yaratish;
3. Yuqori sifatdagi meva yetishtirish uchun talab etiluvchi yetarli miqdorda suv manbai bilan ta'minlash;

Ob-havo sharoitlari. Anor butalari rivojlanishi uchun optimal sharoitlar

yetarlicha quyosh nuri, iliq qish va quruq (issiq) yoz mavsumidir, ayniqsa meva rivojlanishining so'nggi bosqichlarida yomg'ir bo'lmasligi katta ahamiyatga ega. Bunday sharoitlarda meva eng yaxshi hajm, rang va yetarlicha shira oladi, bu esa o'z navbatida mevaning sifati buzilishi bilan bog'liq muammolarni kamaytiradi.

Anor butalari tinim davrida -11°C haroratda sovuqdan zararlanishi mumkin. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki anor butalari -9°C dan -12°C gacha haroratga chidashi mumkin. -20°C dan haroratda esa anor butalari yer yuzasiga muzlab quriydi. Vegetativ mavsum uzoq davom etuvchi, lekin harorat -15°C dan tushib ketuvchi hududlarda samarali hosil olish maqsadida anor ko'chatlarini qishki sovuqdan himoyalash tavsiya qilinadi. Kech gullashi sababli odatda erta bahordagi qirovlar anor ko'chatlari uchun uncha katta muammo tug'dirmaydi, ammo kech kuzgi qirov yoki kutilmagan sovuq hosil uchun juda havfli bo'lishi mumkin.

Anor butalari qishki tinim davrida sovuqqa birmuncha chidamli, lekin kuzda tinim davriga to'liq kirgungacha bo'lgan va bahorda kurtak yozish davrlarida sovuqdan zararlanishga ancha moyil bo'ladi. Anor butalari issiqqa juda chidamli va 120 kun davomida harorat $+30^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'ladigan hududlarda juda yaxshi rivojlanadi.

Tuproq sharoitlari. Anor butalari turli tuproq sharoitlariga moslasha oladi, lekin unumdor tuproqlarda juda yaxshi rivojlanadi. Shunday bo'lsada ular turli tuproq sharoitlarida rivojlanishi mumkin, shu jumladan o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda ham.

- Anor butalari sho'rlik darajasi bir oz yuqori bo'lgan tuproqlarda ham rivojlanishi mumkin.
- Tuproqning suv o'tkazuvchanligi (suv turib qolmasligi) juda muhim.

Anor butalari kislotaligi o'rtacha, ishqoriyligi bir oz yuqori bo'lgan tuproqlarda ham rivojlanishi mumkin, ular yaxshi rivojlanishi uchun eng yaxshi tuproq sharoitlari bu pH o'lchami 5,5 va 7,5 oralig'idagi tuproq sharoitlari hisoblanadi. Tuproqning ishqoriyligi yuqori va tuproqning suv o'tkazuvchanligi yomonlashgan sharoitlarda meva sifati yomonlashadi. Yuqorida aytilganidek, anor

unumdorligi yuqori bo'z tuproqlarda yaxshi rivojlanadi, lekin ular qumoq tuproqlarda ham yaxshi rivojlanishi mumkin.

Sug'orish suviga bo'lgan talablar. Anor butalari uchun suv yetarli bo'lishi juda muhim, shu sababdan ular yetarlicha sug'orilishi tavsiya qilinadi. Agar mavsum davomida sug'orish imkoniyati mavjud bo'lsa, suvsizlikdan qiynalmasligi uchun butalar qancha talab qilsa shuncha sug'orilishi maqsadga muvofiq. Umuman olganda, mavsum va hudud talablaridan kelib chiqqan holda yoz mavsumlarida anor butasi yetarlicha sug'orilishi zarur. Suv turib qolmasligi va tuproqning suv o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun zarur chora-tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi. Anor butalari minerallasganlik darajasi yuqori bo'lgan suv bilan sug'orilsa ham rivojlanish xususiyatiga ega. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Isroil va Markaziy Osiyo anor navlari shunday sharoitlarda ham yaxshi rivojlanib hosil berishi mumkin va butaga hech qanday salbiy zarar yetganligi kuzatilmagan. Sho'rlanganlik darajasi yuqori bo'lgan suv bilan bog'larni sug'orish muntazam bir tartibda amalga oshirilishi shart, shunda tuproqdagi tuzni yuvib turish va sho'rni ko'payishining oldini olish imkoni bo'ladi.

Bog' uchun yer tanlash. Anorzor uchun yer tanlanayotganda e'tibor berilishi kerak bo'lgan eng muhim omil bu ob-havo sharoitidir. Bog' uchun yer tanlayotganda tuproq turidan tashqari yana sug'orish suvining mavjudligi, tuproqning suv o'tkazuvchanligi, quyosh nurining qanchalik ko'p tushishi va havo aylanishi kabi omillarga ham e'tibor berish kerak. Anor butalari mevasi yaxshi rang olishi va hosildorlik yuqori bo'lishi uchun bir kunda kamida 6 soat davomida quyosh nuriga to'yinishi shart. Imkoniyatlari chegaralangan hududlarda anor butalarini ekishdan qochish kerak.

Yer tayyorlash. Dastlab qiyaligi katta bo'lmagan yerlarni maxsus texnika yordamida shox-shabbalardan (chizellash, diskalash yordamida) tozalanadi. Ko'pgina bog'bonlar tuproqning suv o'tkazuvchanligini yaxshilash, kemiruvchilar inlarini buzish, tosh yoki eski buta ildizlarini yer yuzasiga chiqarish uchun maxsus uskuna bilan yerni 40 sm dan 60 sm gacha bo'gan chuqurlikda shudgorlanadi. Yerga bunday ishlov berish, yer ostida qanday muammolar borligini bilish uchun

ham juda qulay. So'ngra mola bosiladi (tekislanadi). Bunday amaliyotni yangi ochilayotgan yerlarga qo'llashda ehtiyot bo'lish kerak, chunki qishki ko'p yomg'irlar oqibatida tuproq eroziyasi muammosini keltirishi mumkin. Tuproqdagi ozuqa miqdorini bilish uchun 50 sm (1 metrgacha) chuqurlikdagi tuproq qatlamini laboratoriya tahlilidan ham o'tkazish va tuproqning pH darajasini aniqlash tavsiya qilinadi. To'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun yerning turli qismlarida shunday tekshiruvlar amalga oshirish maqsadga muvofiq, chunki ayni bir yerning turli qismlari turli xil tuproq turlaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Suv yig'ilib qolishi: Suvni yaxshi o'tkazmasligi sababli yerning ba'zi qismlarida kuchli yomg'ir tufayli ko'lmaklar hosil bo'lishi mumkin. Alohida chora-tadbirlar ko'rilib zovurlashtirish muammosi hal qilinmaguncha yerning ushbu qismlariga anor ko'chatlari ekilmasligi kerak.

Anor navlarini tanlash. Anor navlari nafaqat hosildorligi, balki quyidagi sifatlardan kelib chiqqan holda tanlanishi shart:

- Ob-havo va ma'lum bir hudud iqlimiga moslasha olishi talablaridan kelib chiqqan holda;

Ma'lum bir hududdagi zararkunanda hashorotlar va kasalliklarga chidamligi;

Ozuqa va suvga bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda;

Ba'zi navlar ko'proq hosil elementlarining mavjud bo'lishi va meva hajmi katta bo'lishi uchun changlatuvchi navni zichroq ekilishini talab qiladi.

- Butaning o'sish sur'ati, bu ekish sxemasini belgilaydi;

- Haridorlar va bozor talabidagi mahsulot sifati;

Anor butalari odatda o'zidan, boshqa navlar va hashorotlar yordamida, asosan asalarilar yordamida changlanadi. Ularni shamol yordamida changlanishi juda sust deb topilgan. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini changlatuvchi navlarning hosildorligi har-xil. O'z-o'zini changlatuvchi navlar gullari nazoratga olinganda 45% foizgacha meva tukkan, boshqa navlar yordamida changlanuvchi navlar nazortaga olinganda hosildorlik 68% ga ortgan. Katta hajmdagi bog'larda faqat bir navli anor ko'chatlarini ekish tavsiya etilmaydi. Mavsum davomidagi pishib borish tartibi bo'yicha bir nechta navdan foydalanish maqsadga muvofiq, bu

usul hosil yig'ishtirish jarayoni va bog'ni boshqarish jarayonlarini maksimallashtiradi, ya'ni ishchi kuchi va texnikalardan unumli foydalanish imkonini beradi.

Ekilishi rejalashtirilayotgan ko'chatlar sifati. Sog'lom, yuqori sifatli ko'chatlarni ekish tavsiya etiladi.

4.2.Ko'chatlarni yetishtirish

Anor urug'lar, ildiz novdalari va novdalarning qalamchalari bilan ko'payadi. Ko'chatlarning atigi 48-50% urug'lar bilan ko'paytirilganda ona navining xususiyatlarini takrorlaydi va ularning meva sifati odatda past bo'ladi (132). Urug'lar bilan ko'paytirish asosan urug'chilik ishlarida qo'llaniladi. Ishlab chiqarish sharoitida anorni ko'paytirishning eng samarali usuli - qalamchalardan ko'chat yetishtirishdir.

Butaning turli joylaridan va novdalarning turli qismlaridan olingan anor qalamchalari sifatining bu qalamchalardan yetishtirilgan butalar hosiliga ta'sirini aniqlash uchun 1960 yilda Janubiy O'zbekiston tajriba stansiyasida tegishli tajriba o'tkazilgan. 1961 yilda o'rtacha hosildorlik 0,4-0,5 kg / butadan, maksimal hosildorligi 4,1 kg/buta, 1962 yilda 4,6 kg/buta yoki 30 sentner/ga, 1963 yilda mos ravishda 10,4 kg yoki 69,3 sentner. 1964 yil - 76,0 sentner/ga yetganligi aniqlangan (92).

Novdaning o'rta qismidan yig'ib olingan qalamchalardan o'stirilgan butalar pastki qismidan (tayanch) olingan qalamchalardan o'stirilgan butalardan har jihatdan farq qilmasligi aniqlangan. 1962-1964 yillarda o'tkazilgan kuzatishlar anor qalamchalarini tayyorlash joyining qisqa va uzun urug'chi gullarning shakllanishiga, mevaning o'rtacha vazni va yorilish darajasini belgilashga muntazam ta'siri aniqlanmadi. Alohida anor butalarida bu ko'rsatkichlar qiymatlarining o'zgarishi, qalamchalar yig'ib olingan joy tufayli, iloji boricha kengroqdir.

Ikki yillik shoxlardan o'stirilgan butalar keyinchalik meva berish va past hosildorlik bilan ajralib turdi. Shunday qilib, bir yillik novdalardan yetishtiriladigan "Qozoqi-anor" navli anor butalari orasida 1962 yilda 93% mevali

navlar hosil bo'lib, har bir tupdan o'rtacha 5,5 kg, ikki yillik o'stirilgan butalar shoxlarida mos ravishda 38,5% va 2,5 kg hosil bo'lgan. Huddi shunday holat 1963 va 1964 yillarda ham qayd etilgan. Bir yillik novdalardan yetishtirilgan butalarning hosildorligi uch yil davomida o'rtacha ikki yillik shoxlardan o'stirilgan butalarda mos ravishda 4,0 va 7,2 kg bo'lsa, "Qozoqi-anor" navi uchun 10,0 kg, Oq-dona uchun 8,2 kg.

Yuqoridagi ma'lumotlar anor yetishtiruvchilarning ikki yillik mevali shoxlardan o'stirilgan butalar yuqori mahsuldor ekanligi haqidagi fikrini tasdiqlamaganligi (B.S.Rozanov 1961) ham yumaloq qalamchalar va mevali shoxlardan yetishtirilgan butalarning hosildorligida farqlar yo'qligini qayd etildi. Birinchi ikki yil ichida ularning hosildorligi novdalar tagidan olingan qalamchalardan o'stirilgan butalarnikidan yuqoriligi qayd etilgan. Bu ko'rinishidan, qalamchalarni yig'ish uchun ishlatiladigan novdalarning tagida va tepasida novdalarning shakllanishi uchun turli sharoitlarga bog'liq. Novdaning asosi bahorda anor butasi o'sishi boshida paydo bo'ladi va yuqori qismi yozning ikkinchi yarmida, novdalar o'sishi to'xtay boshlaganda rivojlanadi. Novdalarning o'sishining dastlabki va oxirgi davrlarining turli xil sharoitlari turli xil sifatli novdalar va to'qimalarning paydo bo'lishiga va shu sabab turli qalamchalar olinishiga olib keladi. To'liq meva berish davriga kirishi bilan, ya'ni tovar hosilining to'rtinchi - beshinchi yilida turli xil qalamchalardan, shu jumladan ikki yillik o'simliklardan o'stirilgan butalarning hosildorligida sezilarli farq yo'q. Janubiy O'zbekiston stansiyasi (hozirgi M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi)da o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, unumdor butalardan qalamcha olinsa, yaxshi hosil berish belgisi asosan naslda saqlanib qoladi, gullaydigan, lekin meva bermagan butalardan qalamcha olinsa, nasl meva bermaydi.

Eng yaxshi ko'chatlar naslining hosildorligi mos keladigan anor navlarining o'rtacha hosildorligidan 10,0-29,4% ga yuqori. Qozoqi-anor navlarining o'rtacha hosildorligi 27,0 kg/tup, Qizil-anor - 31,9 kg/tup, Achchiq

donak - 27,2 kg/tup, Pushti gyulasha-28,5 kg/tup, shu navlarning mahsuldor ko'chatlarda mos ravishda 32,2 kg/tup; 39,2 kg/tup; 35,2 kg/tup va 31,5 kg/tup hosil beradi. Shuning uchun, qalamchalarni yig'ish faqat eng yaxshi navlarning tasdiqlangan yuqori mahsuldor, hosilli ona butalaridan amalga oshirilishi kerak. Bu ko'paytiriladigan navning o'rtacha hosildorligini oshirishga yordam beradi. Hosildorligi past va qiymati past navli butalardan foydalanish anor plantatsiyalarining hosildorligini pasaytiradi.

A.K.Sokolov (155) anor novdalarining o'rta qismidagi qalamchalardan yaxshi ildiz otish va standart ko'chatlarning ko'proq hosildorligini qayd etadi. T.Yusupov (179) ma'lumotiga ko'ra, bir yillik qalamchalar, ya'ni 5-10 sm uzunlikdagi ikki yillik novdalar bo'lagi sekinroq, lekin to'liqroq ildiz otadi. Bir yillik qalamchalarda ildiz shakllanishi va o'sishi ikki-uch yillik novdalardan qalamchalarga qaraganda 30 kun oldin boshlanadi, shu sababli ikkinchisida standart ko'chatlarning hosildorligi pasayadi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, novdaning bir xil qismlaridan, lekin butaning turli joylaridan olingan qalamchalarning ildiz otish tezligi taxminan bir xil, novdaning turli qismlaridan olingan qalamchalar uchun u boshqacha. Shunday qilib, diametri 0,5 sm dan kam bo'lgan uchli anor qalamchalarining omon qolish darajasi 34,1 ni, novdaning o'rta qismidan - 66,3 ni, qalinligi 1,5-2,0 sm dan ortiq bo'lgan novdalar asosidan - 48,9 % ni tashkil etadi. Qalamchalarning nobud bo'lmaslik darajasi ularning kattaligi sezilarli darajada ta'sir qiladi. Anor qalamchalarining diametri kamida 8-10 mm bo'lishi kerakligini aniqlandi, chunki ingichka qalamchalar standart ko'chatlarning ildiz otishini va hosildorligini keskin kamaytiradi. Anor qalamchalarining optimal uzunligi 20-25 sm. Qisqa qalamchalarda (20 sm dan kam) nobud bo'lmaslik darajasi va ko'chatlarning hosildorligi kamayadi. Uzun bo'lganlar uchun (30-40 sm) bu ko'rsatkichlar biroz oshadi, ammo bunday qalamchalar ekish paytida noqulay bo'ladi va ekish materialining sarfini oshiradi.

Anor qalamchalarida intensiv ildiz shakllanishi tuproqning o'rtacha kunlik harorati 12-14° C dan yuqori, ya'ni o'simliklarning faol vegetatsiya haroratida

kuzatiladi.

L.T.Toshmatov (163), A.K.Sokolov (155) anor qalamchalarida ildiz hosil bo'lishi ularni ekishdan 15-20 kun oldin boshlanadigan qirqish orqali kuchayishini aniqladilar. Shu bilan birga, ko'chatlarning hosildorligi 15% ga oshadi.

Turlarning tipikligini va butalarining hosildorligini aniqlash uchun ko'chatlarni sinovdan o'tkazish, butalarini tanlash, hosilni yig'ib olishdan oldin amalga oshiriladi. Payvandlashda hosildorlik uchun sinovdan o'tgan ona butalarining tojining tagida hosil bo'lgan yaxshi yetilgan yirik novdalar ishlatiladi. Qalamchalar uchun novdalar yig'ishning asosiy davri kuz, o'rim-yig'imdan keyingi davrda anorni qish uchun ko'mishdan oldin hisoblanadi. Butalar ochilgandan keyin bahorgi o'rim-yig'im kamdan-kam qo'llaniladi va qalamchalar olish ekilishi kechikishi va ularning nobud bo'lmaslik darajasining pasayishi tufayli bajarilmaydi.

Kesilgan novdalarda yupqa tepa, yon novdalar va tikanlar olib tashlanadi. Tozalangan novdalar - qalamchalar odatda 100 dona, bog'lamga bog'lanib, chuqurligi 0,75-1,0 m va eni 1,0-1,3 m bo'lgan yer osti suvlari chuqurligidan kamida 2-3 m bo'lgan chuqurlikdagi xandaqlarga ekishgacha saqlanadi. Qamchi to'plamlari xandaq bo'ylab gorizonta ravishda yotqiziladi, har bir qatorga 3-4 sm qatlamli oz nam tuproq bilan ishlatiladi.

Ko'chatxona uchun sug'orish uchun qulay, quyosh nuri bilan yoritilgan, quruq va sovuq shamollardan himoyalangan relefli tekislangan, suv bilan ta'minlangan joylar tanlanadi. Eng yaxshi tuproqlar unumdor bo'z tuproqlar, yaxshi quritilgan, yengil yoki o'rta qumoqlardir. Og'ir loy tuproqlar, mayda toshli tuproqli sho'rlangan va botqoqli joylar ko'chat yetishtirish uchun mos kelmaydi.

Qalamchalarning ildiz otishi va standart anor ko'chatlarining hosildorligini oshirishning muhim sharti qalamchalar uchun yuqori sifatli tuproqni tayyorlashdir. Shudgorlash chuqurligi ko'chatlarning rivojlanishiga ta'sir qiladi. B.M.Kreydik (84) Janubiy O'zbekiston stansiyasi (hozirgi M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi)da o'tkazgan tajribada 25 sm chuqurlikda haydashda qalamchalarning

unumi 31,4%, noyabrda qazishdan oldin ko'chatlarning o'rtacha balandligi 77,5 sm, haydashda esa 30 sm, mos ravishda 40,4% va 77,3 sm, 35 sm shudgorlashda - 59,6% va 82,8 sm bo'lishi aniqlangan. Kuzda ko'chat uchun ajratilgan maydonda 35 sm chuqurlikda kuzgi shudgor qilinadi, 20-30 t/ga organik o'g'it va 90 kg/ga fosfor qo'llaniladi. Erta bahorda shudgor molalanadi va ekishdan oldin chizellanadi, so'ngra molalash amalga oshiriladi. Qalamchalar O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ob-havo sharoitiga qarab 10-15 martgacha, ba'zan fevralda, shimoliy viloyatlarda esa 1 aprelgacha ekiladi. Ekishdan oldin, qalamchalar xandaqlardan chiqariladi va 20-25 sm uzunlikdagi qalamchalarga kesiladi. Pastki, bir oz qiyshiq kesma kurtak ostidan, yuqori qismi - kurtakdan 2 sm balandlikda o'tishi kerak. Kesilgan qalamchalar bir necha soat davomida oqadigan suvda namlanadi, keyin ekiladi. Ekish kechiktirilganda, qalamchalar nam tuproq bilan qoplanadi.

Qalamchalarni ekishning turli usullari mavjud. Eng yaxshilaridan biri rejalashtirilgan dala traktor bilan haydaladi, kultivator romiga o'rnatilgan ustun-pichoq yordamida har 70 sm 25-30 sm chuqurlikda tayyorlanadi. Har 10-15 sm, ularga qalamchalar kiritilib, qalamchani yuqori qismini tuproqdan 5-6 sm balandlikda qoldiradi. Keyin, traktor yordamida qalamchalar qatorlari orasidagi sug'orish jo'yaklarini qaziladi, bunda qalamchalarning yuqori uchlariga tuproq tashlanadi. 1 ga maydonga 90-110 ming qalamcha ekiladi. Ekishdan so'ng, mo'l-ko'l sug'orish amalga oshiriladi, bu tuproqning cho'kishiga va qalamchalar atrofida yerning mahkam qamrab olishiga yordam beradi va ularning ildiz otishini yaxshilaydi. Birinchi sug'orishdan so'ng, qalamchalar ekishdagi kamchiliklar bartaraf etiladi, jo'yaklar va suv yurish ariqlari to'g'rilanadi.

Ko'chat yetishtiriladigan maydonni o'z vaqtida va to'g'ri qishloq xo'jaligi parvarish qilish bilangina qalamchalar va sifatli standart ko'chatlarning omon qolish darajasini oshirish mumkin. Qalamchalarni ildiz otishi; oddiy qishloq xo'jaligi parvarishi bilan anorning ildizlashi 80-90% ga yetadi, standart ko'chatlarning hosildorligi 90-100% ni tashkil qiladi. Sug'orish qalamchalarning ildiz otishi va ko'chatlarning rivojlanishiga, ayniqsa ekishdan keyingi dastlabki 2-3

oyda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. B.M.Kreydik (Denov) ma'lumotlariga ko'ra, yiliga 10 marta sug'orilganda, qalamchalarning nobud bo'lmaslik darajasi 45,6%, o'simlikning o'rtacha balandligi 70,5 sm, 12 marta sug'orilganda mos ravishda 57,0% va 75,5 sm, 14 martada -69, 1% va 79,0 sm.ni tashkil qilganligi aniqlangan. Qo'shimcha sug'orish may, iyun va sentyabr oylarida amalga oshiriladi.

O'sish davrida quyidagi sxema bo'yicha 12-15 tagacha sug'oriladi: aprel - 1-2 marta, may-2 marta, iyun-3 marta, iyul-3 marta, avgust - 2-3 marta, sentyabr - 1-2 marta. Respublikamizning shimoliy hududlarida oxirgi sug'orish sentyabr oyining boshida, janubda-o'sha oyning ikkinchi yarmida amalga oshiriladi. Bahorgi sug'orish normasi 500-600, yoz va kuzda - 700-800 m³/ga. Yozgi davrda sug'orish jo'yaklarini 3-4 marta kultivatsiya qilish, qatorlarni 3-4 marta yumshatish, begona o'tlardan tozalash ishlari olib boriladi. O'simliklarning o'sishi va rivojlanishini kuchaytirish uchun may-iyun oyining boshlarida va iyul oyining oxirida 35-40 kg/ga azot bilan o'g'itlanadi. Zararkunandalar paydo bo'lganda, qalamchalar maxsus preparatlar bilan ishlov beriladi.

Ko'chatlar oktyabr oyining oxirida-noyabrda qazib olinadi. Agar kerak bo'lsa, qazishdan oldin ekin sug'oriladi. Ildiz tizimini iloji boricha saqlab qolish uchun ko'chatlar maxsus shudgor bilan 35-45 sm chuqurlikda qaziladi. Keyin ular ikki standart navga ajratiladi: birinchisi, kamida 30 sm, diametri kamida 3 mm, asosiy ildizlarning uzunligi 20 sm va tovon ildizlar soni kamida 4 bo'lgan.; ikkinchisi - yetilgan novdalarning uzunligi kamida 20 sm, diametri kamida 3 mm, asosiy ildizlarning uzunligi kamida 15 sm, pastki ildizlari soni kamida 4 bo'lishi kerak. Ikkalasining ko'chatlari ekish uchun ishlatiladi, nostandart qalamchalar ko'chat yetishtiriladigan maydonda o'sish uchun qoldiriladi. Bog'larda ekish uchun mo'ljallangan ko'chatlar karantin kasalliklari va zararkunandalaridan tozalangan bo'lishi kerak.

Ekishdan oldin saralangan ko'chatlar tekis oldindan sug'orilgan va shudgorlangan maydonga navbatma-navbat ekiladi. Ko'chatlar egilgan holatda qatorlarga yotqiziladi, bir-birining ustiga qo'yiladi, tuproq bilan zich qoplanadi va qoldiriladi, faqat tepalari erkin holatda qoladi.

4.3.Ko'chat yetishtirishning innovatsion texnologiyalari

Anor ko'chatlari bir necha usullar bilan oson ko'paytirilishi mumkin:

- 1.Urug'dan (jinsiy) ko'paytirish.
- 2.Qalamcha yordamida ko'paytirish.
- 3.Hujayradan ko'paytirish (mikropropagatsiya)

Anor urug'lari saralanmasdan ko'karishi mumkin, lekin tadbirkorlik qilish maqsadida anor ko'chatlarini urug'dan ko'paytirish tavsiya qilinmaydi. Chunki asos navni urug'dan hosil qilish qiyin, ko'chat navlari har-xil bo'lib shakllanadi. Tadbirkorlik qilish maqsadida anor ko'chatlari qalamchadan (yumshoq va qattiq novda) va hujayradan ko'paytirilishi tavsiya qilinadi. Bu usullardan ko'paytirilgan ko'chatlar asos nav bilan bir xil bo'lib shakllanadi, navni saqlab qolish imkoni katta. Anor ko'chatlari vegetatsiya davri oxirida, issiqxonada va jo'yaklarda yumshoq qalamchalardan ham ko'paytirilishi mumkin. Lekin bu usuldan kam foydalaniladi. Ona butani yotqizib, undan chiquvchi so'ruvchi novdalarni ildiz ortkizib ham ko'paytirish mumkin.

Anor ko'chatlarini ko'paytirishning eng oson va o'zini oqlagan usul bu, qattiq qalamchadan ko'paytirish. Boshqa mevali daraxtlardagi kabi, anor butalari uchun maxsus payvandtaglardan foydalanish unchalik keng tarqalmagan.

Anor ko'chatlarini ko'paytirishning eng oson va o'zini oqlagan usul bu, qattiq qalamchadan ko'paytirish. Yosh ko'chatlardan olingan qalamchalar, yoshi katta butalardan olingan qalamchalarga nisbatan yaxshi ko'karmaydi. Qalamchalar to'g'ridan-to'g'ri ko'chatxonada jo'yaklarda yoki tuproq to'ldirilgan tuvaklarda ko'kartirilishi mumkin. Ba'zi anorzorlarda ildiz otmagan qalamchalar to'g'ridan-to'g'ri bog' qatorlariga ekilishi ham kuzatiladi, lekin qalamchalar bir tartibda va shaklda ko'karishi uchun ularni ko'chatxonada ko'kartirish tavsiya qilinadi. Qalamchalar 15-20 sm uzunlikda va 0,6-1,2 sm qalinlikda yoki qalam qalinligida tayyorlanadi va odatda 3-4 kurtakka ega bo'ladi. Qalamchalar tinim davrida bir yoshli shoxlardan yoki so'ruvchi novdalardan kesib tayyorlanadi (bir yoshli novdadan olinishi shart). Buta asosidan yoki shoxlar orasidan chiquvchi so'ruvchi novdalardan tayyorlanadigan qalamchalar eng yaxshi natija beradi. Qalamchalar

kesib olingandan so'ng, ostki kurtakka yaqin joydan yana bir bor o'tkir pichoq bilan qisqartiriladi. Qalamchani kurtakka yaqin yoki uzoq qoldirib kesishning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haligacha to'liq o'rganilmagan. Qalamchanning ostki qismini qiyalatib kesish, uning uchi yoki ostini ajratib olishda juda qo'l keladi. Kurtaklar bargdan tozalanib va o'stiruvchi garmon bilan ishlov berilishi tavsiya qilinadi. Ba'zi hollarda qalamchani tuproqqa joylashdan oldin pichoq yordamida qalamchanning bir qism po'stlog'ini 4 joyidan diametr bo'ylab qirib ochib tozalanadi.


Ko'chatxona pushtalari o'lchami: jo'yak ichidagi qalamchalar orasidagi masofa 20 sm, jo'yaklar orasidagi masofa 90 sm. Qalamchalarning uchdan ikki qismi tuproqqa suqiladi, qalamchanning 5-7 sm qismi pushta yuzasida qoladi. Qalamchanning kamida 3 ta kurtagini yer ostiga kiritib faqat bitta kurtagini pushta ustida qoldirish maqsadga muvofiq. Qalamchadan ko'kargan yangi novda bir yil davomida ko'chatxonada o'stiriladi va kelgusi yil qishda yoki erta bahorda bog'ga ko'chirib ekiladi. Ko'chatxonadagi tuproq namligini doim nazorat qilish va uni haddan ortiq nam ushlab turish tavsiya qilinmaydi. Ekilgandan so'ng qalamchalarni oziqlantirish tavsiya qilinmaydi. Qalamchalar ekilgandan so'ng 3 oy o'tib, rivojlanishni boshlagan qalamchalarni kuchsiz suvda yaxshi eruvchi o'g'itish bilan oziqlantirishni boshiash mumkin. Bunday oziqlantirishni bir oyda bir marta bajarish mumkin. Tavsiya qilingan ozuqalar bu N, P, K, Ca, Mg, Zn ko'rinishidagi tez ta'sir qiluvchi boshqa mikroelementlar bilan boyitilgan ozuqalardir. Qalamchalarning ildiz ortishi 4-8 hafta oralig'ida yuz beradi. Qalamchalar yaxshi rivojlanishi uchun soya beruvchi to'r tutish shart emas, lekin havo juda issiq bo'lsa bunday to'rdan foydalanish tavsiya qilinadi.

Qalamchalarni tuvak yoki qopchalarda ko'kartirish. Qalamchalar ko'karishi uchun tuvaklarning hajmi unchalik katta muhim rol o'ynamaydi, shu sababdan imkoniyat darajasidagi har qanday buyumdan tayyorlangan tuvaklar to'g'ri keladi.

Ildiz otadigan muhit: Qalamchalar qum va gumus kabi yaxshi namlik o'tkazuvchi istalgan muhitda ko'kartilishi mumkin. Ko'p qo'llaniladigan

mahsulotlar bu gumus, perlit, qum va boshqalar.

Ildiz ottirish uchun joy. Ko'chatxonadagi ochiq muhitdan farqli o'laroq, issiqxona va maxsus ichki harorati nazoratga olingan muhitda qalamalarning ildiz otish va qalamchalarning rivojlanish foizi yuqori bo'ladi. Quyida shunday muhitda 6 hafta ichida ildiz otgan 15 smlik qalam diametridagi qalamcha keltirilgan. Qalamchani tuproqqa kiruvchi qismining po'stlog'i bir oz qirib ochilgan va o'stiruvchi garmonga botirilgan. Qalamcha ko'karishi va ildiz otishi juda yaxshi bo'lganligini ko'rish mumkin.



23-rasm. Qalamchalarni yetishtirish uchun mo'ljallangan tuvakchalar


Ildiz ottirish uchun joy–tumanka. Sallofan bilan yopilgan va tumanka bilan suv purkab turiladigan issiqxonalaridan qalamchalar ko'p paytiriladi. Qalamchalar maxsus polka yoki yashiklarda (qopchalarda) joylashtirilishi mumkin. Agar polga qo'yiladigan bo'lsa, o't chiqib ketmasligi va kasallik tarqalmasligi oldini olish uchun yer plyonka bilan qoplansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Oddiy bir qavatli yarim oy shaklidagi kam harajat issiqxona maketi chizmasi quyida berilgan.




24-rasm. Tuvakchada o'stirilgan qalamchani ko'rish

Tashqi arkasi (a) 50 mm diametrli metal trubadan, ichkarisidan esa (b) 25 mm diametrli ushlab turuvchi trubalar.

Arkaning balandligi (H) 4 m va uzunligi (L) 8 m. Issiqxona 9 ta arkadan tashkil topgan va har bir arka orasidagi masofa (D) 3 m. Arkalar bir biri bilan 25 mm diametrli truba bilan qotirilgan (a, b, c). Issiqxona ventilyatsiyasi yon oynalari va eshiklari yordamida amalga oshiriladi. Oyda yerdan 1m balandlikda joylashtirilishi shart va diametri 12,5 mm bo'lgan truba oynani yopib turuvchi oq plastik bilan osti qismidan maxkamlanadi. Plastikning tepa qismi esa trubalarga gorizontal ravishda maxkamlangan reykgaga qotiriladi.



25-rasm. Issiqxonaning old tomondan ko'rinishi



26-rasm. Issiqxonaning maketining ko'rinishi

Oynani ochish uchun maxsus metal qurilma buraladi va plastik 12,5 mm trubaga o'ralib tepaga ko'tariladi. Oynani yopish uchun esa, metal qurilma soat strelkasiga qarama-qarshi tarafga buraladi va plasti sekin pastga qarab tushadi. Yomg'ir suvi issiqxona ichiga kirmasligi uchun uning poli 30 sm yer yuzasidan ko'tarilish shart. Issiqxona polining 15 sm sement qorishma bilan qoplanishi mumkin. Taklif qilingan issiqxona 192 kvadrat metr sig'imga ega bo'ladi va unga quyidagi materiallar ketadi a) 350 kvadrat metr oq plyonka , b) 117 m 50 mm temir diametrli truba, c) 148m 25 mm diametrli temir truba va d) 100 m yog'och reyka 62,5 mm x 62,5 mm. Bu kabi issiqxonalar kam harajat bo'lib, ko'chatxona yurituvchi istalgan shaxs, hattoki ayollar ularni o'zlari qurishi mumkin.

Issiqxonada tumanka (dispers tomchilar) dan foydalanish. Tumankadan usuli faqat tez ildiz otuvchi qalamcha turlariga qo'llaniladi. O'rnatish harajatlari juda katta bo'lganligi sababli, alohida tumanka tizimli tumanka tizimi, ya'ni polkalar yoki yer ustiga, qalamchalar qayerga joylashtirilganligiga qarab o'rnatiladi. Yuqorida berilgan oddiy yarim oy shaklidagi issiqxonalar ham tumanka tizimi o'rnatilishi mumkin. Harajatlaridan tashqari, tumanka tizimining 3 ta muhim jihati bor:

- suv purkagichlarning uchlari suvni par sifatida purkaydi va ortiqsa suv chiqib namlik yig'ilishi oldi olinadi.,
- tizim to'liq avtomatlashtirilgan bo'lib, samaradorligi yuqori va
- parlangan suv qalamchalar ustiga bir maromda tushadi va suv yaxshi filtrlanib tuproq yuzasida yig'ilib qolmaydi.

Tumanka yordamida ko'chat ko'paytirish. Tumanka tizimidan foydalanganda qalamchalar odatda yashikchalarga (polka) joylab ko'kartiriladi, bu maqsad uchun yashikchalarni yasayotganda quyidagi omillarga ahamiyat berish qilinadi:

1)Ishlash oson bo'lishi uchun ular qulay kenglik va balandlikda bo'lishi shart. Aksariyat odamlarga yerdan 70 sm balandlikdagi yashikchalardan foydalanishni afzal ko'rishadi.

2)Yashikchalarning uzunligi 2 metr va kengligi 100 sm bo'lishi, har tarafidan o'tib

ishlashni osonlashtiradi.

3)Yashikchaning chuqurligi 20 sm.

4)Bunday yashikchaning qobig'i va ichki qismi zanglamaydigan 1 mm qalinlikdagi temirdan qilinishi maslahat beriladi. Baquvvat bo'lishi uchun ugolnik va tekis listlardan foydalanishi shart. 25 mm x 25 mm x 3 mm ugolnik birlashtirib to'g'ri to'rtburchak shaklida payvanlanib qilib biriktiriladi va ostiga 3 mm qalinlikdagi list kavsharlab qotiriladi. Yashikcha o'rtasida bir-biridan 50 sm uzoqlikda joylashtirilib 6 mm diametrdagi 3 ta teshik ochiladi, bu ortiqcha suv chiqib ketishiga yordam berib drenaj vazifasini o'taydi.

5)Yashikchalar joylashtiriladigan o'rindiq balandligi 50 sm bo'ladi va 4 smlar qalinlikdagi zanglamaydigan temir trubadan yasaladi.


Yosh ko'chatlarni parvarishlash. Yosh ko'chat kuchli quyosh radiatsiyasidan zararlanmasligi uchun ekilishdan oldin soya ostida bo'lishi shart. Yosh niholcha uchun eng maqbul harorat bu 27 °C. Imkon bo'lsa shu haroratni ushlab turishga harakat qilish kerak. Qalamchalar soya beruvchi to'r ostida o'stirilishi maqsadga muvofiq, ayniqsa yoz issiq keluvchi hududlarda bunday to'r issiq quyosh nurlaridan asraydi. Qalamchalarni soya beruvchi to'r ostida o'stirilishi larni suvsizlikdan zararlanmasligi va quyosh nuridan kuyishdan asraydi. To'ring ,alinligiga qarab ular quyosh radiatsiyasini turlicha sindirishga yordam beradi. Hozirda to'qilgan to'rlardan keng foydalaniladi. Soya berish uchun ishlatiladigan to'rlarning turli xili turli ranglarda mavjud, ular 40 % dan 70 % gacha soya bera olish imkoniyatiga ega.

Яшикча

Galvanized Iron Sheet



Ўриндик



27-rasm. Yashikcha va yashik o'rindig'ining ko'rinishi



28-rasm. Yosh nihollarni parvarishlashda qo'llaniladigan soyabon

O'stiruvchi garmonlardan foydalanish. O'stiruvchi garmonlar sintetik (sun'iy) preparatlar bo'lib, qalamchalarga ildiz otishga yordam beradi.

O'stiruvchi garmonlardan foydalanishning afzalliklari quyidagilar:

- a) Ildiz otish foizini oshiradi.
- b) Ildiz otishni tezlashtiradi.
- c) Ildizlar sonini va sifatini oshiradi.
- d) Bir tekisda ildiz otishga yordam beradi.

Bu garmonlarni "O'zbekiston Respublikasida foydalanishga tavsiya etilgan kimyoviy preparatlari" ro'yxatidan foydalangan holda turlicha preparatlardan foydalanish mumkin. O'stiruvchi garmonlardan ikki usulda foydalaniladi, kukun yoki suyuqlik ko'rinishida. Qalamchalar namlab kunkunga botiriladi va nam yog'och qirindisida ildiz ottiriladi. Eritma usulida esa garmon organik eritma atseton (ethylalcohol) bilan birga ishlatiladi. Garmondan eritma ko'rinishida foydalanish eng ko'p tarqalgan usul. Demak aksariyat hollarda qalamchalar 3-5 soniyaga garmonli suyuqlikka botiriladi va ekiladi.

Hujayradan ko'paytirish – mikropropagatsiya. Katta miqdorda ko'chat ko'paytirish uchun hujayradan ko'paytirish juda samarali usul, qolaversa zararkunanda hashoratlar, kasalliklar chidamli va alohida sifatga ega navlarni yaratish imkoniti mavjud. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, hujayradan ko'paytirishning eng samarali yo'li bu ikkilamchi kurtak rivojini jadallashtirish. Lekin, bunday usulda ko'chatlarni ko'paytirish ustida hali izlanishlar olib orilyapti va yakuniy bir xulosaga kelingani yo'q.

4.4. Ko'chatlarni ekish

Anor ko'chatlarini ekish sxemasi. Buta ekish uchun yerni tayyorlab olib ekish sxemasini tanlash talab etiladi. Anor ko'chatlari uchun bir nechta ekish tizimlari mavjud bo'lsada, quyida eng ko'p tarqalgan ikki turi keltirilgan:

- To'rtburchak shaklidagi ekish tizimi
- To'g'ri to'rtburchak shaklidagi ekish tizimi

Kvadrat sxemasi. Mevali butalar uchun eng oson va keng tarqalgan tizimlardan biri. Ushbu tizimda qatorlar orasi va ichidagi masofa bir xilda bo'ladi. Ko'chatlar har bir burchakda teng burchak ostida ekiladi. Shu sababdan har to'rtinchi ko'chat kvadratni hosil qiladi. Qatorlar orasi va ichidagi masofa bir xilda

bo'lganligi sababli bog'ga ishlov berish maqsadida texnikalar har tarafga bir xilda harakatlanishi mumkin (masalan, 5m x 5m).


Ushbu tizimda oraliq ekin ekish uchun yetarlicha masaofa ajratilgan bo'ladi. Bog'ni kengaytirish faqat qo'shimcha qatorlar qo'shish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Afzalliklari:

- 1.Sug'orish ariqlari yoki yo'laklari bir tekisda joylashtirilish mumkin.
- 2.Yerga ishlov berish, butalarga dori sepish va hosil yig'ishtirish uchun juda qulay.
- 3.Bog'ni har tomonlama kuzatish qulay bulganligi uchun uni boshqarish juda qulay.

Kamchiliklari:

- 1.Yer hisobiga ko'chat sig'dirish imkoniyati past.
- 2.Har bir kvadratning o'rtasida juda ko'p joydan unumsiz foydalanilgan.



29-rasm. Kvadrat shakldagi ekish usuli

To'g'ri to'rtburchak shaklidagi sxema. Ushbu tizim ham kvadrat tizimga o'xshab ketadi, asosiy farqi qatorlar orasi va ichidagi masofaning har xilligidadir. Demak, ushbu tizimda ayni bir ajratilgan yerga ko'proq ko'chat sig'dirish imkoniyati mavjud. Bog'ga ishlov berish maqsadida texnikalar har tarafga bir xilda harakatlanishi mumkin. Butalar rivojlanish uchun yetarlicha masofaga ega bo'ladi va quyosh nuridan unumli foydalaniladi (masalan, 6m x 3m).

Afzalliklari

- 1.Yerga ishlov berish, butalarga dori sepish va hosil yig'ishtirish uchun juda qulay.

2. Sug'orish ariqlari qator bo'ylab joylashtirilishi mumkin.
3. Oraliq masofa kengligi sababali yorug'likdan unumli foydalaniladi.
4. Bog'ni yanada unumliroq boshqarish imkoniyati mavjud.
5. Oraliq ekin ekish imkoniyati mavjud.

Kamchiliklari

1. Agar oraliq ekin ekilmasa, qatorlar orasidagi masofa behuda sarflangan.
2. Yer hisobiga ko'chat sig'dirish imkoniyati past.

Butalar orasidagi masofa. Buta ekilgan qatorlarni shimol-janub yo'nalishida ekish, quyosh nuridan unumli foydalanishga yordam beradi. Bog' rejasini tuzayotgan bog'bonlar tomonidan e'tborga olinadigan asosiy omillar bu:

- butalar orasidagi masofa.
- buta shakli, unga beriladigan shakl (bir yoki ko'p asos poyali).
- butani parvarishlash.

Anor butalarini zich ekish ko'proq iliq hududlarga to'g'ri keladi. Butalarni zich ekish odatiy (5 m x 5 m) usulga nisbatan ko'proq hosil olish imkonini beradi. Ba'zi bog'bonlar, jumladan Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani Dehqonobod QFY hududidagi nordon navli sharbat uchun mo'ljallangan anorzorlarda shunday zich ekish (2.5 m x 4 m) usullaridan foydalanishadi. Bunday usulda kasallik va zararkunanda hashorotlar rivojlanishi uchun qulay sharoit tug'dirmasligi uchun doimiy nazorat qilib borishni talab qiladi.

Anor ko'chatlarini zich ekish tavsiya qilinmaydi, chunki yuzaga kelgan orticha soya mevaning yaxshi rang ololmasligi, ularda dog'lar paydo bo'lishi, butalarga shakl berish, mevani terib olish va qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin, ammo Sirdaryo viloyatidagi bog'bonlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, mavjud zich ekilgan anorzorlarda texnikalar bilan emas balki parvarishlash jarayonlari va hosili qo'lda terib olish ishlari bajarilganligi, bundan tashqari anor tuplarini doimiy ravishda zararkunanda va kasalliklarini nazorat qilib boorish ishlarini bajarishlari kuzatilgan. Ba'zi bog'bonlar hosildorlikni erta oshirish maqsadida butalarni qator ichida 2 m va qator orasida 6 m kenglikda ekishadi va butalar kattalashgan sari quyosh nuridan

unumli foydalanish maqsadida qator ichidan bittadan butani olib tashlashadi. Masalan, Kiprda anor butalari 3m x 6m masofada ekiladi va (V yoki T shaklidagi) simbag'azga tortiladi. Bunday tizimda ekilgan butalarning hosildorligi va meva sifati juda a'lo. Hosildorlik tup soniga 80-90 kg ni tashkil qiladi va mevaning o'rtacha og'irligi 500 gr. Isroilda esa anor butalari 6 m x 4 m yoki 6 m x 5 m masofada va yarim pakana navlar esa 5 m x 3 m masofada ekiladi. AQShda olimlar va bog'bonlar anor butalarini qator ichida 3 yoki 5 m va qator orasida 5 yoki 7 m sxemada ekishni tavsiya qiladi.

Ko'chatlarni ekish tartibi va vaqti. Anor butalari ma'lum bir tartibda qator oralarining eniga va qatorlardagi har bir o'simlik orasiga qat'iy e'tibor berib o'tqaziladi. Buning uchun bog' barpo qilish uchun ajratilgan uchastka oldindan rejalab qo'yiladi. Katta maydonlarini ko'chat o'tqazishi uchun rejalashda ayrim kvartallarning katta-kichikligi, ularning qanday joylanishi, xizmat binolarining joylanishi va ularga boradigan yo'llar belgilab qo'yiladi. Uchastkani rejalash magistral va kvartallararo yo'llar hamda ixota daraxtlari uchun joy ajratishdan boshlanadi. Kvartal yoki kichik uchastkalar ajratishdan oldin to'g'ri burchaklar belgilab qo'yiladi.

To'g'ri burchaklar hosil qilish uchun ekker ishlatiladi, ekker bo'lmasa chizimcha yoki yer o'lchaydigan lentadan foydalaniladi. Kvartallarda ko'chatlar o'tqaziladigan joylar chizimga yoki lenta bilan o'lchab, shuningdek ko'z bilan chamalab rejalaniadi. Chizimcha sifatida uzunligi 110 m diametri 3 mm bo'lgan simni ham ishlatish mumkin.

Sim tortib rejalash. Katta - kichikligiga qarab, bog' kvartali bir necha qismga bo'linadi. Qismning ikkala qarshi tomonida zarur masofagacha sim bilan o'lchanib, belgi qo'yilgan joylarga qoziqlar qoqiladi. So'ngra kvartalning qarshi tomonlaridagi birinchi qoziqlar orasiga sim tortiladi va simdagi hamma belgilariga qoziqlar qoqib chiqiladi. Keyin sim keyingi ikkita qoziqqa tortiladi va bu ish butun kvartal qismlariga bo'linib bo'lgunga qadar shu tartibda davom ettiriladi.

Ko'z bilan chamalab rejalash. Uchastkaning to'g'ri burchaklari belgilangandan keyin, uchastkaning to'rt tomoniga qoziq qoqiladi. Qoziqlar

ko'chat o'tqazish uchun belgilangan joylariga qoqiladi. Keyin ikki ishchi ko'chat o'tqaziladigan chiziq-larni ko'z bilan chamalab belgilab turadi, uchinchi ishchi esa ana shu chiziq-lar kesishgan joylariga qoziq qoqadi.

Chuqurlar kovlashi. Meva daraxt ko'chatlari bo'g' barpo qilinadigan uchastkada oldindan kovlab qo'yilgan maxsus chuqurlarga o'tqaziladi. Kuzda ko'chat o'tqaziladigan chuqurlar ikki hafta oldin, bahorda o'tqaziladigan bo'lganda esa, kuzda kovlab qo'yiladi. Chuqurlarning kengligi va chuqurligi tuproq sharoitiga qarab belgilanadi: sug'oriladigan madaniy bo'z tuproqli yerlarda chuqurlarning kengligi 55-60 sm va chuqurligi 60-70 sm bo'ladi; kuchsiz toshli tuproqlarida chuqurlarning eni 1,5 m ga yetkaziladi. Chuqur kovlaganda anor o'tqaziladigan nuqtani yo'qotib qo'ymaslik va to'g'ri chiziq bo'ylab o'tqazishni buzmaslik uchun uzunligi 1,5 -2 m eni 10-15 sm uch joyi o'yilgan ko'chat o'tqazish taxtasidan foydalaniladi. Chuqurlar qo'lda kvadrat shaklida kovlanadi. Chuqurlar kvadrat shaklida kovlanganda keyinchalik o'tqazilgan butalar yonida tuprog'i yumshatilmagan joylar qolmaydi.

Ko'chat o'tqazish texnikasi. Ko'chat o'tqazish oldidan tuproq chuquriga 'ushirilib do'ngcha hosil qilinadi. Ko'chat o'tqazishda o'tqazish taxtasini kontrol joziqlariga kiritiladi, taxtaning o'rtasidagi o'yiqqa qo'yiladi. Ko'chatni ikki ishchi o'tqazadi. Bir ishchi ko'chatni o'itib, ildizlarini tuproq uyumi ustiga tarab qo'yadi. Ikkinchi ishchi chuqurdagi ko'chat atrofiga yumshoq tuproqni ko'chat ildizlari orasiga to'ldirish uchun uni biroz u yoq-bu yoqqa qimir-latib qo'yadi.

Ko'chat o'tqazilgandagi ildiz bo'g'zi tuproqli uchastkalarida yer yuzasidan 5-6 sm, yengil tuproqli uchastkaları esa 4-5 sm yuqori qilib ko'milishi lozim. O'tqazilgandan keyin ko'chat chopiq qilinib, uning tagiga 30-40 sm balandlikda tuproq bosilib qo'yiladi. Bu tuproqni qurib qolishdan saqlaydi. Ko'chat o'tqazilgandan keyin ketma-ket sug'oriladi. Bunun uchun har bir qator bo'ylab butalardan 0,75- 1 m oraliqda okuchnik bilan sug'orish egatlari olinadi, har-bir daraxt atrofiga ketmon bilan taqa shaklida ariqcha olinib, suv qo'yiladi. Sug'orilgandan keyin tuproq o'tirishib ildizlariga zich yopishib qoladi.

Agar anor ko'chati maxsus plastik tuvakda o'stirilgan bo'lsa ko'chatlar

yilning istalgan mavsumida ekilishi mumkin, ochiq ildizli ko'chatlar esa bahorda ekilishi tavsiya qilinadi. Ko'chatlarni fevral-mart oylarida ekish, ularga kuzgacha sovuq havo tushgun qadar yozda yetarlicha rivojlanib olish imkonini beradi.

Ko'chatlar tuvakcha chuqurligida yoki ko'chatxonada qayergacha joylashgan bo'lsa shu yergacha chuqurchaga joylab ekilishi shart. Ko'chatlarni ekishdan oldin unumdor tuproq yuzasidagi tuproqni 100-150 gr. fosfor va kaliyli o'g'it bilan aralashtirib ko'chat ekiladigan chuqurchaning tubiga joylash tavsiya qilinadi. Bu chuqurchaga azotli o'g'it solish tavsiya qilinmaydi, chunki u ekilayotgan ko'chat ildizlarini kuydirishi mumkin. O'g'it bilan yaxshilab aralashtirilgan tuproq chuqurchaga joylangandan so'ng, ko'chat chuqurcha markaziga joylab ekiladi. Chuqurcha tuproq bilan to'ldirilgandan so'ng, oyoq bilan yaxshilab zichlab bosish kerak, so'ngra sug'orish kerak. Shamol ko'p esuvchi hududlarda yangi ekilgan ko'chatlarni qoziqqa bog'lash talab qilinadi. Yakka qoziq shamol esuvchi tarafga qarab joylanishi kerak. Ko'chat qoziqqa sakkiz shaklida bog'lanishi kerak, bu ko'chat poyasi qoziqda siqilib qolishi va ishqalanib zararlanishi oldini oladi. Ko'chatni qoziqqa bog'laydigan material keng, tekis va cho'ziluvchan bo'lishi kerak. Izolyatsiyalangan sim, rezina yoki boshqa shu kabi yumshoq trubkalardan foydalanish mumkin. Ko'chat qoziqqa bir nechta joyidan bog'lanishi shart. Bu maqsad uchun ochiq simdan foydalanish tavsiya etilmaydi, ko'chat poyasiga ishqalanib uni zararlaydi va ko'chat uchun zarur bo'lgan ozuqa-suv manbalari harakatini chegaralaydi. Ko'chatlarni ekish jarayoni tugagandan so'ng, ularni parvarishlash jarayoni boshlanadi.

Bunday parvarish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- muntazam sug'orish.
- oziqlantirish (yuqori foizli azot, fosfor va bir oz kaliy).
- begona o'tlarga qarshi kurashish.
- kasallik va zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashish.

Bog'dagi mevali o'simliklarni oqilona joylashtirish meva berishning butun davrdagi plantatsiyalarning hosildorligini belgilaydigan eng muhim agrotexnik tadbirlardan biridir.

O'zbekistonda subtropik meva ekinlari agrotexnologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning birinchi bosqichida anorni sanoat plantatsiyalariga joylashtirishning mavjud sxemalari ilmiy asosga ega emas edi. Vaqtinchalik agroreglamentlarda (1951) O'rta Osiyoning quruq subtropiklari uchun 5x3 m o'lchamdagi anor ekish sxemasi tavsiya etilgan. Ekinni bog'da ekishning optimal sxemalarini aniqlash uchun birinchi tajribalar o'tkazilgan.

Janubiy O'zbekiston stansiyasi (hozirgi M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi) da o'tkazilgan uzoq muddatli tajribalarda anor butalari hajmi va umumiy o'sishi kam-kam ekilganda o'sishi ortib borishi aniqlandi. Turg'un zichlik mevaning o'rtacha og'irligi va yorilish darajasiga deyarli ta'sir qilmaydi (106). 1 gektarga butalar sonining ko'payishi bilan bir tupdan hosil kamayadi, maydon esa ko'payadi. Hosildorlikning eng katta o'sishi 4X3 va 4x2m sxemalari yoki 1 ga uchun 833 va 1250 buta bo'yicha joylashtirilganda olinadi. Anorning "Qizil-anor" navini 4X3, 4x2,5 va 4X2 m sxema bo'yicha ekilganda yetishtirish rentabelligi 5X3 sxemasiga nisbatan past bo'lishi aniqlangan, garchi hosildorlik bu sxemalar bo'yicha yuqoriroq bo'lsa ham. Yuqori zichlikda anor yetishtirish rentabelligining pasayishi qishda butalarni saqlash va bahorda ochish kabi ko'p mehnat talab qiladigan operatsiyalar uchun xarajatlarning oshishiga olib keladi.

Anor plantatsiyalarida butalarning zichligi to'g'risida qaror qabul qilishda nafaqat 1 ga hosildorlik ko'rsatkichlariga, balki ushbu ekinni yetishtirishning rentabelligiga ham e'tibor berish kerak. Ushbu yondashuvda 4X3 m sxema bo'yicha anor ekish boshqa butalar joylashtirish sxemalariga nisbatan ma'lum afzalliklarga ega bo'lganligi kuzatilgan.

Qator oralig'i bir xil bo'lgan qatordagi butalar orasidagi har xil masofalar Vaxsh zonali stansiyasida sinovdan o'tkazilgan (55). O'rtacha 10 yil davomida eng yuqori hosil (146 s/ga) eng zich ekishdan, ya'ni 4X2 m dan olingan, lekin eng yuqori rentabellik 4X3 m ekish sxemasida olingan. Anor mevalarining sifatiga butalar zichligi sezilarli ta'sir ko'rsatmaganligi aniqlangan.

Shimoliy Tojikistonning toshloq tuproqlarida sxema bo'yicha 4X1,5 m

yoki 1666 tup/ga, qalinroq tuproqlarda esa 4X2,5 m yoki 1000 tup/ga sxema bo'yicha ekish tavsiya etiladi (167).

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, anor ekini uchun bog'dagi tuproq unumdorligini hisobga olgan holda 4X3 va 4X2 yoki 833 va 1250 tup / ga ekish sxemalarini taklif qilish mumkin.

7-jadval

Anorning o'sishi va meva berishga zichligining ta'siri (A.S.Kutuzov ma'lumoti)

Ekish sxemasi, m	Butalar soni, l ga	8 yillik butalarning o'lchamlari, (m)		Hosildorlik (o'rtacha 6 yillik)				Mevaning o'rtacha og'irligi, g	Yorilgan mevalar soni, %
		bo'yi	eni	Butada/kg	%	s/ga	%		
Olzil-anor									
5x3	666	2,8	2,5	16,1	100,0	107,2	100,0	222	28,2
4x3	833	2,6	2,5	15,9	98,8	132,4	123,5	209	30,1
4x2,5	1000	2,6	2,4	12,6	78,3	126,0	117,5	195	29,8
4x2	1250	2,7	2,3	11,5	71,4	143,7	134,0	207	21,5
Achchik dona									
5x3	666	2,9	2,6	16,4	100,0	109,2	100,0	270	19,6
4x3	833	2,8	2,5	15,8	96,3	131,6	120,5	260	17,9
4x2,5	1000	2,6	2,5	14,6	89,0	146,0	133,7	301	29,6
4x2	1250	2,6	2,4	11,2	68,3	140,0	128,2	309	25,1
3x2,5	1333	2,7	2,3	10,6	4,6	141,0	129,2	271	24,2

Tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, anorning o'ziga xos changchi navlari yo'q, lekin uning mevasi navlararo changlatish bilan yaxshi bo'ladi (91). Bir navli ekishga qaraganda bir nechta navlardan iborat plantatsiyalarning hosildorligi yuqori bo'lishi olimlar tomonidan aniqlangan. Shuning uchun bog'larda ikki yoki uchta nav anor ekish tavsiya etiladi, ularni chiziqlar shaklida joylashtirish tavsiya etiladi, ularning har biri bitta nav egallagan taxminan 4-5 qatordan iborat, ikkinchi chiziq ikkinchi navni egallaydi va hokazo.

Plantatsiyalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, anor har qanday tuproqda o'sishi mumkin. Shu bilan birga, yuqori hosildorlik va mevalarning eng yaxshi sifati yaxshi zovurlashtirishga ega bo'lgan namlik-intensiv unumdor qumoq tuproqlarda olinadi. Shag'al, qumloq yerlar unchalik foydali emas, botqoq yerlar esa mos kelmaydi.

Anor bog'ini janubiy, janubi-sharqiy yoki janubi-g'arbiy

ekspozitsiyalarning yonbag'irlarida ekish tavsiya etiladi. Sovuq mavsumda haroratning inversiyasi tufayli yon bag'irlari vodiyning pastki qismlariga qaraganda 3-5° C issiqroq bo'ladi, bu ayniqsa termofil anor uchun muhimdir. Anor plantatsiyalari uchun past va sovuqqa moyil joylar yaroqsiz hisoblanadi va u yerlarda anorni qishda sovuqdan asrash ishlari bajarilishi talab etiladi.

Ekish uchun tanlangan bog'da kuzda tayyorlash amalga oshiriladi, 30-35 sm gacha kuzgi shudgorlash yoki 50-60 sm chuqurlikda yer haydaladi. Ekinni joylashtirish bog'ning asosiy qiyaligi bo'ylab amalga oshiriladi. Haydalgan yerda tuproq strukturasi yaxshilanadi, namlikning to'planishi va uning vegetatsiya davrida tuproqdagi namni saqlanishiga yordam beradi, bu ayniqsa suv bilan ta'minlanmagan hududlarda muhimdir. Dastlabki yillarda chuqur haydalgan yerda ekilgan mevali o'simliklar oddiy shudgor qilingan yerga qaraganda yaxshi o'sadi va rivojlanadi.

Qishning oxirida-bahorning boshida ekish uchun yerni tayyorlash boshlanadi. Agar kerak bo'lsa chizellash amalga oshiriladi. O'simliklarning yaxshiroq va bir xil quyosh bilan yoritilishi uchun anor qatorlariga shimoldan janubga yoki unga yaqin yo'nalish beriladi; qatorlar va sug'orish jo'yaklari yo'nalishlari mos kelishi kerak. Asosiy nazorat qoziqlarini o'rnatgandan so'ng, 10X50 sm o'lchamdagi ekin chuqurlari tayyorlanadi.

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ob-havo sharoitiga qarab eng yaxshi ekish muddati mart oyining 1-2-o'n kunligi, shimoliy viloyatlar uchun mart oyining 3-o'n kunligi – aprelning 1-o'n kunligi hisoblanadi.

O'simliklarni ekishdan oldingi tayyorgarlik jarayonida shikastlangan ildizlar ko'chatlardan olib tashlanadi, ildiz bo'laklari yangilanadi, shikastlangan va rivojlanmagan novdalar kesiladi, 3-4 ta eng kattalari qoladi, ular uzunligining 2/3 qismiga qisqartiriladi. Ekish kechiktirilganda, ko'chatlar nam tuproq bilan qoplanadi.

Ekishdan oldin, ildizlar loy va go'ngning aralashmasiga botiriladi. Ekish paytida ko'chatlarning ildizlari ekish teshigiga teng ravishda joylashtiriladi. Ildiz tizimi ko'chatxonada bo'lgani kabi (5-10 sm) taxminan bir xil chuqurlikda bo'lishi

kerak. Chuqurdagi yer zichlashtiriladi. Katta ko'chatlarni yotqizishda ekish mashinasi ishlatiladi.

Ekishdan so'ng har bir qator bo'ylab o'simliklardan 30-40 sm masofada sug'orish jo'yaklari qaziladi va ekish chuqurlarini to'liq suv bosguncha suv o'tkaziladi. Sug'orishdan keyin ikkinchi yoki uchinchi kuni ekilishning to'g'riligi tekshiriladi, o'simliklar solinadi va ekilgan joylarga yer sepiladi.

Yosh ko'chatlarni parvarishlash o'z vaqtida sug'orish va sug'orish jo'yaklarini ko'paytirish, tuproqni yumshatish va begona o'tlarni olib tashlashdan iborat. Birinchi 2-3 oyda ekishdan keyin qishloq xo'jalik parvarishiga qilishga alohida e'tibor berilishi kerak, bu ko'chatlarning yuqori saqlab qolinish va o'simlikning yaxshi rivojlanishini ta'minlaydi.

Nazorat savollari:

1. Bog' tashkil qilishda qaysi jihatlarni e'tiborga olish lozim?
2. Ko'chat yetishtirishda nimalarga ko'proq e'tibor berish kerak?
3. Ko'chat yetishtirishning innovatsion usullarini izohlang?
4. Bog' tashkil qilishda tuproq pH muhitining ahamiyatini izohlang.
5. Ko'chat ekish sxemalarining farqlarini izohlang.

V-BOB. BOG' QATOR ORALARIGA ISHLOV BERISH, BUTALASH VA SHAKL BERISH

5.1. Bog' qator oralariga ishlov berish

Bog'larda tuproqni saqlash ishlari - bog' qator oralaridan foydalanish, yerni ishlash, sug'orish va anorlarni o'g'itlash, mulchalash kabi ishlar tushuniladi. Tuproqni ishlashdan asosiy maqsad uning unumdorligini muntazam oshirib borishdir. Ammo, bulardan tashqari bog' qator oralaridan mumkin qadar ko'proq yuqori sifatli mahsulotlar yetishtirish uchun ham foydalaniladi.

Bog' qator oralarini shudgor qilish butun o'suv davri davomida tuproqda nam to'plash va namlikni bir me'yorda saqlash imkonini beradi. Shu sababli suv kamchil joylarda yerni shudgor qilib qo'yish ayniqsa foydalidir. Qora shudgor tuproqdagi havo va issiqlik rejimini yaxshilaydi, tuproqdagi biologik jarayonlarning kechishiga va oziq moddalar, ayniqsa nitratlarning to'planishiga yordam beradi, yerni begona o'tlardan tozalaydi. Shuning uchun, qora shudgordan keyin hosildorlik ortadi. Ammo, yer uzoq vaqt (5-8 yil) shudgorligicha qoldirilsa tuproqdagi gumusning minerallanishi tezlashadi, tuproq strukturasi buziladi, havo-uy xususiyatlari yomonlashadi, tuproq kukunlashadi va berch qatlami hosil bo'ladi, bu ildizlar va mikroorganizmlar faoliyatini susaytiradi. Natijada, butalar sekin o'sadi va bog'ning hosili kamayadi, mevalarda quruq moddalar kam to'planadi, uzoq saqlanmaydi. Tik qiyaliklarda qora shudgor tuproq eroziyasini kuchaytiradi.

Bog' qator oralaridan foydalanilganda buta atroflari va tup orasidagi masofalar eni odatda 1,5-2 m qoldiriladi. Ular yil sayin taxminan 0,5 m dan kengaytirib boriladi. Ularning diametri shox-shabba diametridan birmuncha ortiq bo'lishi lozim. Shuning uchun, ekin ekiladigan va ko'chat o'tqaziladigan masofa yildan-yilga torayib boradi. Agar bog' qator oralarida uzoq vaqt davomida bir xil o'simlik ekilsa, uning tuprog'i bir tomonlama kuchsizlanadi, oraliq ekinlar hosili kamayadi. Shu sababli, bir yillik o'simliklar vaqti-vaqti bilan almashtirib turiladi, zarur bo'lgan takdirda qator oralariga ko'p yillik o'tlar, sideratlar ekiladi yoki qora shudgor qilib qoldiriladi. Bundan maqsad, tuproq unumdorligini oshira borish,

qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish rejasini bajarishga yordam berish, ishchi kuchi va mexanizmlardan to'liq foydalanishdir. Qator oralariga ekiladigan ekinlarning tuproqqa, namlikka, oziq moddalarga bo'lgan talabchanligi hamda ularni o'rib-yig'ish muddatlari ham e'tiborga olinadi.

Hosilga kirgan, shox-shabbasi tutashib ketgan bog' qator oralariga ekin ekilmaydi. Ular shudgor qilib qo'yiladi, har 2-3 yilda bir marta ko'kat o'g'it sifatida dukkakli ekinlar va shabdar ekiladi. Anor butalari siyrak o'tqazilgan kamdan-kam hollardagina boqqa sebarga, shabdar va beda ekish mumkin. Bog' qator oralariga ishlov berishda tuproqning kukunlashib ketmasligiga havo va suv o'tqazuvchanligi yaxshi bo'lishiga, begona o'tlardan tozalangan bo'lishiga e'tibor berish kerak. Ekinlardan va o'tlardan bo'shagan bog' qator oralarini kuzda shudgorlab qo'yish, shuningdek buta atrofidagi doiralar va tup orasidagi masofalarni yumshatish kerak. Shudgorlashda yer 25-30 sm chuqurlikda haydaladi, bunda daraxt ildizlarini shikastlantirmasdan amalga oshirish kerak. Shuning uchun, ildizlar taralgan chuqurlikni oldindan belgilash lozim. Buta atrofida ayniqsa yosh butalar ildizlari yuzaroq joylashganini e'tiborga olib yuzaroq haydaladi. Shudgor qilingan yerlar shu holda bahorgacha qoldiriladi; shunday holatda tuproqda nurash jarayonlari yaxshi kechadi. Kuchli shamol tuproqni quritib qo'yadigan, suv taqchil bo'lgan tumanlarda shudgorlash bilan bir yo'la boronalanadi. Aks holda, tuproq juda qurib qolishi va anor butalari qurg'oqchilikdan zararlanishi mumkin.

O'suv davri davomida tuproq yumshoq va begona o'tlardan toza holda saqlanishi lozim. Agar shudgor qilingan yer yetilgan bo'lsa, bunda qurigan zahoti boronlanadi. Agar tuproq zichlanib qolgan bo'lsa, tuproq kultivatsiya qilingandan keyin yer betidagi kesaklar va hosil bo'lgan qatqaloq borona bilan yumshatiladi. Kuzda haydalganda va qo'riq yer ochilganda palaxsa ko'chsa, bahorda yer diskli borona bilan ishlanadi.

Bog' qator oralari shudgor qilib qo'yilgan bo'lsa, aprel-may oylarida daraxtlar gullagandan keyin, begona o'tlar o'sib chiqishi bilan kultivatsiya qilinadi. Agar tuproq juda zichlashib, o't bosib ketgan bo'lsa, kultivatsiya o'miga boronalash bilan birga chizellanadi. Kultivatsiya va boronalash bilan bir yo'la

bahorda tana atrofidagi doiralar va tup oralaridagi masofalar yumshatiladi. Yozda bog' qator oralari 2-3 marta kultivatsiya qilinadi. Har yomg'irdan so'ng yoki sug'orilgandan keyin tuproq yetilgan paytda ishlanishi lozim. Juda qurib qolganda palaxsa bo'lib ko'chadi, juda nam bo'lsa ham yopishoq bo'lib, keyinchalik tez qotib qoladi. Bog'da o'suv davrida qator oralariga ishlov berish tirgovuchlar qo'yilgunga qadar davom etishi mumkin.

Bog' yerini ishlashda traktorga osib ishlatiladigan bog' plugi, yumshatgichlar, chizel-kultivator, bog' diskli boronasi, frezalardan foydalaniladi.

Bog'dagi tuproqni organik o'g'it bilan ishlov berish tuproqdagi suvning bug'lanishini kamaytiradi va mevali o'simliklarning tuproq namligidan to'liq foydalanishiga imkon beradi. Organik o'g'itlar qo'llash yoki qishki yoki bahorgi ko'kat o'g'it (siderat), bir yillik yoki ko'p yillik o'tlarni 2-3 yildan so'ng shudgorlash bilan qo'llash natijasida yaxshi samara beradi (156; 49). Markaziy iqlim mintaqasida almashlab ekish tajribalarida mevali o'simliklarning eng yaxshi hosili siderat va organik o'g'itdan olingan (39). Odatda 20-40 t/ga go'ng tavsiya etiladi.

Bog'da qator oralariga ishlov berishning turli usullari tuproqning fizik xususiyatlari va unumdorligiga teng bo'lmagan ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shunday qilib, tajribadan oldin 0-30 sm qatlamda tuproqning solishtirma og'irligi $1,59 \text{ g/sm}^3$ gacha, sideratlar qo'llanilganda variantda $2,65 \text{ g/sm}^3$ gacha va bedada $2,48 \text{ g/sm}^3$ gacha tushdi. Tajriba oldidan xuddi shu qatlamda gumus miqdori 0,37% ni tashkil etgan bo'lsa, uch yildan so'ng organik o'g'itda 0,34%, sideratda 0,50%, bedada (shudgorlashdan oldin) 0,66% ni tashkil etgan. Siderat va ko'proq bedadan foydalanish gumusning to'planishi tufayli tuproqning potentsial unumdorligi oshirilgan. Biogumus va beda bilan solishtirganda (turish davrida) ko'kat o'g'it haydalgan siderat massasining parchalanishi tufayli nitratlar, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdorini (vegetatsiya davrining ikkinchi yarmida) oshiradi, bu esa o'sish sifatini yaxshilaydi, anorning o'sishi, rivojlanishi va meva berishi uchun sharoit yaratadi.

Q.K.Qo'zimurodov (85) ma'lumotlariga ko'ra, Sherobod maydonlari

sharoitida bog'dagi organik o'g'it va bahorgi siderat tuproq tarkibi anor tuplarining o'sishiga qulaylik tug'diradi, beda qo'llanilganda esa ikki marta qo'shimcha sug'orilganiga qaramay, o'sish kamayganligi kuzatilgan. Mevasining o'rtacha vazni beda variantiga eng past kuzatiladi - Qizil-anor - 153 g, Oq-dona- 166 g.

Anor hosildorligining turli yillardagi tajriba variantlari bo'yicha teng bo'lmagan o'sishi bog'dagi turli tuproq tarkibi ta'sirida o'simliklarning suv-sinov rejimining o'zgarishi bilan bog'liq. Sideratlarni qo'llashning birinchi yilida (1974) "ko'kat o'g'it" variantida anor butalarining suv sinovi rejimi novdalarning intensiv o'sishi va anorning gullash davrida "organik o'g'it" ekinlariga qaraganda dastlab yomonroq bo'lgan. Biroq, 1974 yilda ko'kat o'g'itning salbiy ta'siri bedaga qaraganda qisqaroq bo'lgan. Sideratni haydash va keyinchalik chirindi ostida tuproqni parvarish qilish mevalarning hajmini oshirishga, novdalarning yaxshi rivojlanishiga va novdalarning pishishiga yordam berdi.

1975-yilda vegetatsiya davrida siderat variantidagi anor butalari go'ng va beda navli butalarnikidan ancha yaxshi holatda edi. Siderat varianti tuprog'ida oziq moddalarning harakatchan shakllarining tarkibi boshqa variantlarga nisbatan yuqori bo'lgan. Siderat ekilgan maydonning shudgori vegetatsiya davrining ikkinchi yarmida meva va o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, hosildorlikning oshishiga xizmat qilgan.

1976-yilda 1975-yil noyabr oyida shudgor qilingan go'ng va beda variantlaridagi yerlarda bir xil miqdorda sug'orilish ishlari bajarilgan. Biroq, beda ekilgan variantida anor hosildorligi go'ng va ko'kat o'g'it variantlariga qaraganda ancha oshdi, bu esa beda qo'llanilgandan so'ng anor tuplarini suv sinovdan o'tkazish rejimining sezilarli yaxshilanishi bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

1976 yildagi beda ekilgan variantda anor hosildorligining o'sishi 1975 yildagi siderat ekin ekilgan variantiga nisbatan hali ham past. Bu anor tuplarining joriy yildagi holati keyingi yil hosildorligiga ta'sir qilishi bilan bog'liq. Anorning egilib o'sishi va meva berishi, bedaning bog'da turishi beda haydalgandan keyingi birinchi yilda keyingi ta'sir sifatida namoyon bo'lganligi kuzatilgan.

Tuproq bog'da bahorgi siderat va keyinchalik go'ng ostida saqlanganida

oʻrtacha 3 yillik tajribaga ega boʻlgan butalar eng yuqori hosildorlikka ega boʻlgan. Shunday qilib, bahorgi sideratdan foydalanish anor bogʻida qator oralarini saqlashning samarali usuli boʻlib, tuproq unumdorligini oshiradi va anor hosildorligini oshiradi. Siderat ekin ayniqsa unumsiz tuproqlarda va organik oʻgʻitlar yetishmasligida samarali ekanligi aniqlangan.

Anor tuplarining ostiga qoʻllash uchun moʻljallangan oʻgʻitlardan tashqari, sideratni ekishdan oldin 30 kg/ga azot va 20 kg/ga fosfor qoʻllaniladi. Siderat ekinlar butalar ochilgandan soʻng va bogʻdagi tuproq tartiblangandan soʻng darhol ekiladi va dukkak hosil boʻlish bosqichida - urugʻlar hosil qilish davrida yerga qoʻshib haydab yuboriladi. Sugʻorish egat boʻylab amalga oshiriladi.

Anor bogʻi bahorda butalar ochilib, tuproq tekislangandan soʻng qator oraliqlari 20-25 sm chuqurlikda haydaladi, sugʻorish joʻyaklari olinadi, oʻgʻitlar beriladi. Oʻsimliklarning oʻsishi va meva berish sharoitlarini yaxshilash uchun 15-20 sm chuqurlikdagi qatorlar boʻylab bahorgi ishlov berish katta ahamiyatga ega. Vegetatsiya davri uchun yer holatga keltiriladi, begona oʻtlardan tozalanadi, buning uchun ikki yoki uchta kultivatsiya ishlari olib boriladi. Kuzda, oʻrim-yigʻimdan soʻng, koʻmish oldidan qator oraliqlari 25-30 sm chuqurlikda haydaladi.

Anorzor barpo etilgandan soʻng dastlabki uch-toʻrt yil ichida agrotexnik talablarga rioya qilgan holda qator oraliqlarini ekin ekishda foydalanish mumkin.

Tuproq eroziyasiga qarshi kurash. Tuproq eroziyasi qishloq xoʻjaligidagi eng katta muammolardan biri boʻlib, u suv, shamol va tuproqqa ishlov berish oqibatida yuzaga keladi. Agrotexnik ishlov beriladigan tuproqlarda, mexanik ishlov berilmaydigan tuproqlarga nisbatan tuproq eroziyasi muammosi koʻp uchraydi. Buni yogʻinning tuproq tarkibiga yetkazadigan taʼsiridan koʻrish mumkin. Tuproq ustki qismini oʻsimlik qoldiqlari bilan koʻmish yoki mulchalash uning eroziyasi oldini olishga yordam beradi. Tuproq eroziyasi oldini olish uchun quyidagi tadbirlar ishlab chiqilgan:

-yerni chuqur agʻdarmaslik:

-begona oʻtlarga qarshi kurashishda gerbitsidlardan foydalanish

-bogʻ oralariga ekin ishlarini bajarish

-mulchadan foydalanish

Bog' qator oralarida ekin yetishtirish. Imkoni bor anorzorlarda bog' orasiga ekin ekish ishlarini qo'llash amaliyotining talablaridan biridir. Anorzorlardagi bog' orasiga ekinlar ekish quyidagi vazifalarni o'taydi:

- Dukkakli ekinlardan foydalanish tuproqni azotga boyitadi.
- Tuproq tarkibini yaxshilash orqali zararkunanda hashorat va kasalliklar oldini olish, tuproqda mikroorganizmlar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish va tuproq yuza qatlamida zararkunanda hashorotlarga qarshi kurashish;
- Tuproq eroziyasi oldini olish va uning unumdor qatlamini asrash;
- Tuproqning suv o'tkazuvchanligi va zarur foydali elementlarni o'zida ushlab turish imkoniyatini yaxshilash;
- Begona o'tlarning butalarni o'sishiga yo'l qo'ymaslik;

Anorzorlarda oraliq ekinlar va mulchadan tabiiy ozuqa vazifasida foydalaniladi. Bunday holatda oraliq ekinlar o'rib (maydalanib) tuproq yuzasiga mulcha sifatida to'shaladi. Quruq mavsumlarda mulcha suv yo'qotilishi oldini olishga yordam beradi va tuproqni organik moddalar bilan boyitadi (mexamik ishlovga nisbatan samaraliroq). Quruq mavsumlarda yong'inlarga sabab bo'lishi, mulchanning kamchiliklaridan biridir.

Ekin tanlanayotganda quyidagi talablarga e'tibor berish kerak:

- Tanlanayotgan o'simlikning ozuqa va suvga bo'lgan talabi va biologik vegetatsiya davri.
- Tanlangan ekinning tuproq tarkibiga ta'siri.
- Tanlangan ekinning tuproqqa foydasi.
- Tanlangan ekinning zararkunanda hashorot va kasalliklarga chidamliligi.
- Tanlangan ekinning agrotexnik ishlovga bo'lgan talabi.

Bog' qator oralariga ekin sifatida mahalliy sharoitda yaxshi o'suvchi o'simlik turlarini tanlanishi maqsadga muvofiq, chunki ular mahalliy ob-havo va tuproq sharoitlariga moslashuvchan bo'ladi.

Bog' qator oralariga ekish uchun mo'ljallangan ekinlar turlari. Past bo'yli sabzavotlar, dukkaklilar va yem-xashak o'tlardan foydalanish bu bog' uchun

foydali. Ekilayotgan ekin bu, bir vaqtning o'zida ayni bir maydonda ikki yoki undan ortiq ekin turidan foydalanish demakdir. Madaniy ekin tanlanayotganda quyidagilarga e'tibor berish tavsiya qilinadi:

- Ekin asosiy ekin (buta) ning o'sib rivojlanishiga ta'sir o'tkazmasligi.
- Baland bo'yli ekinlarni bog' orasiga ekish tavsiya qilinmaydi.
- Ekin ekilayotganda buta poyasidan kamida 120 sm masofa bo'sh qolishi (toza turishi) shart.
- Buta uchun zarur tuproqdagi ozuqa va namlikni tortib oluvchi oraliq ekin turlaridan foydalanmaslik kerak.

Anorzorlar uchun tavsiya qilinishi mumkin bo'lgan madaniy ekin turlari bu: qulpnay, pomidor, piyoz, gul karom, loviya, bulg'or qalampiri, rediska, qalampir va boshqalar.

Begona o'tlarga qarshi kurashish. Begona o'tlarga qarshi kurashish yangi ekilgan anor ko'chatlari rivojini jadallashtiradi va hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Begona o'tlarni yo'qotish umumiy bog' boshqaruvining bir qismi hisoblanadi. Begona o'tlar zararkunanda hashoratlar, kanalar, nematodlar va kasalliklar ko'payishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Begona o'tlar buta bilan ozuqa, suv va quyosh nuri uchun raqobatlashib uning rivoji va hosilini chegaralaydi. Bu raqobat buta rivojlanishining birinchi 5 ilida yoki ildizlari hali nimjonligida juda yuqori bo'ladi.

Buta poyasi atrofidagi begona o'tlar nafaqat uning rivojlanishi bilan raqobatlashadi, balki buta poyasini kemirib oziqlanuvchi kemiruvchilar uchun qulay sharoit yaratadi. Yuqori hosil olish uchun buta ostki qismining kamida 1 m masofasi begona o'tlardan holi bo'lishi shart. Buta 4 yoshga to'lib yaxshi o'mashib olgandan so'ng va uning osti soya bilan qoplangach begona o'tlar ta'siri bir muncha sustlashadi.

Begona o'tlarni nazorat qilish buta ekilishidan oldin va keyin amalga oshiriladi. Har ikki holatda kimyoviy yoki agrotexnik yoki har ikki usuldan foydalanib begona o'tlarni nazorat qilish mumkin.

Biologik usul bilan begona o'tlarga qarshi kurashish. Sug'oriladigan

bog'larda samarali natija beruvchi usul bu buta ekishdan oldin bog'ni bir necha bor sug'orilib yangi rivojlanayotgan begona o'tlar urug'lari ko'payishidan oldin bir necha bor kultivatsiya qilinadi. Qisqa muddat oralig'ida rivojlanayotgan begona o'tlarni kultivatsiya qilib nazoratga olib turish mumkin. Bu usul ko'p yillik begona o'tlarni nazorat qilishda samarasi kamroq. Qo'lda boshqariladigan motorli o'roqlardan ham foydalanish mumkin, lekin ular buta poyasiga zarar yetkazishi mumkin. Qatorlar orasini esa maxsus o't o'ruvchi moslamalar bilan osonlikcha o'rib turish mumkin. Agrotexnik kurash begona o'tlar to'liq o'sib ulgurmasidan oldin qayta-qayta amalga oshirilib turilishi shart.

Qator ichidagi begona o'tlar yuqorida tilga olinganidek oraliq ekin yoki mulcha yordamida ham nazoratga olinishi mumkin. Organik mulcha turlari – boshoqli ekinlar poyasi, o'rilgan o't, maydalangan o'tin, sholi qipig'i, yog'och qirindisi va boshqalar. Sintetik mulcha turlari - polietilin, polipropelin yoki poliestr bilan buta ostki qismi qoplanishi mumkin. Buta kesishdan hosil bo'lgan shox-shabbalarni maydalab ishlatish ham mumkin. Mulcha, doim hali o't o'sib chiqmasidan oldin to'shalishi shart.

Mulcha quyosh nurini to'sib yer yuzasiga etib borishiga qarshilik qiladi va begona o't urug'lari soyada unib chiqmaydi. Mulcha namlikni bir maromda ushlab turishga yordam beradi va oqibatda yosh ko'chatlar yaxshi rivojlanadi. Shunday bo'lsada, mulcha kemiruvchilar (dala sichqoni, ilon, va boshqalar) ko'payishi uchun qulay sharoit yaratishi ham mumkin, begona o'tlar urug'lari mulcha bilan bog'ga kirib kelishi ham mumkin.

Begona o'tlarga qarshi kimyoviy preparat yordamida kurashish–*gerbitsidlar* orqali amalga oshiriladi. Agar belgilangan tartibda ishlatilsa, gerbitsidlar anorzorlarda aksariyat begona o'tlarni nazorat qilishga yordam beradi. Juda ko'p bog'larda gerbitsidlarni aralashtirib muntazam ravishda qo'llash iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaganligi qayd qilingan. Gerbitsiddan foydalanishdan oldin u qaysi turdagi begona o'tlarga qarshi va qanday qo'llanilishi xususidagi yo'riqnoma bilan yaxshilab tanishish tavsiya qilinadi.

Anorzorlarda mulchadan foydalanish. Bu usulda begona o'tlar urug'ining

unib chiqishiga, unganlarining esa o'sishiga yo'l qo'ymaslik va boshqa maqsadlarda yer mulchalanadi. Mulchalash uchun maxsus qog'oz, polietilen plyonka, neft chiqindisi va boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Ishlab chiqarish sharoitida o'tkazilgan tajriba ma'lumotlariga ko'ra, mulchalash tuproqning issiqlik rejimiga ijobiy ta'sir etib, begona o'tlarning o'sib chiqishiga to'sqinlik qiladi.

Turli xil mulchalash materiallari aralashmasi o'simliklarni oziqlantirish manbai sifatida juda samarali bo'lishi mumkin. Bunday aralashmaning tarkibi qanchalik xilma-xil bo'lsa, organik qoldiqlarda mikroelementlar va boshqa foydali moddalarning tarkibi shunchalik to'liq namoyon bo'ladi.

Quruq o'simlik qoldiqlari o'simliklarning yashil qismlari bilan aralashtirilgan bo'lsa, yaxshi ta'sirga erishiladi. Bunday aralashmada chirish sodir bo'lmaydi va u yetarlicha tez parchalanadi. Mulchada mikrobiologik faollik uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'ladi.

Begona o'tlarga qarshi kurash sifatida mulchalash. Mulcha ostida begona o'tlar o'smaydi, chunki mulcha quyosh nurini o'tkazmaydi. Shu munosabat bilan, mulchaga qo'yiladigan asosiy talab uning shaffofligi va zichligi hisoblanadi.

Mulcha qanchalik zich yotqizilgan bo'lsa, u begona o'tlardan samaraliroq himoya qiladi. Shu nuqtayi nazardan, shubhasiz daraxtlar va butalarning barglari yaxshi mulcha hisoblanadi. Ho'l va pishiq barglar quyosh nurini o'tkazmaydigan juda zich qatlam hosil qiladi va shunga mos ravishda bir yillik begona o'tlarning unishi uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi.

Pichan tuproqda zich joylashadi, ammo uning qalinligi barg mulchalaridan biroz qalinroq bo'lishi kerak. Ko'proq somon kerak bo'ladi. Ignabarglar mulchalashga tavsiya etilmaydi. Ular g'ovak bo'sh qatlam hosil qiladi va begona o'tlar bunday mulcha orqali osongina o'sib chiqadi. Begona o'tlardan himoya qilish uchun kamida 30 sm ignabargli qatlam kerakligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Ba'zi hollarda mulchalashdan oldin ekin maydonlarini begona o'tlardan tozalash tavsiya etiladi. Ko'p yillik begona o'tlar mulcha bilan qoplanadi. Agar

begona o'tlar juda ko'p bo'lsa ularni o'rib tashlab keyingina mulcha bilan qoplash kerak. Ekin maydonlarini begona o'tlardan butunlay tozalab bo'lmaydi chunki ularning ba'zilari yana unib chiqadi. Misol uchun, qo'y pechak va qushqo'nmas asfaltni ham teshib chiqali, organik mulchalash materiallarining hech biri ularni to'sib qola olmaydi. Bunga o'xshash ko'p yillik begona o'tlar oldindan yo'q qilinish kerak.

Ba'zi dehqonlar mulchalash uchun somonni pichandan afzal deb hisoblashadi, chunki begona o'tlarning urug'lari pichanda saqlanib qolgan boladi.

Achitilmagan organik moddalar begona o'tlar urug'larining unib chiqishini sekinlashtiradi yoki to'xtatib turadi. Agar biron bir begona o't mulchani yorib uning yuzasiga chiqsa uni olib tashlash juda oson, chunki - mulcha ostidagi ildizlar nozik bo'ladi, kuch sarflamasdan olib tashlanadi.

Mulchadan termostat sifatida foydalanish. Tuproqning quyosh nurlarini singdirish va ushlab turish qobiliyati ko'p jihatdan uning rangiga bog'liq. Tuproq yuzasining rangini o'zgartirib, biz uning termal xususiyatlarini nazorat qilishimiz mumkin. Tuproq yuzasida qoplangan qora rangli mulcha quyoshdan kelayotgan issiqlikni o'zlashtirib o'tkazadi va tuproqni ham isitadi.

Shoffof mulcha esa tuproq yuzasining quyosh nurlarini qaytarish qobiliyatini oshiradi, bu esa mulcha qoplami ostidagi tuproqning haddan tashqari qizib ketishining oldini oladi. Har bir alohida holat uchun mulcha materiallarini tanlashda buni hisobga olish kerak. Bundan tashqari, mulchaning qalinligi va tarkibi ham hisobga olinish kerak.

Mulchalash materiallari tuproqni va o'simlik ildizlarini haroratning keskin o'zgarishidan himoya qiladi: ular quyoshda haddan tashqari qizib ketishiga yoki kechasi, ayoz va sovuq havoda keskin sovishiga yo'l qo'ymaydi; ular issiq yozda biroz sovuqroq tutadilar.

Ammo mulchaning aynan shu xususiyati tuproqning yer usti o'simlik organlariga sovuq ta'sirini kamaytirishga imkon bermaydi. Ochiq tuproq kun davomida isinadi. Kechasi yerdan issiqlik yer havosini isitadi, sovuqning ta'sirini kamaytiradi. G'ovak mulchalash substrati issiqlikning yomon o'tkazuvchanligi

hisoblanadi, shuning uchun ular kun davomida tuproqning isishiga to'sqinlik qiladi va kechasi u yerda to'plangan issiqlikni izolyatsiya qiladi.

Shuning uchun, sovuqqa sezgir o'simliklar erta bahorda va kuzda qalin mulchalanmasligi kerak. Qoplama qatlami qanchalik qalinroq bo'lsa, uning issiqlik o'tkazuvchanligi qanchalik past bo'adi, bunday joylar tungi sovuqlar xavfiga ega. Mulchani qalin qatlami bahorda tuproqni issiq ushlab turadi. Shuning uchun, bahorda mulchani nozik bir qatlamini, qorong'u mulchalash materiallarini ishlatish mantiqan to'g'ri keladi, lekin uni butunlay olib tashlamaslik kerak. Bir vaqtning o'zida isitish va namlikni saqlash masalasi shunday hal qilinadi. Mulchalangan tuproqni isitish boshqa yo'llar bilan tezlashtirilishi mumkin, ammo bu umuman boshqa mavzu hisoblanadi.

Yoz issiq bo'lgan hududlarda tuproqni haddan tashqari issiqlikdan himoya qilish dolzarb muammodir. Bu muammo barglar, pichan, somon, yog'och qipig'i bilan yaxshi hal qilinadi. Gumus va kompost g'ovak tuzilishga ega, shuning uchun ular tuproqni haddan tashqari qizib ketishdan himoya qiladi, ammo bu materiallarning samaradorligi barglar, pichan, somon va yog'och qipig'idan ancha past. Kompost va gumus quyuc rangga ega, shuning uchun ular tezda isitiladi.

Namlikni ushlab turish uchun mulcha. Mulcha o'simlikning ildizlarida tuproqdagi namlikni saqlab qolishga yordam beradi. Buning uchun mulchani zichligi ham muhimdir. Bu yerda joylar quyidagicha taqsimlanadi: ko'katlar, qipiq, pichan, somon, kompost. Bu masalada siz mulchalangan joylarni sug'orishda mulcha qatlamini namlash va uning ostidagi tuproqni namlash uchun ko'proq suv talab qilishi hisobga olinishi kerak. Mulcha qatlami qanchalik qalinroq bo'lsa, u namlikni uzoqroq saqlaydi va sug'orishda ko'proq suv kerak bo'ladi.

Tuproqni mulchalash turlari:

- an'anaviy mulchalash
- organik mulchalash,
- noorganik mulchalash.

An'anaviy mulchalash doimiy ravishda ishlatiladi. Bu odatiy hisoblanib, quruq sug'orish ham deyiladi. Sug'orish yoki yomg'irdan keyin yumshatish tuproq

qatlamini uning ostida uzoq vaqt nam va salqin tutadi va quruq davrda u tuproqdagi namlikning bug'lanishini kamaytiradi. Begona o'tlarni yo'qotish orqali tuproqqa kislorod oqimi kuchayadi. Ammo bunday mulchalash ijobiy tomondan tashqari, salbiy tomonga ham ega. Tez-tez yumshatish tuproqning tuzilishini buzadi, unumdorligini oshirishga yordam bermaydi.

Organik mulchalash ma'lum bir qishloq xo'jaligi ishlaridan keyin qolgan organik materiallar bilan tuproqni pana qilishdir. Organik mulcha tarkibiga barcha qishloq xo'jalik chiqindilari kiradi: somon, poxol, yashil o'simliklar, torf, maydalangan daraxt po'stlog'i, yog'och qirindilari, xazonrezgi barglar va boshqa materiallar.

Noorganik mulchalash bu tuproqni tosh materiallari yoki sanoat ishlab chiqarish bilan qoplash. Anorganik mulcha tarkibiga tabiiy materiallar - shag'al tosh, qum, shag'al, shuningdek g'isht va boshqa sanoat korxonalarida chiqindilari kiradi. Polimer plyonka bilan tuproq yuza qismi, begona o'tlarni yo'qotish va madaniy o'simliklarga o'sish sifatini oshirish uchun mo'ljallangan mulchalashning bir turi.

Mulchalash usuli asosiy maqsadi quyidagilar bilan belgilanadi - begona o'tlarni yo'q qilish, namlikni tejash, erta sabzavot yoki ko'chat olish, shuningdek issiqlik davrini uzaytirish.

5.2. Butalash ishlarini bajarish

Anorni butalash (kesish) vaqtida ularning meva berish fiziologiyasi doim e'tiborga olinishi shart. Anor butalari yoshi katta (2-3 yosh yoki undan katta) va bir yoshli (shu mavsumdagi) novdalarda meva beradi. Eng ko'p va sifatli meva yoshi katta novdalarda hosil bo'ladi. Qisqa meva beruvchi hosil kurtaklar asosan ikki yoki uch yoshli novdalarda shakllanadi va bunday hosil kurtaklar novdaning tashqi yuzasida shakllanadi. Anor butalarini har yili butab turish kerak, ortiqcha va so'ruvchi novdalar kesib tozalanishi shart. Sifatli meva olish uchun anor butalari qanday tizimda shakllantirilmasin (yagona yoki bir nechta poyali) butalab turilishi shart. Anor butalari hosildan so'ng qishda, tinim davrida butalanadi (kesiladi). Buta kesishni boshlash vaqti nav, parvarishlash va bog'ning umumiy boshqaruv

faoliyatlari vaqti bilan bog'liq. Butalarni kesish asosan qish oylariga, ya'ni kurtak yozish davridan oldinga to'g'ri keladi, yoz oylari o'rtasida so'ruvchi novdalar kesib tozalanadi. Eng katta kesish ishlari butaga shakl berish va shu shaklni ushlab turish uchun amalga oshiriladi. Ortiqcha havo aylanishi va quyosh nuridan kuyishining oldini olish, yoki shamolda mevalar bir-biriga ishqalanib zararlanishi oldini olish maqsadida anor butalariga mevalarni tutib turish uchun yetarlicha yon shoxlarni qoldirib shakl beriladi. Buta balandligi imkon boricha narvondan foydalanishni minimallashtiradigan masofada (taxminan 3m) ushlab turish tavsiya qilinadi. Qisqa meva beruvchi hosil kurtaklar asosan ikki yoki uch yoshli novdalarda shakllanadi va bunday hosil kurtaklar novdaning tashqi yuzasida shakllanadi. Hosil kurtaklari vaqt o'tishi bilan bir necha yil meva beruvchi novdalarni hosil qiladi, lekin buta katta bo'lgan sari ushbu novdalarning hosildorligi tushib boradi. Shu sababdan har yili yengil butab borish hosil kurtaklarning ko'payishiga olib keladi, butalarni qattiq kesish esa hosildorlikni tushiradi. Bir-biriga ishqalangan yoki ortiqcha shoxlarni kesayotganda meva beruvchi shoxlarni ko'p olib tashlamaslikka e'tibor tavsiya qilinadi. Shunday bo'lsada qattiq chigallangan meva beruvchi shoxlarni siyraklashtirish meva ajmini kattalashtirishga va ularning ishqalanib shikastlanishi oldini olishga yordam beradi. Asos shoxlarni ham ba'zida butalab eng kuchli va yaxshi shakllanganlarini qoldirish tavsiya etiladi. Hosildorlikni yuqori va har mavsumda bir xil ushlab turish uchun 3-5 yoshli shoxlarni yangilariga almashtirish va vaqtida meva bermaydigan so'ruvchi novdalarni tozalab turish maqsadga muvofiq. Yuqorida tilga olinganidek anor butalari ko'p yillik (2-3 yil yoki undan katta) va bir yillik (shu mavsumdagi) novdalarda meva beradi, lekin eng yaxshi meva ko'p yillik shoxlarda hosil bo'ladi. Mevani ko'p yillik shoxlarda shakllantirish uchun shoxlarni erta, gullashdan oldin kesish kerak. Ya'ni ushbu mavsumda shakllangan novdaning yarmini kesib qisqartirish va gullashiga yo'l qo'ymaslik kerak. Butalar yoshi katta bo'lib borgan sari gullariga qanchalik ko'p quyosh nuri tushsa va ular orasida havo aylansa meva sifati va hosildorlik shuncha yaxshi bo'ladi. Ko'p yillik 3-4 ta shoxni butalayotga ular orasini ochish va bir-biriga ishqalangan shoxlarni

(novdalarni) kesib tozalash tavsiya qilinadi. Mevaning asosiy qismi butaning tashqi yuzasida, yoshi katta shoxlarda shakllangan yosh hosil kurtaklarida shakllanadi. Shu sababdan juda ko'p shox kesib tashlansa ham hosildorlik tushib ketadi. Quyosh nuri meva sifati va hosil bo'lishida juda muhim o'rin tutadi. Yozgi butalash, so'ruvchi va ortiqsa novdalarni kesib tozalab turish quyosh nuridan unumli foydalanishga yordam beradi.

Juda ko'p bog'bonlar meva terish jarayonini optimallashtirish uchun butalarini 3-4 metrda kesib, balandligini nazorat qilib turishadi. Anor yetishtirishdagi katta muammolardan biri bu bir yillik novdalarni birinchi yilidayoq meva og'irligi evaziga egilib o'z shaklini yo'qotishi va vaqt o'tishi bilan egilgan shoxlardagi mevalarning yerga tegib qolishi. Buning oldini olish uchun shoxlar ostiga tirkak qo'yilishi maqsadga muvofiq. Shu sababdan ayniqsa hosildorligi yuqori bir yillik shoxlarni ostiga tirkak o'rnatish muhim ahamiyatga ega.

Anor butalarini shakllantirish va kesish, anor plantatsiyalarida kichik o'lchamdagi yuqori hosildor, agroparvarishni keng mexanizatsiyalanishni ta'minlaydigan unumdor butalar yaratishni ta'minlaydi.

Anor tupini hosil yetishtirishda poyalarning yerga qiyaligi katta ahamiyatga ega. Kuchli nishab qilinganda ko'mish osonlashadi, lekin meva berish yomonlashadi, kam nishabda ko'mish qiyinlashadi va butaning sinishi tez-tez bo'ladi. Poyalarni qator bo'ylab yo'nalishida tuproq yuzasiga nisbatan taxminan 35-45° nishab berish yaxshidir. Ekishdan keyingi dastlabki yillarda ular poyada birinchi shoxlari boshlanishini o'z ichiga olgan holda, pastki qismida egilgan bo'lishi kerak. Bunda butalarni ko'mishni, ochishni osonlashtiradi va o'simliklarning yaxshi o'sishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Yoshi ortishi bilan anor butalari novdalar meva berishdan to'xtash va nobud bo'lish davriga kiradi. Eski anor plantatsiyalarining hosildorligini oshirish uchun eskirgan va shikastlangan poya va shoxlarni yangi novdalar bilan qayta tiklanadi.

I.Lodistopo (15) Bari (Italiya) lar anor o'simliklarining ustki qismi har 20-30 yilda yangilanib, eski poyalarini kesib, o'rniga yangi novdalari qo'yilishini

qayd etadi; meva berish 5-6 yildan keyin qayta tiklanadi. A.D.Strebkova (1974) Ozarbayjonda butani yoshartirishning bir xil davriyligini qayd etadi. U 4-6 poyadan anor butalarini shakllantirishni tavsiya qiladi.

U.Saydaliyev (141) Quva tumanida (Farg'ona vodiysi) anor tupi yer ustki qismining to'liq o'zgarishi har 20-25 yilda sodir bo'lishini aniqlagan.

Janubiy O'zbekiston stansiyasi (hozirgi M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi)da o'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, 15-20 yildan oshgan anorning eski shoxlarini 2-3 yil oldin butaning tagidagi novdadan o'stirilgan yangi butalarga almashtirish kerak.

S.M.Jivotinskaya (69) shoxlarni kamaytirish va qisqartirish bo'yicha tadqiqotlarida bu usullar anor butalarining o'sishi va meva hajmining o'zgartirishga boshqa ta'sirini aniqladi. Shoxlarning qisqarishi kesilgan yilida katta va o'rta o'lchamdagi novdalarining sezilarli darajada shakllanishiga olib keladi, kelgusi yil ularning soni ortadi, lekin o'rtacha uzunligi sezilarli darajada kamayadi. Shoxlari qisqa bo'lgan butalarda, kesilgan yilida yangi novdaning shakllanishi novdalar qisqartirilgandan ko'ra kamroq intensiv bo'ladi, ammo keyingi yil o'rta bo'yli novdalar sonining ko'payishi tufayli butaning umumiy o'sishi ortadi, katta va kichik novdalar soni kamayadi.

Kesishning turli usullari bilan—shoxlarni qisqartirish va tupni siyraklashtirish—nafaqat novdalarning o'sishi tabiati, balki uzun va qisqa hosil beruvchi gullarining nisbati, shuningdek, mevaning o'rtacha og'irligi ham o'zgaradi.

Kesilgan yilida (6 yillikda) novdalari qisqargan butalarda uzun bo'yli novdalarning shakllanishi va o'sishi kuchayadi va qisqa urug'chi (s/p) gullari soni kamayganligi va meva hosilining kamayganligi kuzatilgan, ammo kelgusi yilda hosil beruvchi gullar soni keskin ko'payganligi kuzatilgan. Kesilgan yilida eng ko'p uzun urug'chili gullar nazorat butalarida qayd etilgan, ammo ularda gullarning eng ko'p to'kilishi ham kuzatilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki butalarning o'rtacha meva vazni boshqa tajribadagilarga nazoratdagilarniki kamroq

qayd etilgan.

Mevalarning shoxlanish tartibi bo'yicha taqsimlanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, shoxlanish tartibining ortishi bilan mevaning o'rtacha vazni odatda kamayadi. Siyraklashtirilgan shoxlari bo'lgan butalarda yuqori tarvaqaylab ketgan butalarga qaraganda yuqoriroq meva hosili beradi.

To'liq o'sgan anor butasi 8-9 tagacha shoxlanish tartibiga ega bo'lishi mumkin. To'liq meva beradigan anor navlarining butalari (7-9 yillik o'simliklar) bo'yicha taqsimlanishi shuni ko'rsatadiki, bozorbop mevalarining asosiy qismi - 90-95% gacha III-V novdalarda to'plangan. VI-VII tartibli shoxlarda mayda mevalar hosil bo'ladi. Ular boshqa shoxlangan tartibdagi shoxlarida ham oz miqdorda paydo bo'ladi.

Janubiy O'zbekiston stansiyasi (hozirgi M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi)da olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qish mavsumida ko'mib o'stirilgan anorni kesishning asosiy usuli tupni siyraklashtirishdan iborat bo'lishi kerak. Bu butaning turli zonalarida yangi o'sishni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, asosan, III-IV ba'zan II tartibli shoxlar orasida amalga oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, anor butasining egilgan shakli yaratiladi, ularning alohida qismlari o'sishi va meva berish xususiyatlari bilan farqlanadi (64). Birinchi yoki yuqori zonaga poyaning birinchi shoxlari, poyaga yaqinroq joylashgan butaning yuqori qismi kiradi. Birinchi zonada umumiy o'sishning 35-40% ni va har bir butada hosilning 12-20% ni tashkil qiladi. Bu butaning o'sishining 55-60% va hosilining 70% dan ortig'ini tashkil qiladi. Anor tupining turli joylarida o'sish va meva berish xususiyatlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, birinchi zonada kuchli o'sish va o'rtacha meva berish, ikkinchi zonada o'rtacha o'sish va yaxshi meva berish, uchinchi zonada zaif o'sish va zaif meva berishi bilan ajralib turadi.

Butaning zonalarida yangi o'sish va mevalarni shakllantirish xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, turli xil kesish usullarining anorning o'sishi

va meva berishiga ta'siri, butalarni kesish uchun muayyan talablarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Birinchi zonaning o'ziga xos xususiyati katta shoxlar va novdalarning shakllanishi I, qisman II tartibli poya va shoxlarning pastki qismini progressiv ta'sir qilishidir. Shoxlarning ko'payishi bilan, yangi novdalar paydo bo'lishini oshirish uchun uch yillikdan katta bo'lgan II va III darajali novdalarni siyraklash amalga oshiriladi; siyraklash darajasi har bir buta uchun alohida belgilanadi. Shu bilan birga, birinchi tartibli yangi shoxlar poyada hosil bo'lgan novdalar sonidan kelib chiqadi.

Butaning ikkinchi zonasi o'rta shoxlar va qisman kichik shoxlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu yerda o'sishning asosiy qismi shoxlanishning yuqori tartibida va juda ko'p miqdorda rivojlanadi. Qalin novdalar shakllanishi va poya va shoxlarning shikastlanishi sekinroq sodir bo'ladi. Ikkinchi zonada sust rivojlanishdan to'xtab qurigan shoxlardan tashqariga cho'ziladiganlar kesiladi. Ko'p zichlashganda III va qisman II va IV tartiblarning shoxlari kesiladi. Ikkinchi zonada, shoxchalarni tartibli, novdalarning yetarlicha siyrak va bir xil joylashishiga erishish kerak.

Uchinchi zona tupning pastki qismida birinchi va ikkinchi zonalarning shoxlari ostida joylashgan. Birinchi va ikkinchi zonalarning siyraklanishi shoxlarning yetarli darajada yoritilishi va aeratsiyasini yaratadi, uchinchi zonada novdalar shakllanishini yaxshilaydi; shuningdek, quruq va sust rivojlangan novdalarni olib tashlash kerak.

Shunday qilib tajribalarning natijalari shuni ko'rsatadiki nazorat va tajriba butalarning shakl berishdan oldin va keyin hosildorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqqoslash tavsiya etilgan anorni parvarish qilish tizimining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, bu esa anor hosilini oshirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi.

Taklif etilgan tizim bo'yicha anor butalarini to'liq kesish har 2-3 yilda bir marta, odatda bahorda butalar ochilgandan keyin amalga oshiriladi, barglar paydo bo'lishidan oldin tugatiladi. Qisman kesish, katta shoxlarni kesish ba'zan kuzda,

butalarni ko'mishdan oldin amalga oshiriladi.

Ikkita to'liq kesish o'rtasidagi davrda asosiy e'tibor o'sishni tartibga solishga, asosan, katta, qalinlashuvchi novdalarni sindirish poyada va butaning tagida hosil bo'lgan novdalarni olib tashlashga qaratilishi kerak.

O'suvchi va ildiz novdalarini olib tashlash majburiy hodisa bo'lib, vegetatsiya davrida 3-4 marta amalga oshirilishi kerak. Anor butasi qiya joylashtirilgan poya va shoxlarga ega. Rivojlanayotgan mevalarning og'irligi ostida, alohida novdalar egilib, mevalar yerga tegadi. Sug'orish va boshqa sabablarga ko'ra tuproq namligining o'zgarishi bunday mevalarning buzilishiga olib keladi va bu ularning sifatini yomonlashtiradi.

Mevalarning yerga tushib ketishining oldini olish uchun, bu ayniqsa uzur novdalari bo'lgan eski butalarda keng tarqalgan bo'lib, ularning egilayotgan poyalarini ko'tarib turish uchun uchtadan beshtagacha 50-70 sm uzunlikdagi tayanch tirgaklar qo'yiladi. Bu butaning markaziy va pastki qismlarida novdalar, shoxlar va mevalarning o'sishi va rivojlanishi uchun sharoitlarni yaxshilaydi, mevalarni chirishdan himoya qiladi va o'rim-yig'im paytida ularni olib tashlashni osonlashtiradi.

Ko'p yillik anor butalarini kesib yoshartirish. Butalarni kesib ularning bo'yini pasaytirish hosildorlikka deyarli katta salbiy ta'sir yetkazmaydi, aksincha meva terish, zararakunanda hashorat va kasalliklarga qarshi kimyoviy ishlov berish jarayonlarini osonlashtiradi. Butalar yoshi katta bo'lib hosildorlik tushib borsa (20-25 yosh) asosiy poyani yergacha kesib qisqartirish kerak bo'ladi. Yangi chiqqan novdalardan asos novdani tanlab olib, butani qaytatdan parvarishlash kerak, shu yo'l bilan butani yoshartirish mumkin. Hosildorlikni batamom yo'qotmaslik uchun asos shoxni har yili asta sekinlik bilan qisman kesib borilishi ham mumkin va bu vaqt davomida yangi novdani shakllantirib mevaga kirib olgandan so'ng eskisini batamom kesib tashlash mumkin. Afsuski bunday amaliyotni yagona asosiy poyaga ega bo'lgan tizimda samarali natija bermaydi. Bunday tizimda butani butunlay kesib tashlash, o'rniga yangisini ekish va shakllantirish maqsadga muvofiq.

5.3. Anorga shakl berish

Anor buta shaklida bo'lgani uchun unga ikki usulda shakl berish mumkin, yakka yoki bir nechta poyali. Anor butalari odatda bir nechta poyada o'stirilgan. Faqatgina qish iliq keluvchi hududlardagina ularni yagona poyada o'stirish mumkin. Ikkinchi usulda, anor butalari yerdan o'sib chiqqan 3 tadan 5 tagacha poyada shakllantiriladi. Dunyoning ko'pgina anor yetishtiruvchi davlatlarida anor butalari bir nechta poya asosida o'stiriladi. Ba'zi mutaxassislar poyalar 3 tagacha bo'lishi kerak desa, boshqalari 6 tagacha bo'lishi mumkinligini ta'kidlashadi. Barcha mutaxassislar poyalar shoxlar soni chegaralanishi tarafdori, chunki anor butalarida asos shoxlar ko'p bo'lsa ular buta shaklida rivojlanadi va hosildorligi past bo'ladi. Qattiq sovuq urib butunlay qurib qolish xavfi bo'lmagan hududlarda istalgan bog'bon anor butalarini yakka poya orqali o'stirishi mumkin. Qish sovuq keluvchi hududlarda anor o'stirishning yagona yo'li bu ularni bir nechta poya orqali o'stirishdir. Har ikki usulga javob tariqasida ba'zi bog'bonlar anor butalarini 3 ta poya qoldirib o'stirishni afzal ko'rishadi.

Farg'ona vodiysidagi havaskor bog'bonlar tomonidan qo'llaniladigan anor hosil qilish va kesishning empirik tarzda yaratilgan usuli 8-10 yillik butalarda poyaning pastki qismining doimiy cho'zilishiga olib keladi, bunda umumiy buta uzunligi 3,0- 3,5 m bo'lgan anor poyasi uzunligi 1,5 m ga yetadi.

S.M.Jivotinskaya (67) ma'lumotlariga ko'ra, Farg'onacha shakllantirish usuli o'sish va meva berish uchun qulay sharoit yaratadi, poyalarni yerda joylashuvini va ko'mishni osonlashtiradi; Ushbu usulning kamchiliklari butalarning katta hajmini o'z ichiga oladi. Anor shoxlarini shakllantirishning Farg'ona usuli katta plantatsiyalarga qaraganda kichik tomorqa yerlari uchun maqbuldir.

Anorning turli navlarining mevasi butani tashkil etuvchi poyalarning soniga bog'liq. Eng yuqori hosil ikki yoki uchta poyali butalardan olinadi. Poyasi ko'p bo'lgan butalar hosildorligining pasayishi A.A.Pruss (129), A.D.Strebkova (159) va boshqalar tomonidan qayd etilgan.

Anor navlarining hosildorligiga buta poyalari sonining ta'siri (Kulkov ma'lumoti)

Poyalar soni	O'rtacha 5 yillik hosildorlik, % nazoratga nisbatan				
	Qozoqi -anor	Qizil -anor	Bala-myursal	Oq dona	Achchiq-dona
1	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
2	164,5	167,4	144,5	167,0	167,5
3	158,9	166,4	166,7	169,2	169,6
4	118,9	143,9	123,4	153,0	157,4
5	63,6	106,2	108,8	111,8	95,6
6	-	76,6	80,0	-	-

Anorni yetishtirishda uch yoki to'rtta poyadan iborat buta hosil qilish tavsiya etiladi. Agar ulardan biri biron-bir sababga ko'ra yo'qolgan bo'lsa, bunday buta hosilning keskin pasayishiga olib kelmaydi, masalan, ikkita poyasi bo'lgan butada.

Anor butalarining shakllanishi ekishdan bir yil o'tgach boshlanac butaning bo'lajak poyalari – shoxlari ajratib olinadi. Birinchi darajali novdalar (ha bir poyada 3-5 dona) butaning tagidan 30-40 sm balandlikda hosil bo'ladi.

Anor butalari simbag'azga ham tortilishi mumkin, ya'ni qator ichida ular zichroq ekiladi va simga tortib shakl beriladi. Bu tizimda 3 ta poyadan foydalaniladi. Bir poya chapga, ikkinchisi o'ngga va uchinchisi o'rtada shakllantiriladi.

Yagona poya asosida yetishtirishning afzalliklari:

-Bog' tashkil bo'lgangandan so'ng mehnat kuchi kam talab qilinadi, ikkinchi tizimda esa poyalardan o'sib chiquvchi so'ruvchi novdalarni doim tozalab turish talab etiladi.

-Bog' yuzasiga ishlov berish juda qulay.

Yagona poya asosida yetishtirishning kamchiliklari

-Qish sovuq keluvchi hududlarda bu tizimdan foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki agar butani sovuq ursa uni butunlay almashtirishga to'g'ri keladi.

-Butani shakllantirish va simbag'az tizimini o'rnatish uchun ko'p mehnat talab qilinadi.

Bir nechta poyali anor yetishtirishning afzalliklari

-Agar butani sovuq uradigan bo'lsa, qurib qolgan shoxni kesib saqlanib qolgan shoxlardan yangi asosiy poyalarni shakllantirish imkoni bor va bu hosildorlikka katta zarar yetkazmaydi.

-Qo'shimcha murakkab simbag'az tizimi talab qilmaydi.

Bir nechta poyali anor yetishtirishning kamchiliklari

-Parvarishlash jarayoni juda murakkab - butalash, ortiqcha novdalarda tozalab turish, meva terish va hokazo.

-Barcha poyalar yangi novda chiqarishga harakat qiladi, buta shaklidagi bunday yangi o'sish o'ziga o'simlik bitlarini (shira) chaqiradi.

Yagona poya asosida yetishtirish. Anorzorlarni yagona poyada intensiv tizimda tashkil qilish mumkin. Bunda oddiy mevali shoxlariga o'xshagan shakl hosil bo'ladi, lekin buning uchun shoxlarga juda ko'p ishlov berish kerak. Yagona poya asosida yetishtirishni shakllantirish uchun ildizdan chiqqan bitta novda tanlab olinadi va u parvarishlanadi. Poya asosining pastki qismini doim yangi o'sib chiqqan novdalardan tozalab turiladi. Bunday tizimni shakllantirishning eng keng tarqalgan usuli bu, oddiy daraxtga o'xshab tanlab olingan yakka poyani 60 smda kesiladi va 3-4 ta yon shoxlar bir xil masofada joylashtirib shakllantiriladi. Bunda anorning balandligi 4 metrdan oshirilmay ushlab turiladi.




30-rasm. Yagona poya asosida o'stirilgan anor daraxti (butasi)

Simbag'azda shakllantiriladigan yagona asosli tizim. Anorzorlarda

simbag'azdan foydalanish juda keng tarqalmagan bo'lsada, oxirgi vaqtlarda "T" shaklidagi 2 simli va "V" shaklidagi 4 simli simbag'az tizimi dunyo mamlakatlarida ommalashib bormoqda, lekin bunday usul bizning hududimizga mos kelmaydi va yetishtirilmaydi. Biroq bunday tizimlar anor poyasi va yon shoxlariga ishlov berishda (butalash, kimyoviy preparatlar bilan ishlov berish, mevalarni siyraklashtirish va terib olish) juda ko'p qulayliklar yaratadi. Bunday simbag'az tizimlari olma va nok daraxtlarida samarali qo'llanib kelinadi va o'zi isbotlagan. "T" shaklidagi forma 2 mm qalinlikdagi ugolnikdan, "V" shaklidagi forma esa diametri 50 mm li trubadan tayyorlanadi.



31-rasm. "T" shakldagi 2 simli simbag'azning chizma ko'rinishi




32-rasm. "V" shakldagi 4 simli simbag'azning chizma ko'rinishi

Bir nechta poyalar orqali yetishtirish. Anor butalari birinchi yili umuman kesilmaydi, faqatgina tuvakda o'stirilgan buta bundan mustasno. Birinchi yili kesilmasligiga sabab, yangi ekilgan ko'chatlar kuzgacha rivojlanib mustaxkam ildiz tizimiga ega bo'ladi. Ikkinchi yili, butalar yaxshi o'mashib olgandan so'ng

ularni kesib shakl berish boshlanadi. Ikkinchi yilning boshida, ya'ni tinim davrida ular 10 smgacha qisqartirib kesiladi, bundan maqsad butani shoxlatish. Ikkinchi yilning yozida 4-6 ta sog'lom yangi o'sib chiqqan shoxlar shakllanadi va ular butaning asosini tashkil qiladi. Agar bundan ko'p shoxlar shakllansa ular muntazam ravishda kesib turiladi, tanlangan asos shoxlar bilan rivojlanishga halaqit qilmasligi uchun. Ushbu poya shoxlarning yerdan bir metrgacha bo'lgan qismidan chiqqan barcha so'ruvchi novdalar kesib tozalab turiladi. Shu 3-4 ta poyalar shoxlarni qoldirib, barcha boshqa ortiqcha o'simta (so'ruvchi) shoxlar mavsum davomida muntazam tozalab turiladi. Buta rivojlanishining dastlabki yillari so'ruvchi novdalar tozalab turilmasa, ko'p energiya talab qilishi tufayli asos shoxlar bilan raqobatlashadi va asos shoxlarni quritishi mumkin. Tanlangan 3-4 ta asos shoxlar yaxshilab o'rashib shakllanishiga bir necha yil talab qilinadi.



33-rasm. "T" shakldagi 2 simli simbag'azning bog'dagi ko'rinishi



34-rasm. "T" shakldagi 2 simli simbag'azning bog'dagi ko'rinishi

Nazorat savollari:


1. Anorga shakl berishning hosildorlikka ta'sirini izohlang.
2. Anor yer ustki qismining asosiy poyalari har necha yilda yangilanib turiladi?
3. Simbag'az usulida yetishtirishning afzalliklarini ayting.
4. "T" va "V" shakldagi yetishtirish usullarini farqini izohlang.
5. Mulchalashning ahamiyati nimalardan iborat?

VI-BOB. ANORDA OZIQA ELEMENTLARINING YETISHMASLIGI VA O'G'ITLASH

6.1. Anorda oziqa elementlarining yetishmasligi

Anorni o'g'itlash bir qancha ma'suliyatli bo'lib bunda o'g'itlarning samaradorligi va bog'bonning qo'llay olish qobiliyatiga ham bog'liqdir. O'g'itlar yetishmasligi anorning morfologik belgilarida, mevalarining tuzilishi va hajmiga ta'sir qiladi. O'g'itlar o'simliklarning oziqlanish talabiga ko'ra makroo'g'itlar va mikroo'g'itlarga bo'linadi. Oziqaviy moddalar tanqisligida o'simlikda bo'ladigan o'zgarishlar quyidagicha:

Azot (N) yetishmovchiligi: Anor ko'chatlarida eski barglarning umumiy sarg'ayishi (o'simlikning tagida). O'simlikning qolgan qismi ko'pincha och yashil rangda bo'ladi.



35-rasm. Anor barglarida azot yetishmasligi

Fosfor (P) yetishmovchiligi: Fosfor yetishmasligi tufayli o'ziga xos qizil rangga ega bo'lgan anor donalari. Barg uchi kuyganga o'xshab ko'rinadi, keyinroq barglar to'q yashil yoki qizil-binafsha rangga aylanadi.




36-rasm. Anorda fosfor yetishmasligi belgilari

Magniy (Mg) yetishmovchiligi: Eski barglar bargning markazida yashil o'q shaklini qoldirib, cheti sarg'ayadi. Ba'zan bargning uchi ham yashil bo'lib qoladi. Mg zarur element hisoblanadi, ya'ni kamchiliklar eski barglarda birinchi bo'lib paydo bo'ladi.



37-rasm. Anorda magniy yetishmasligi


Rux (Zn) tanqisligi: Shox uchidagi barglari to'pbarg gul shaklidagi bo'lishi mumkin va yangi barglarning tomirlari o'rtasida sarg'ayish paydo bo'ladi.



38-rasm. Anorda rux yetishmasligi belgilari belgilari

Temir [Fe] yetishmovchiligining klassik belgilari: ko'zga ko'rinadigan yashil tomirlar bilan ochiq rangli barg. Fe (temir) - bu harakatsiz element, shuning uchun avval yosh barglarda alomatlar paydo bo'ladi. Jiddiy Fe yetishmovchiligi

bo'lganda yosh barglar kichik va deyarli oq rangga ega bo'ladi. Tuproq nam bo'lganda, Fe kimyoviy holatni o'zgartiradi va o'simlik uchun mavjud bo'lmaydi.



39-rasm. Anor barglarida temir yetishmasligi belgilari

Marganets (Mn) tanqisligi: Mn yetishmasligi asosiy alomatlarining ahamiyatlisi, och yashil tomirlar bilan och rangli barg. Sarg'ish yosh barglar tomirlari orasidan uchraydi, shakli temir bilan bir xil emas. O'simlik qismlari (barglar, kurtaklar, mevalar) qisqarib ketishi. Mn-harakatsiz element, shuning uchun avval yosh barglarda alomatlar paydo bo'ladi.

6.2. Anorni o'g'itlash

Janubiy O'zbekiston stansiyasi (hozirgi M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi) da o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, mevali anor butalari o'stiga o'g'it qo'llash novdalarning o'sishini kuchaytiradi, gullash va meva berish karakterini o'zgartiradi (91). Yangi o'sishni shakllantirishni kuchaytirish novdalar soni va hajmining oshishi tufayli sodir bo'ladi. Nazorat butalar bilan solishtirganda, N 180, P 135, K 90 kg/ga qo'llanilganda, novdalar soni 1,6 marta, umumiy o'sish 2 barobar oshgan. O'g'itlangan vaqtda anor butalari kattaroq va ko'proq tarvaqaylab rivojlanadi.

Yosh mevali butalarni o'g'itlantirishda kalta va uzun urug'chili gullarning soni kamayadi: Dastlab nazorat variantida (o'g'itsiz), uchinchi yilda o'g'itli variantda ko'proq o'stirilgan mevalar paydo bo'ladi. N 180, P 135 va K 90 qo'llanilgan. Meva hajmi va o'rtacha vazni o'g'itlantirilganda ham ortganligi kuzatilgan.

Anorga yuqori miqdordagi o'g'itlar kiritilgan variantda hosildorligi tajribaning birinchi yilida 10,7, ikkinchi yilida 20,5, uchinchi yilida 26,1 kg/ tup yoki nazoratga nisbatan 81,7, 125,8 va 141,9 % ni tashkil etganli qayd etilgan. O'rtacha 3 yil davomida anor plantatsiyalarining hosildorligi 28,5 foizga oshganligi kuzatilgan.

O'g'itlarni qo'llash paytida gullar sonining kamayishi, ehtimol, subtropik o'simlik anorga xos bo'lgan gullashga salbiy ta'sir ko'rsatadigan o'sish jarayonlarining ko'payishi bilan bog'liq. A.Sultonxo'jaev va A.R.Egamberdiyev (161) ham yosh anor tuplarida mineral ozuqalar (azot va fosfor) yetishmagan holda gul ko'payishi yoki aksincha, yuqori miqdorda o'g'itlar qo'llaganda ularning soni kamayganligini qayd etgan. Ko'rinib turibdiki, mineral oziqlanish sharoitlarining yaxshilanishi o'sish jarayonlarining ortishi bilan bir qatorda anor tupining ba'zi fiziologik jarayonlarida ham ma'lum o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, buning natijasida gul hosil bo'lishining intensivligi pasayadi. Ushbu muammoni to'liq hal qilish uchun maxsus tadqiqotlar talab qilinadi.

Uzun urug'chili gullar urug'lantirilganda yaxshi rivojlangan, ko'proq to'la changdonlar hosil bo'ladi, bu tugilishning ko'payishi va mayda mevalar sonining kamayishidan dalolat beradi. Nazorat variantida eng ko'p rivojlanmagan mevalar qayd etilgan, ular ko'p sonli kechki uzun urug'chi gullari tufayli hosil bo'lib, hosilning tijorat qiymatini pasaytiradi.

1950-yilda Janubiy O'zbekiston stansiyasi (hozirgi M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi)da tashkil etilgan tajribada kaliyning anor hosildorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatganligi qayd etilgan. Turli xil navlarda kaliy ta'sirida hosildorlikning o'sishi bir martalik miqdorda 5,6-10,1%, ikki martalik miqdorda 16,7-20,2% va uch martalik miqdorda 20,3-24,0% ni tashkil etgan. Mineral o'g'itlar miqdorini oshirish bilan kaliyni qo'llash ta'siri kamayadi. Kaliyning anor hosildorligiga ijobiy ta'siri Sh.Qo'shaqov (108) tajribalarida ham aniqlangan. O'simliklar to'liq meva berish davriga kirganda, N180, P 135, K 90 kg / ga samarali miqdor hisoblanadi. Bunda navlar bo'yicha o'rtacha hosildorlik

nazoratdagi 179,8 st/ga nisbatan 211,6 s/ga tashkil etdi. O'g'itning uch martalik miqdorini qo'llash mantiqiy emas, chunki hosilning o'sishi ahamiyatsiz.

A.Sultonxo'jaev, A.R.Egamberdiyev (161) ham anor meva berishning dastlabki yillarida to'liq o'g'itlardan (N120, P 90, K 60) foydalanishning yuqori samaradorligini variant bo'yicha dala tajribasida 4 yil davomida o'rtacha hosildorlik nazoratdagi 75,0 st/ga nisbatan 119,4 st/ga tashkil etgan.

Yillar davomida mineral o'g'itlarda anor o'simliklariga bo'lgan ehtiyoj o'zgaradi. Meva berishning dastlabki 4-5 yilida N 120, P 90 va K 60 kg/ga miqdorda to'liq o'g'itlarni qo'llash tavsiya etiladi, to'liq meva berish bosqichida esa - N 180, P 135 va K 90 kg/ga. Unumdorligi past tuproqlarda, ayniqsa yosh bog'larda, o'g'itlar dozasini yozda 50% azot qo'shib, bir yarim baravar oshirish mumkin. Ijobiy ta'sir 20-30 t/ga gumus yoki go'ngni kiritishda kuzatilgan. Bu holda mineral o'g'itlar normasi 30-50% ga kamayishi mumkin. Go'ng bo'lmasa, yuqorida aytib o'tilganidek, siderat ekinlar ekiladi. S.L.Katval, K.L.Chadna go'ngni bahorda, o'sish boshlanishidan oldin, ammoniy sulfatdan esa meva o'sishidan keyin foydalanishni tavsiya qiladi.

9-jadval

Turli xil anor navlarining hosildorligiga mineral o'g'itlarning ta'siri (Kulkov ma'lumoti)

Tajriba variantlari	Qozoqi-anor		Qizil-anor		Achchiq-dona		Navlar bo'yicha o'rtacha	
	st/ga	%	st/ga	%	st/ga	%	st/ga	%
N ₉₀ ,P ₇₀	171,2	102,8	193,8	103,6	195,1	105,4	186,7	103,8
N ₁₈₀ ,P ₁₄₀	181,8	109,2	199,1	106,4	205,8	111,2	195,5	108,7
N ₂₇₀ ,P ₂₁₀	190,5	114,4	219,3	117,2	211,8	114,2	207,2	115,2
N ₉₀ ,P ₇₀ ,K ₄₅	175,8	105,6	205,8	110,0	203,8	110,1	195,1	108,5
N ₁₈₀ ,P ₁₄₀ ,K ₉₀	200,1	120,2	218,4	116,7	216,4	116,9	211,6	117,7
N ₂₇₀ ,P ₂₁₀ ,K ₁₃₅	206,5	124,0	225,1	120,3	225,4	121,2	218,7	121,6

Mevali anor bog'larida bahor davrida mineral o'g'itlarni qo'llashning novdalarining intensiv o'sishi va gul novdalarining ommaviy farqlanishi davrida butalarning oziqlanishini yaxshilaydi, gul rivojlanishi va meva berishni yaxshilaydi.

Yozgi o'g'itlash (azotli o'g'itning yillik normasining 30-50 foizi) joriy yil hosili mevasining o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi va shu bilan birga keyingi yil hosilining shakllanishi uchun asosni yaxshilaydi, ommaviy gullash tugagandan so'ng, iyun oxirida - iyul oyining boshida amalga oshiriladi. Organik, fosforli va kaliyli o'g'itlarning to'liq miqdori va azot miqdorining yarmi yoki 2/3 qismi bahorda, haydashsiz, tuproq tekislangandan so'ng darhol, qolganlari yozda qo'llaniladi. Buning uchun tegishli mashinalar qo'llaniladi (MPV-1 va boshqalar). Mineral o'g'itlarni, ayniqsa fosforli o'g'itlarni kuzgi shudgor vaqtida vegetatsiya davrida qo'llashdan ko'ra samaraliroqdir (156).

Qo'llaniladigan o'g'itlarning aniq miqdorlari va tarkibi har bir alohida holatda ishlatiladigan o'g'itlarga, plantatsiyalarning yoshiga va tuproqning agrokimyoviy tahlili ma'lumotlariga qarab belgilanadi.

Dunyo mamlakatlarda qo'llaniladigan o'g'itlash amaliyotlariga va adabiyotda ma'lumotlarga ko'ra, anor o'g'itlash uchun quyidagi tavsiyalarni hisobga olish kerak:

1. Anorni ozuqaviy dastur bo'yicha sitrus daraxtlari kabi ishlov berish mumkin.
2. O'g'itlash tuproqqa va eng muhimi, barglar tahliliga asoslangan bo'lishi kerak.
3. Barg namunalarini olish va tahlil qilish o'g'itlash qarorlar uchun foydalı vositadir.
4. Meva daraxtlari, shu jumladan, anorzorni samarali boshqarishning eng yaxshi ko'rsatkichi optimal muddatlarda bargidan oziqlantirish zarur.
5. Azot - bu anorlarning o'sishi va samaradorligi uchun zarur bo'lgan eng muhim element bo'lib, vegetativ o'sishi, gullashi va meva olish uchun yetarli miqdorda talab qilinadi. Daraxtlarga yosh paytda ortiqcha azotli o'g'itlash mevali bosqichiga kirishni kechiktirishi va o'simliklar qishki sovuqlarga ko'proq ta'sirchan qilishi mumkin. Azot miqdori haddan tashqari vegetativ o'sishga, meva va sifatni pasaytirishga, meva pishguncha va rangni kechiktirishga olib kelishi mumkin.

Avgustdan keyin o'g'itlamaslik kerak, chunki bu yil oxiriga kelib, yangi o'sishni keltirib chiqarishi mumkin. Kaliy va fosforli o'g'itlarni berish hosildorlik oshishiga yordam beradi. Azot va kaliy mevali daraxtlar, jumladan anor butalari

uchun eng muhim oziq moddalardir. Kaliy hosil, meva hajmi va sifatini aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Fosfor va kaliyni yerga berish yoki barglar tahlilida yetishmovchilikni ko'rsatgan holda qo'llash kerak. Fosfor tuproqning pH qiymati 6 yoki undan yuqori bo'lgan joyda osonlikcha o'zlashtirilmaydi va meva mahsuli juda oz miqdorda olinadi. Shuning uchun muntazam fosfor o'g'itlash zarur emas. Anorning ozuqaviy ehtiyojlarining 2/3 dan qismi kuzda va bahorda, gullash davrida va meva tugish davrida juda ko'p joylarda foydalanish mumkin. Rux ahamiyati va mikroelementlar bilan yaproqdan oziqlantirish samaradorligi azotdan tashqari, rux anor uchun eng ko'p kerak bo'ladigan mikroelement hisoblanadi. Anorda topilgan kamchiliklardan biri ruxdir, bunda barglarning noodatiy sarg'ayib ko'rinadi. Bu mavsumda yoki bahorda va yozning boshlarida barglari rux qo'llanilishi yordamida tuzatiladi. Misol tariqasida dunyo davlatlaridagi o'g'itlash ishlari bilan tanishib chiqamiz:

Isroilda o'g'itlash. Isroilda azot uchun tavsiya etilgan miqdor 200 kg/ga va kaliy (kaliy oksidi) uchun 300 kg/ga. Taxminan 60 kg/ga fosfor (fosfor pentoksidi) tavsiya etiladi. Azot butun sug'orish davri mobaynida o'sish boshlanishi bilan hosildan ikki hafta oldin qo'llaniladi. Biroq, qo'shimcha azotli o'g'itlantirish erta boshlab yetishtirish davrida hosildan keyin beriladi. Kaliy sug'orish mavsumida qo'llaniladi. Fosfor to'liq o'g'it aralashmasi sifatida qo'llaniladi. Fosfor qo'llanish ikki bosqichda bo'ladi: birinchisi mavsum boshida va ikkinchisi oxirida.

Gretsiyada o'g'itlash. Gretsiyada yosh o'simliklar yoshiga qarab va qayta ishlashga qadar 1 daraxtga nisbatan 1 yilida 80-150 kg azot qo'llanilishi kerak. Birinchi yilda o'g'itlash 3-4 miqdorda amalga oshirilishi kerak. Dastlabki o'g'itlash bahorgi o'simlik 15-20 sm bo'lganida sug'orish bilan birga, keyingi 2 yil ichida esa 2-3 dozadan kech qishda o'g'itlash kerak.

Eronda o'g'itlash. Tadqiqotda, Zn o'g'itlash uchun 0,4% nisbatida to'rtta anor navlari Eronning Yazd viloyatida ikki yillik tajriba asosida baholandi. O'rganilgan anor navlari Tog' Gardan, Shahvar Dane Germez, Malas Yazdiy va Zag Ezdi navlari edi. Rux o'g'itlash umumiy meva hosildorligini sezilarli darajada oshirmagan bo'lsada, ammo sifatli hosil sezilarli darajada yaxshilangan. Meva

sharbatlari quruq vazni, zichligi va qattiq moddalar va minerallarning kontsentratsiyasi anorlarni qayta ishlash sanoati uchun meva sifati bo'yicha muhim ahamiyatga ega bo'lgan rux (Zn) ning ildizdan berilishi sezilarli ravishda ko'paydi.

6.3. Anorni o'g'itlashda organik o'g'itlarning ahamiyati va ularning turlari

O'zbekiston Respublikasi dehqonchiligida organik o'g'itlarni keng ishlatish katta ahamiyatga egadir. Respublikamizning sug'oriladigan tuproqlari, ayniqsa, sahro tuproqlarida organik modda, ya'ni chirindi juda kam.

Shuning uchun qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish va tuproq unumdorligini oshirishda, ularni organik moddalar bilan boyitish uchun uni sun'iy ravishda ko'paytirish, o'g'it solish yoki hamma tuproqlarda almashlab ekishni keng joriy etish tavsiya etiladi.

Organik o'g'it qo'llanilganda tuproqning agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalari ijobiy tomonga o'zgaradi, tuproqdagi mikroorganizmlar faoliyat yaxshilanadi va o'simliklarning mo'tadil o'sib rivojlanishi hamda oziqlanish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Organik o'g'itlarga go'ng, kunjara, hayvon qoldiqlari, yashil o'g'itlar, sanoat va shahar xo'jalik chiqindilari, go'ng bazasida tayyorlangan turli xil kompostlar, daraxtlarning xazonlari va ariq loyqalari kiradi. Bularning hammasi mahalliy o'g'itlar hisoblanadi. Organik o'g'itlar tarkibida o'simlik uchun zarur bo'lgan oziq elementlar-azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, oltingugurt va mikroelementlar mavjud.

Tuproqdagi organik moddaning chirishi natijasida karbon kislotasi ajralib chiqadi. Bu kislota tuproqdagi mineral moddalarni eritadi. Tuproqning ustki qismida karbon kislotasining ko'payishi o'simlikdagi fotosintez jarayonini yaxshilaydi. Organik o'g'itlar tufayli tuproqda ko'p miqdorda mikroorganizmlar to'planadi. Ular o'simlikning oziq moddalarini o'zlashtirishni yaxshilaydi. Organik o'g'itlar tuproqda namlikni uzoq vaqt davomida saqlab turishga yordam beradi. Organik o'g'itlar tuproqdagi mikroorganizmlar uchun energetik manba hisoblanadi. Undan tashqari, tuproqqa ko'p miqdorda mikroorganizmlar tushadi. Buning natijasida tuproqqa azot to'plovchi bakteriyalar, nitrifikatorlar, ammoniyfikatorlar

va boshqa guruh bakteriyalarning tuproqdagi hayot faoliyati kuchayadi. Ilmiy tadqiqot institutlarining ma'lumotlariga qaraganda, 30—40 t organik o'g'itlarning parchalanishi natijasida har kuni gektariga o'g'itlanmagan yerlarga nisbatan 100—200 kg karbonat angidrid ko'proq to'planadi.

Organik o'g'itlar mineral o'g'itlar bilan birgalikda to'g'ri nisbatda ishlatilganda, qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi.

Yengil mexanik tarkibli tuproqlarda ozuq elementlarining biologik singdirish qobiliyatini kuchaytiradi va ularni tuproqdan yuvilib ketishidan saqlaydi.

Go'ng. Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan katta va kichik yer egasi bo'lgan fermerlar qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori sifatli hosil olish uchun sog'lom unumdor yerga ega bo'lish hisoblanadi. Bunga erishish uchun mavjud bo'lgan barcha qishloq xo'jaligi amaliyotlaridan foydalanadi.

Tuproq unumdorligini oshirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bu organik o'g'it - go'ngdan foydalanishdir. Bu nafaqat hosildorlikni oshirishning eng amaraali usuli, balki eng qadimgisi hisoblanadi. O'tgan asrning boshlariga qadar go'ng qishloq xo'jaligi ekinlar uchun asosiy o'g'it bolib hisoblangan.

Go'ngning chorva hayvonlarining quyuc va suyuq ajratmalari bo'lib, u o'ziga xos tarkibga va hidga ega. U o'zida o'simliklarning yaxsh o'sib rivojlanishi uchun zarur bo'lgan makro va mikroelementlarning butun majmuasini saqlaydi: kaliy, fosfor va azot, magniy, kremniy, oltingugurt, xlor, ohak va boshqalar.

Qo'llash usuli bevosita go'ng turiga bog'liq. Go'ng saqlanish muddatiga qarab, ularning tarkibi va tuproq unumdorligiga ta'siri o'zgaradi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetarli oziq elementlar bilan ta'minlash uchun yarim chirigan yoki yaxshi chirigan go'ngdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday go'ng zararli bakteriyalardan, zamburug' sporalaridan va begona o't urug'lari va o'simliklar uchun zararli tasir ko'rsatuvchi siydik kislotasi tarkibidagi ammiakdan holi bolgan o'g'itdir.

Go'ng - organik o'g'it, turli hayvonlarning qattiq va suyuq ajralishmasidan

iborat to'shamali yoki to'shamasiz (atala) aralashmadir. Go'ng dehqonchlikda keng qo'llaniladi, dalalarga har xil usullarda sochiladi, shuningdek, kompostlar tayyorlanadi. Go'ngning tarkibi, qo'llash usuli va saqlanishi, qishloq xo'jaligi hayvonlarni saqlash texnologiyasiga bog'liq.

Go'ngning eng yaxshi turlar ot go'ngi, qo'y go'ngi, so'ngra xossalari kamayishi bilan qoramol go'ngi, cho'chqa go'ngi bo'ladi. Qoramol go'ngi, cho'chqa go'ngida juda ko'p suv va ozuqa moddalar mavjud. Yuqoridagilardan tashqari parrandalarning: tovuq, g'oz va o'rdak go'nglari ham muhim ahamiyat kasb etadi. To'shama materiallarining turiga ko'ra, torf go'ngi va parrandaning axlatlari eng yaxshisi, keyin somon, keyin yog'och qipiq, qirindisi va boshqa turdagi to'shamali o'g'itlarga bo'linadi. Saqlash muddati va usuliga ko'ra, eng yaxshisi yangi bo'ladi, keyin yarim chirigan-3-4 oy saqlangandan keyin, chirigan - 6 oy saqlangan va yaxshi chirigan - chirindi - 8-10 oy saqlangan va boshqalar.

Ot va qo'y go'ngi quyruq va suyuq aralashmalarida quruq moddalar, azo fosfor va boshqa elementlar ko'p bo'lganligi sababli saqlash vaqtida tezroq parchalanib, ko'p issiqlik ajralib chiqadi. Bunday go'nglar "issiq" deb ataladi.

Qoramollarning go'ngi (suv miqdori ko'p bo'lganligi va eng muhim ozuqa moddalarining kamligi tufayli) va cho'chqa go'ngi (suv ko'pligi sababli) sekin parchalanadi, uning harorati biroz pastroq bo'ladi. Bunday go'nglar "sovuq" deb ataladi.

Fizik va kimyoviy xususiyatlar. Go'ng - organik o'g'it bo'lib, organik o'g'itlardan foydalanish tuzilmasida katta ulushga ega. U turli hayvonlarning qattiq va suyuq ajratmalari aralashmasidan iborat. Go'ng qishloq xo'jaligi hayvonlarni saqlash usuliga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- To'shamali go'ngi,
- To'shamasiz go'ng,
- Go'ng shaltog'i.

To'shamali go'ng. To'shamali go'ngi hayvonlarning qattiq va suyuq ajralishi va to'shamalardan iborat. Uning tarkibida o'rtacha 25% quruq moddalar va taxminan 75% suv mavjud.

To'shamali go'ng turli uy hayvonlarining qattiq va suyuq ajratmalari va to'shamalaridan iborat. O'g'itning tarkibi, tuzilishi va qiymati hayvon va to'shama materiallari turiga, yem-xashak tarkibiga va o'g'itni saqlash usuliga bog'liq.

Ot va qo'y go'ngi ozuqa moddalari bo'yicha qoramol va cho'chqa go'ngidan ustundir. Hayvonlarni konsentrlangan ozuqa bilan oziqlantirganda go'ngga quruq ozuqa bilan oziqlantirilganga ko'ra nisbatan ko'proq ozuqa moddalari tushadi.

Quyidagi jadvalda somonli to'shamada qo'y go'ngida umumiy azot eng yqori bolib 0,83%ni tashkil qilsa, torfli to'shmada ot go'ngida 0,80% ni tashkil qilganligi berilgan. Demak to'shamali azotga boy hisoblanadi. Har ikki xil to'shamali go'ng kaliyga boy hisoblanadi.

10-jadval

Yangi to'shamali go'ng tarkibi (%) da, hayvon va to'shama turiga bog'liq holda

Tarkibi	Somonli to'shama					Torfli to'shama	
	aralash	Qoramol	Ot	Qo'y	Cho'chqa	Qoramol	Ot
Suv	75,0	77,3	71,3	64,6	72,4	77,5	67,0
Organik modda	21,0	20,3	25,4	31,8	25,0	-	-
Umumiy azot	0,50	0,45	0,58	0,83	0,45	0,60	0,80
Ammoniyli azot	0,15	0,14	0,19	-	0,20	0,18	0,28
Fosfor	0,25	0,23	0,28	0,23	0,19	0,22	0,25
Kaliy	0,60	0,50	0,63	0,67	0,60	0,48	0,53
Kalsiy	0,35	0,40	0,21	0,33	0,18	0,45	0,44
Magniy	0,15	0,11	0,14	0,18	0,09	-	-

Torf to'shamali go'ng somon to'shamali go'ngga qaraganda azotga boy. Go'ngning tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdori tebranuvchan, shuning uchun qo'llash me'yorini to'g'ri aniqlash uchun uning kimyoviy tarkibini bilish juda zarur. Bunda (11-jadval) quyidagi jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanamiz.

Yarim chirigan to'shamali go'ngning kimyoviy tarkibi.

Hayvon turlari	Tabiiy namlikdagi tarkibi								
	Azot		Fosfor	Kaliy	Organik modda	Kul	Namligi	pH	C:N
	Umumiy	Ammiakli							
Qoramol	0,54	0,07	0,28	0,60	21	14	65,0	8,1	19
Cho'chqa	0,84	0,15	0,58	0,62	21	17,4	60,7	7,9	13
Ot	0,50	0,09	0,26	0,59	22,6	8,4	69,0	7,9	21
Qo'y	0,86	0,14	0,47	0,88	28,0	23,0	49,0	7,9	17

To'shamali go'ngi ko'plab mikroelementlarini o'z ichiga oladi. Go'ngdagi mikroelementlarning tarkibi juda xilma-xildir. Go'ng tarkibidagi mikroelementlar miqdori bo'yicha o'rtacha ma'lumotlar "Namlik miqdori 75% bo'lgan to'shama go'ngidagi mikroelementlarning tarkibi" jadvalida keltirilgan.

12-jadval

75% namlikdagi to'shamali go'ng tarkibidagi mikroelementlar miqdori.

Mikroelementlar	20 t go'ngdagi miqdori /g, da		
	Minimum	Maksimum	O'rtacha
Bor	22,5	260,0	101,0
Marganes	375,0	2745,0	1005,5
Kobalt	1,25	23,5	5,2
Mis	38,0	204,0	78,0

Go'ngning mahsuldorligini oshirish va sifatini yaxshilashda to'shamalar muhim o'rin tutadi. To'shamalar go'ngning fizik xususiyatlarini yaxshilaydi, suyuq ajratmani shimadi va ammiakni o'zlashtiradi, bu esa azot yo'qotilishining kamayishiga olib keladi.

Ko'pincha to'shama sifatida donli ekinlarning somonlari va torf ishlatiladi, yog'och qipiqlari va qirindilari esa kamroq. To'shamalar miqdori ortishi bilan

go'ngning to'planishi ko'payadi va saqlash vaqtida azot yo'qotilishi kamayadi.

To'shama sifatida somonning 9-15 sm uzunlikdagi kesmalar ishlatiladi. Torf somonga qaraganda 3-4 marta ko'proq azotni o'z ichiga oladi va singdirish qobiliyati juda yuqori. To'shama uchun namlik miqdori 30-40% bo'lgan organik moddalar parchalanishning 20% dan kamroq qismini o'z ichiga olgan, kam chirigan torfdan foydalanish tavsiya etiladi.

To'shama uchun yog'och qipiqlari va qirindilari kamdan-kam qo'llaniladi, chunki ular go'ng sifatini yomonlashtiradi. Yog'och qipikli va qirindil to'shamali go'ng tarkibida azot kam bo'lib, sekin chirydi.

Chirish darajasiga ko'ra go'nglar quyidagilarga bo'linadi:

- Yangi go'ng. Yangi go'ng ozgina parchalangan massa bo'lib, unda somon o'zining asl rangi va mustahkamligini saqlab qoladi.
- Yarim chirigan go'ng—o'zining dastlabki massasi va organik moddalarining 10–30%ini yo'qotgan bo'ladi. Yarim chirigan go'ngdagi somon to'q jigarrang rangga ega bo'lib, kuchini yo'qotadi va oson sinadi.
- Chirigan (parchalangan) go'ng bir jinsli massa bo'lib, unda 50% boshlang'ich massa va organik moddalar mavjud. Undagi to'shama materiallarining alohida elementlarini aniqlash mumkin emas.
- Chirindi – yumshoq mayin tuproqsimon qoramtir bir xil massa, tarkibida yangi go'ngning boshlang'ich qiymat massasining va organik moddalarning 25% bo'ladi.

To'shamasiz go'ng. To'shamasiz go'ng yarim suyuq go'ng asosan hayvonlarning qattiq ajralishidan iborat. Tarkibida 10-11% quruq moddalar, 89-90% suv bor.

To'shamasiz go'ng – chorva hayvonlarning qattiq va suyuq ajratmalari bo'lib polidispers suspenziyali, ko'pincha suv aralashmali, suyuq oquvchan. To'shamasiz go'ngning suyuq bo'lishligi chorvachilik binolarini tozalashni osonlashtiradi.

Suv tarkibiga qarab, to'shamasiz go'ng quyidagilarga bo'linadi:

- yarim suyuq - 90% gacha suv;

- suyuq - 90–93% suv;
- shaltoq - suv 93% dan ortiq

Go'ng namligining ko'payishi uning hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Masalan, namlik atigi 2% ga oshib, 90 dan 92% bo'lganda moddaning hajmi 25% ga, 4% ga o'sishi bilan - 65-70% ga oshadi. 96% gacha ortganda, moddaning hajmi hajmi 2,5 barobar ortadi. Bu esa ushbu o'g'itni to'plash, saqlash, tashish va qo'llash (utilizatsiya qilish) jarayonida iqtisodiy va logistika sohasida muammolarni keltirib chiqaradi.

To'shamasiz go'ng o'simliklar uchun zarur bo'lgan barcha oziq moddalarni o'z ichiga oladi. Ammiakli azotining miqdori umumiy azotning 50-70% ni tashkil qiladi va bu o'g'it birinchi oziqlantirilgandayoq ekinni to'shamali go'nga nisbatan azotga bo'lgan talabini 2-3 baravar yaxshiroq ta'minlay oladi.

Fosfor va kaliy elementlar miqdori har ikkala go'ngda bir xildir. Biroq, to'shamasiz go'ngning ozuqaviy tarkibi uning suv bilan suyultirilishiga mutanosib ravishda kamayadi. To'shamasiz o'g'itni saqlashda azot sezilarli darajada yo'qoladi. 3-4 oy saqlanganda 10-12% azot yo'qotiladi.

Organik moddalar quruq massaning 70-80% ni tashkil qiladi va C:N nisbati to'shamali go'ngidan sezilarli darajada kichkinadir. To'shamasiz go'ng to'shamali go'ngiga qaraganda tezroq minerallashadi va o'simliklarni barcha oziq moddalar bilan yaxshi ta'minlaydi.

To'shamasiz go'ngning ekinlarga ta'siri to'shamali go'ngga qaraganda ancha qisqaroq. Tuproq gumusining hosil bo'lishda to'shamali go'nga nisbatan 40% kamroq ishtirok etadi. Yangi yarim suyuq to'shamasiz tarkibi -jadvalida keltirilgan.

Go'ng shaltog'i- qimmatli azotli-kaliyli o'g'it bo'lib, samaradorligi bo'yicha mineral o'g'itlardan qolishmaydi. Bu chorvachilik fermalari va go'ng omborlariga oqadigan hayvonlarning suyuq (siydigi) ajratmalari.

To'shamasiz yarim suyuq go'ng tarkibidagi quruq modda va oziqa elementlar miqdori (%).

Ko'rsatkichlar	Qora mol		108 bosh cho'chqa	Qo'y
	10 ming buqacha	2 ming Sigir		
Quruq modda	14,5	10,0	9,8	28,3
Umumiy azot (N)	0,77	0,43	0,72	0,95
Fosfor (P ₂ O ₅)	0,44	0,28	0,47	0,22
Kaliy (K ₂ O)	0,76	0,50	0,21	0,75

Suyuqlik tarkibiga quyidagilar kiradi:

- azot (N) – 0,25–0,30%;
- kaliy (K₂O) – 0,4–0,5%;
- fosfor (P₂O₅) – 0,01–0,06%.

Oziqa moddalarning tarkibi yem-xashak va hayvon turlariga, to'plash va saqlash usullariga qarab farq qilishi mumkin. Azot 0,1-1%, kaliy esa-0,2-1,2% talig'ida bo'ladi.

Tuproqqa ta'siri. Go'ng tuproqqa ikki yo'l bilan ta'sir qiladi - bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bilvosita. Go'ng tuproqni ozuq elementlar azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, oltingugurt, mikroelementlar, karbonat angidrid, turli mikroorganizmlar, organik moddalar bilan boyitadi. Go'ng o'simliklar va mikroorganizmlarning umumiy tizimli uzoq muddatli o'zaro aloqalarini yaxshilaydi, tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlarini va uning donadorligini oshiradi: singdirish qobiliyati, buferlik darajasini, asoslar bilan to'yinganlik darajasi va ozuq elementlarning harakatchan shakllarining tarkibini oshiradi. Bu zabarli elementlar va ularning harakatchan shakllarini (alyuminiy, marganets va boshqalar) tarkibini va kislotaliligini sezilarli darajada kamaytiradi.

Go'ngni turli xil tuproqlarda qo'llash. Go'ng tuproq unumdorligini oshirish uchun to'liq mahalliy organik o'g'it sifatida keng qo'llaniladi.

Go'ngning barcha turlari (to'shamali, to'shamasiz va go'ng shaltog'i)

organik o'g'it sifatida dunyoning barcha tuproq-iqlim sharoitida foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Soz tuproqlar (qora tuproqdan tashqari). Go'ngning parchalanishi sekin, uning ta'siri qo'llashdan keyin 6-7 yilgacha bo'lish mumkin.

Qumoq va qumli tuproqlari (qora tuproqdan tashqari). Go'ng tezda parchalanadi va uning keyingi ta'siri 3-4 yil davom etadi. Oziq moddalar tuproqdan osongina yuviladi. Go'ngni tez-tez, kam miqdorda qo'llash tavsiya etiladi.

Namligi yetarli bo'lgan mintaqalarda go'ngni bahorda sochish tavsiya etiladi. Kislotali chimli podzol tuproqlarda go'ng, ohak va mineral o'g'itlarni aralashtrilgan holda qo'llaniladi.

Cho'l va arid hududlarida go'ngni kuzda qo'llash foydalidir, chunki bahorgi qo'llash uning samaradorligini 1,5-2 baravar kamaytirib yuboradi.

Go'ngning ekinlarga ta'siri. Tuproq unumdorligi va ishlov berishnin yaxshilanishi qishloq xo'jaligi ekinlar hosildorligining sezilarli darajada oshishi va mahsulotlari sifatining yaxshilanishiga olib keladi.

Go'ng yoki mineral o'g'itlarning ekinlar hosildorligini oshirishi yani afzalligi ekinning biologik xususiyatiga va tuproqning turiga bog'liq.

Kislotali tuproqlarda go'ngni qo'llash samarali bo'lsa, neytral va ishqorli tuproqlarda - mineral o'g'itlarni qo'llash samarali hisoblanadi.

Tuproqqa go'ngni solish usullari. To'shamali go'ng asosan kuzda shudgorlashdan oldin solinadi. Bahorgi ekinlarga ham go'ng kuzda haydashdan oldin sochiladi. To'shamasiz go'ng kuzda solinadi. Dalaga oldin somon yoki torf sochiladi va go'ng solinib 8-10 sm chuqurlikda haydaladi, oradan 2-3 hafta o'tgach, kuzgi shudgorlash amalga oshiriladi. Bahorda kuzdan beri dalada qolgan somon ustiga suyuq go'ng sepiladi.

To'shamasiz go'ng o'g'iti sug'orish texnologiyasidan foydalanganda sug'orish suviga qo'shib sharbat sifatida ishlatiladi.

Go'ng shaltog'i asosiy o'g'it sifatida tuproqqa sepiladi, shuningdek torf bilan birgalikda kompost qilish uchun ishlatiladi.

Go'ngni saqlash usullari. To'shamali go'ngni uchta usulda saqlanishi

mumkin:

1. Qattiq (sovuq) saqlash. Go'ng saqlash omboriga yoki dalaga to'planadi. Shibbalash 5-6 m kengligida va 1 m balandlikdagi qatlamlarda amalga oshiriladi va darhol zichlanadi. Shibbaning balandligi 2,5-3,0 m ga yetkaziladi va usti 8-15 sm qalinlikda torf, maydalangan somon yoki tuproq bilan qoplanadi. Shibbalangan go'ngda harorat qishda 15-25° C dan, yozda 30-35° C dan oshmaydi. Sovuq saqlashda organik moddalar, azot va suyuq qismlarining yo'qolishi miqdori minimal holatda bo'ladi. Shibbalangan go'ng qishda 3-4 oyda yarim chirigan go'ngga, 7-8 oyda chirigan go'nga aylanadi.

2. Go'ngni chorva mollari ostida saqlash - zich saqlash variantlaridan biri. Bu usul hayvonlarni dala qo'ralarida, dam oldirish joylarida va chorvachilik binolarida bo'sh saqlashda ishlatiladi. Torf yoki somon butun maydon bo'ylab 30-50 sm qatlam qalinlikda yotqiziladi. Mollarning quyruq va suyuq ajratmalari to'shama bilan aralashadi va tabiiy ravishda zichlashadi. Yuqori qatlamda namlik ortib ketganda yangi to'shamalar sochiladi.

3. Yarim zichlashgan (issiq presslangan) saqlash. Bu usul ser somonli go'ngni chiritish, begona o'tlar urug'ini va oshqozon-ichak kasalliklari patogen hayvonlarni biotermik yo'q qilish uchun ishlatiladi. Ser somonli yangi go'ng balandligi 1 m gacha bo'lgan dastlabki qatlamga yotqiziladi (qishda somon yoki torf bilan qoplangan). 60-70°C (4-6 kun) qatlam ichidagi haroratda go'ng zichlanadi va keyin boshqa qatlam qo'yiladi. Shibbaning balandligi 2-3 m ga yetadi zichlashdan keyin go'ngning harorati yarmiga kamayadi va chirish (parchalanish) da zich (sovuq) saqlashga to'g'ri keladi. Saqlashning bu usulida ko'p miqdorda suyuq go'ng hosil bo'ladi, 1,5-2 oyda yarim chirigan go'ng, 4-5 oydan keyin chirigan go'ng esa hosil bo'ladi.

4. G'ovak (issiq) saqlash. G'ovak (issiq) saqlash go'ngni saqlashning eng samarasiz usuli hisoblanadi. G'ovak (issiq) saqlashda go'ng tasodifiy ravishda to'planadi yani uyumlar hosil qilinadi. Bunda azot va organik moddalar ko'p yo'qotiladi. O'g'it notekis chirydi (parchalanadi) va sifatsiz bo'ladi. Go'ng shaltog'i va go'ngning maksimal yo'qotilishlari kuzatiladi.

To'shamasiz go'ng chorva fermalari yoki dala omborlarida saqlanadi. Chorva fermalari ichidagi omborlar odatda yopiq bo'lib, ularning sig'imi 2-3 oy ichida to'plangan go'ng hajmining 25-40% ni tashkil qiladi. Go'ngning qolgan qismi (75-60%) dala omborlarida saqlanadi. Ular yon tomonlari va pastki qismi qora plyonka qoplamali ochiq chuqurliklarda saqlanadi. Yopiq va ochiq omborlarda saqlanadigan holatlarda ham azotning yo'qotilish bir xil.

Go'ng shaltog'i. Go'ng shaltog'i mahkam yopiq omborlarda saqlanadi. Azotning yo'qolish juda kam, chunki atala ustidagi havo siydikning parchalanishidan hosil bo'lgan karbonat angidrid bilan tezda to'yinadi. Azotning yo'qotilishini yana ham kamaytirish uchun eritma yuzasini texnikada ishlatiladigan moy quyib yupqa qatlam parda hosil qilish orqali amalga oshiriladi.

Xususiyatlariga ko'ra, chirigan o'g'itlar mineral o'g'it sifatida ishlatish mumkindir chunki ulardagi ozuqa moddalar o'simliklar tomonidan oson o'zlashtiriladi, ammo ularning miqdori yangi go'ngga qaraganda 3-5 baravar kam va yangi go'ngga xos foydali xususiyatlariga ega emas.

Parranda qiyi. Parranda qiyi boshqa hayvonlarning go'ngiga nisbata oziqa moddalarga boy bo'ladi. Go'ngga o'xshash tarkibida o'simliklar uchun kerakli bo'lgan barcha elementlarni tutadi. Parranda qiyi tarkibidagi oziq moddalar ularga beriladigan yem tarkibiga qarab juda o'zgaruvchan bo'ladi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida ko'plab parrandachilik fermalari mavjud bo'lib, ularni tozalash tufayli har biridan ko'p miqdorda parranda o'g'iti olinadi, har bir tovuqdan yiliga 6-7 kg, o'rdakdan 7-9 kg chiqindi olinadi. Parranda qiyi, ayniqsa, tovuq qiyi tarkibida azot, fosfor va kaliy ko'pligi bilan oddiy go'ngdan keskin farq qiladi.

Buning asosiy sababi shundaki, parrandachilik fabrikalarida parrandalar tarkibida to'yimli modda ko'p bo'lgan oziqa ratsioni bilan boqiladi. Azot asosan siydik kislotasi tarzida bo'lib, u ammiak va uglevod kislotalari tez ajralishi bilan boshqa organik o'g'itlardan ustun turadi.

Parranda qiyi tarkibidagi oziq moddalar o'simlik o'zlashtira oladigan holda bo'ladi.

Har xil parrandalarning qiyi tarkibida suv va oziqa elementlari miqdori (ho'l modda massasi hisobida %)

Parrandalar turi	N ₂ O	N	P ₂ O ₅	K ₂ O	CaO	MgO	CO ₂
Tovuq	56	2,2	1,8	1,1	2,4	0,7	0,4
O'rdak	60	0,8	1,5	0,5	1,7	0,3	0,3
G'oz	80	0,6	0,5	0,9	0,6	0,3	0,1

Parranda qiyi, shuningdek, makro va mikro elementlarga ham boydir. Masalan, 100 g quruq qiy tarkibida 15-38 mg marganes, 12-29 mg rux, 1-2 mg kobalt, 2,5 mg mis, 367-900 mg temir bo'ladi. Parrandachilik fabrikalarida parranda tagiga quruqlik sifatida bir qator organik materiallar, jumladan, maydalangan poxol, makkajo'xori va g'o'zapoya qirindisi va boshqa narsalar solinadi. Ularning namligi 30% dan oshmasligi lozim. Bitta tovuq uchun har kuni 100-150 gramm, o'rdak, g'oz va kurkaga 200-250 gramm quruqlik ishlatiladi.

Parranda qiyini turli organik moddalar va 3-5% fosfor aralashtirib kompostga aylantirilgan holda saqlash keng ommalashgan usullardan biri hisoblanadi. Bunda azotning yo'qolishi 10% dan oshmaydi. Parranda qiyini qiyxonalarda asrash juda qo'l keladi. Yana bir xususiyatga ko'ra maxsus xandaqda saqlash jarayonida organik moddalarning minerallanish jarayoni yuz beradi. Tuproqda parranda qiyini xo'jaliklarning go'ng almashtirish rejasiga qarab bedazorlar buzilsa, 4-5 yildan keyin kuzgi shudgor oldidan gektariga 10-15 t dan solish tavsiya etiladi.

So'nggi yillarda olib borilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, parranda qiyi qimmatli o'g'it bo'lib, ekinlardan yuqori va qo'shimcha hosil olish imkonini beradi. U hamma ekinlar uchun asosiy o'g'it sifatida kuzgi shudgor oldidan gektariga 4-5 t (quruq) va 15-20 t (tabiiy nam holda) solinadi.

Shahar chiqindilari. Shahar va sanoat chiqindilari o'zimliklarning oziqlanishi uchun muhim organik o'g'it hisoblanadi. Ularga shahardagi o'simlik qoldiqlari, oshxona va uy-ro'zg'or chiqindilari, qog'oz va latta, chang va kullar

kiradi. Bu chiqindilar tarkibida oziq elementlari miqdori ancha ko'pdir. Shahar chiqindisi tarkibida uy-ro'zg'or chiqindilari va chang ko'p bo'lgani sababli u tez parchalanadi. Bunday chiqindini kompostlashtirmasdan undan to'g'ridan to'g'ri o'g'it sifatida foydalanish mumkin.

Agar chiqindilar tarkibida qog'oz, latta va qipiqlar ko'p bo'lsa, uni darhol kompostlash kerak. Yangi yig'ilgan chiqindilarning tarkibida zararli mikroorganizmlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularni to'g'ridan to'g'ri o'g'it sifatida ishlatib bo'lmaydi. Shahar chiqindilari o'z tarkibida (quruq modda hisobida) o'rtacha 0,6-0,7 % azot, 0,5-0,6 % P_2O_5 va 0,6-0,8 % K_2O va bir qancha mikroelementlar saqlaydi.

Shahardagi uy-ro'zg'or va sanoat chiqindilari dehqonchiligimiz uchun qo'shimcha organik o'g'it manbai hisoblanadi. Masalan, Toshkent shahridan chiqqan chiqindi shahardan tashqarida qurilgan biozavodlarda qayta ishlanadi va yiliga 70-100 ming t o'g'it tayyorlanadi.

Respublikamizda bunday chiqindi to'planadigan shaharlarimiz ko'p imkoniyatlarimiz katta. Kelajakda bu raqamni 300 ming tonna va undan ham ko'pga yetkazish mumkin bo'ladi.

O'g'itlarni asosan shahar atrofidagi xo'jalik yerlari va parniklarda ishlatilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tuproq unumdorligini oshirish va yuqori hosil yetishtirishda shahar chiqindilaridan tayyorlangan o'g'itlarni hamma ekinlar uchun kuzgi shudgor oldidan kompostlashtirilmaganidan gektariga 20-60 t, kompostlashtirilganidan 20 t gacha berish mumkin bo'ladi.

Siderat (ko'kat o'g'itlar). Ko'kat o'g'itlar (ko'kat o'g'itlar) - tuproq tarkibini yaxshilash, uni azot bilan boyitish va begona o'tlarning o'sishiga to'sqinlik qilish, haydab tuproqqa aralashtirib yuborish maqsadida ekiladigan o'simliklar.

Odatda sideratlar azot, oqsil, kraxmal, shakar, mikroelementlarga boy o'simliklar bo'lib ko'kat o'g'it sifatida gullab boshlagan vaqtda yoki qisqa vaqt ichida o'sib bo'y cho'zgan vaqtda haydalib tuproqqa aralashtirib yuboriladi, tuproqning yuza qatlamida kompost hosil qilib, tuproqni suv va shamol

eroziyasidan himoyalaydi. O'simlik ildizlari tuproqning granulometrik tarkibini yaxshilaydi, tuproqning suv o'tkazuvchanligini yaxshilaydi, ildiz qoldiqlari bilan chuvalchanglar oziqlanadi va ularning yuzasida azotni fiksatsiyalovchi mikroorganizmlar yashaydi.

Sideratlar yani ko'kat o'g'itlar tez o'sib qalin soya beruvchi zich barglar hosil qilib, begona o'tlarning o'sishini va rivojlanishni sekinlashtiradi. Bundan tashqari, ko'kat o'g'itlarning (don) ba'zi turlari urug'larning unib chiqishini kechiktiradigan biologik faol moddalar ajratadi va bu orqali ham begona o'tlar sonini kamaytiradi. Yaxshi o'sib rivojlangan ko'kat o'g'it o'simliklarning ildiz tizimini, tuproqning donadorligini va suv o'tkazuvchanligini yaxshilashga yordam beradi, tuproq qatlamiga chuqur kirib, o'rta va og'ir sozli tuproqlarni yumshatadi, havo bilan boyitib aeratsiyasini yaxshilaydi, yengil qumloqli va qumli tuproq zarrachalarini yopishtirib sochilishning oldini oladi. Ko'kat o'g'it o'simliklarining ildizlari tuproqning chuqur qatlamlaridan oziqa ementlarni o'zlashtirib tuproqning yuqori qatlamlarida ya'ni ildizning oziqlanish qatlamlarida to'playdi.

Sabzavot ekinlari orasiga ekilgan sideratlar bog' zararkunandalarini o'ziga jalb qilib, qisman chalg'itadi. Ba'zi sideratlar o'simliklar zararkunandalarini o'chirishi mumkin, masalan, turp nematodlarni, xantal – parsha kasalligini o'qotadi. Bundan tashqari, ko'pchilik asalarilar va yovoyi arilarni o'ziga jalb qiluvchi yorqin va nektarga boy gullarga ega, ular oraliq ekinlarni changlatib ularning hosilini oshirishga yordam beradi. Dukkaklilar oilasiga kiruvchi siderat o'simliklar havodagi erkin azotni o'zlashtiruvchi bakteriyalar bilan simbioz holda yashab, atmosferadagi azotni tuproqda to'plab o'simliklar tomonidan o'zlashtiradigan holatga aylantiradi. Ko'kat o'g'itlar tomonidan to'plangan umumiy azot miqdori o'simliklar tomonidan o'zlashtiriladigan azot miqdorining 40-60% ni tashkil qiladi.

Ko'kat o'g'itlar tuproqdagi organik moddalar (biomassa) miqdorini oshiradi va gumus hosil bo'lishni ta'minlaydi. Tuproqdagi mikroorganizmlar faolligini yaxshilaydi, tuproq zamburug' mitseliylarining ko'plab hosil bo'lishiga yordam beradi, tuproq donadorligini oshirib uning aeratsiyasini va suv

o'tkazuvchanligini yaxshilanishiga olib keladi.

Siderat o'simliklar suv eroziyasining oldini oladi, begona o'tlar, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashda ham foyda beradi. Ko'pgina o'simliklar tez o'sib rivojlanish va ildiz tizimining tuproqqa chuqur kirib borish orqali begona o'tlarning o'sishga tasir qiladi va ularga qarshi kurashning samaradorligini oshiradi.

Siderat o'simliklar gullash davrida foydali changlatuvchi hasharotlarni va yirtqich hasharotlarni jalb qiladi, bu asosiy ekinlarning changlanish ko'paytirib hosildorligini oshiradi va insektisidlardan foydalanishni kamaytiradi.

Ko'kat o'g'itli sideratlardan ishqoriy tuproqlarning pH darajasini pasaytirish uchun ham ishlatilishi mumkin.

Siderat o'simliklarning to'rt yuzga yaqin turi borligi fanga ma'lum. Siderat ekilar sifatida quyidagi o'simliklardan foydalaniladi:

Dukkakli sideratlarga – ko'k no'xat, vika, bir yillik lyupin, esparset, searga, no'xat (nut), mosh, beda, burchoq, loviya, soya, yasmiq, seridella va boshqalar. Bularning barchasi sovuqqa chidamli, erta unib chiqadi va ularning ildizlari yerni yaxshi yumshatadi.

Donli siderat ekinlarga- kuzgi bug'doy, tritikale va javdari, bahorgi arpa va suli, jo'xori, sudan o'ti, tariq.

Boshqa oilalarning vakillaridan- siderat sifatida oq xantal, havo rang xantal, kuzgi va bahorgi raps, amaranth, marjumak va gulxayrilardan foydalanish mumkin.

Siderat o'simliklarni tanlashda mintaqaning tuproq iqlim sharoitini hisobga olish kerak. Siderat yani ko'kat o'g'itli o'simliklarni sabzavot yoki manzarali ekinlar qatorlari orasiga, ertapishar ekin sifatida vegetatsiya davri uzoq bo'lgan ekinlar orasiga, mavsumdan tashqari, yozning oxirida yoki kech kuzda ekish mumkin.

Ko'kat o'g'itlar va go'ng tarkibidagi oziq moddalar miqdori, %
(B.A.Yagodin, 1989; X. X. Zokirov, 1998)

O'g'it	N	P ₂ O ₅	K ₂ O	CaO	Ko'k massa, s/ga	Azot, kg/ga
Go'ng	0,50	0,24	0,55	0,70		
Lyupin	0,45	0,10	0,17	0,47		
Qashqar beda	0,77	0,05	0,19	0,97		
No'xat	0,50	0,15	0,50	0,30	130-250	75-130
Shabdar	0,50	0,14	0,50	0,40	180-350	70-140

Ko'kat o'g'it sifatida yetishtiriladigan ekinlardan 350—400 s/ga ko'k poya olinganda, ular tarkibidagi 150—200 kg azot 35—40 t go'ngga ekvivalent bo'ladi.

Ko'kat o'g'itlar tuproqning fizikaviy xossalarini yaxshilaydi. Tuproqdagi 0,25 mm dan katga bo'lgan agregatlar miqdori o'tloqi botqoq, tuproqlarda 3—7, og'ir mexanikaviy tarkibli tuproqlarda 4—9% ga ortadi. Haydalma qatlamdagi tuproq zichligi 0,05—0,1 g/sm³ ga kamayadi. Ular ta'sirida tuproqning o'simlik ildiz tizimi tarqaladigan qatlamidagi harorat 2—4°C ga oshadi, mikroorganizmlar soni ko'payadi va faolligi 45—50 kun davomida maksimal darajada saqlanadi.

Mustaqil hamda oraliq, ekin sifatida ekiladigan ko'kat o'g'itlar farqlanadi. O'ydalanish usuliga ko'ra ko'kat o'g'itlarni 3 guruhga bo'lish mumkin: a) yer usti va ildiz qismi joyida haydab yuboriladigan; b) ko'k poyasi chorva uchun o'riladigan, ildiz va ang'iz qoldiqlari tuproqda aralashtiriladigan; v) yer ustki qismi o'rib, boshqa paykalga sochiladigan.

Ko'kat o'g'itlar odatda sentyabr-oktyabr oylarida ekiladi, kelasi yil bahorda chorva mollari uchun 400—500 s gacha ko'k massa olinadi va qoladigan ildiz hamda ang'iz qoldiqlari tuproqqa qo'shib haydab yuboriladi. Tuproqda tegishli ishlov berilgandan keyin sabzavot yoki texnikaviy ekinlar ekiladi. Ko'kat o'g'itlar hisobiga qumoq tuproqli yerlarda sulidan 4,0—7,7, paxtadan 3—4 s/ga atrofida qo'shimcha hosil olish mumkin.

Biogumus — go'ngdan tayyorlangan sifatli organik o'g'it bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarining barchasiga qo'llash mumkin. Uning tarkibida 40-50 foiz quruq organik massa, 10-12 foiz gumus, 0,8-0,3 foiz azot, 1,3-2,5 foiz fosfor, 1,2-3,9 foiz kaliy, 4,5-8,0 foiz kaltsiy va boshqa mikroelementlar mavjud.

Hududimizda xalqali chuvalchanglar tipining 97 turini uchraydi. Faqat bir necha turigina boqish uchun yaroqli. Chuvalchanglar ko'p urug' hosil qiladi, 20 ta urug'dan 4-5 tasi tirik qoladi. Qizil Kaliforniya chuvalchangi oddiy «yovvoyi» chuvalchangga nisbatan juda faol va serpushtdir. Agar uning ozuqasi yetarli bo'lsa, uyini tark etib ketmaydi. Uzunligi 99 millimetrgacha, tana diametri 3-5 millimetr bo'lib, qulay sharoitda har 7 kunda urug'laydi. Urug'lagandan keyin (20 tagacha) tuxumli kapsula qo'yadi va 14-20 kundan so'ng yangi avlod dunyoga keladi. Yangi tug'ilgan chuvalchanglar 90 kundan so'ng balog'atga yetadi. Qulay sharoitda bir dona Kaliforniya chuvalchanggi 1,5 ming chuvalchangni dunyoga keltirishi mumkin. Bu tur chuvalchang har kuni organik moddalardan o'z vaznig teng ovqat tanovul qiladi. Bir tonna organik chiqindilardan 600 kilogram biogumus va 100 kilogramm oqsilga boy biomassa ishlab chiqariladi.

Qizil Kaliforniya chuvalchangi yordamida biogumus tayyorlash uchun go'ng, begona o'tlar, barglar, daraxt novdalari, yog'och qirindisi, somon, oshxona chiqindilari, o'radagi yuvindilar, qushxona hayvonlar chiqindilari, qog'oz karton va boshqalar chuvalchang ovqatidir. Shunga qaramasdan go'ngni to'plab, 4-5 kun suv sepib turish zarur. Natijada organik qoldiqlar qizib parchalanish jarayoni yuz beradi. Agar biomassa to'plamiga bo'r kukuni, so'ndirilgan ohak yoki dolomit unidan ozgina miqdorda qo'shilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki chuvalchanglar achchiq muhitni yoqtirmaydi. Chuvalchangni binolar ichida ham, ochiq maydonlarda ham boqsa bo'ladi. Biogumus tayyorlash uchun chuvalchangni o'rindiqlarda 30-100 ming tagacha boqish mumkin.

Bir yilda bir o'rindiq (2×1 m) dan bir tonna gumus tayyorlash mumkin. Chuvalchanglar hayoti uchun 40 foiz to'yimli substrat sarflanadi, 60 foiz kopromit shaklida biogumus hosil bo'ladi. Shunday qilib, bir o'rindiqdan yiliga 0,4-0,6 tonna biogumus va 0,1 tonnaga yaqin chuvalchang biomassasi olinadi. Yomg'ir

to'planib ko'lmak hosil bo'lmasligi uchun o'rindiqlar biroz nishab uchastkalarda quriladi. Chuvalchangni, ayniqsa, ko'rsichqondan asrash kerak, ular ashaddiy dushmanidir.

Chuvalchang boqishni qaysi kun va qaysi oyda boshlasangiz ham farqi yo'q. Eng qulay vaqt bahor, kuz va yozdir. Chuvalchanglar ammiak va yuqori haroratga ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli, ovqatlanish uchun faqat fermentatsiyadan o'tgan va sovutilgan go'ngdan foydalanish mumkin. Boshqa organik chiqindilar ham chirishi lozim. Chuvalchang boqish uchun xonaki quyon go'nggi 5-10 kunda, otniki 3-4 oyda, qoramolniki 5-6 oydan so'ng tayyor bo'ladi.

Ovqat kam bo'lsa chuvalchanglar chiqib ketadi, ovqat ko'p bo'lsa, nafas olish va gaz almashinuvi qiyinlashadi. Doimo chuvalchanglarning ko'payishi va rivojlanishini nazorat qilib turish kerak. Chuvalchanglarni qutilarda, balkon, yer to'la, garajlarda ham boqish mumkin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, chuvalchang yordamida organik moddalarni qisqa muddatda o'simliklar tez o'zlashtira oladigan biogumusga aylantirish mumkin. Biogumusning qimmatli xususiyati shundaki, u donador strukturaga ega suv yuvib ketishiga chidamli. Biogumus tarkibida o'simliklarni oziqlantiruvchi noddalar miqdori o'n marotaba ko'p. Deylik, chorvachilik fermasida 500 bosh qoramol saqlansa, undan chiqadigan go'ngdan 200 gektar yerni oziqlantirish mumkin. Shuncha miqdordagi organikani biogumus ishlab chiqarishga sarflansa, 1000 gektar yerni oziqlantirish mumkin. Biogumusni sabzavot va poliz maydonlariga ham qo'llab, ekologik toza mahsulot olish mumkin.

Biogumusni yer haydash oldidan har gektar maydonga 4 tonnadan qo'llash yaxshi samara beradi, tuproq donador bo'ladi, agrofizikaviy va agrokimyoviy xususiyati yaxshilanadi, o'simlik kasalliklari va tuproq zichligi kamayadi, ekinlar hosili 15-20 foizga oshadi. Fermer xo'jaliklari xandaqlarga chuvalchangni ko'paytirsa mahsulot tannarxi arzonlashadi.

Mikrobiologiya sanoatiga tegishli bo'lgan bu kashfiyot, bakteriyalar asosida tayorlanadigan biologik texnologiyalarga ham aloqadordir. Oxirgi yillarda

bu organik chiqindi qishloq xo'jaligi sistemasida va asosan oziq ovqat yetishtirish sanoatida keng ko'lamda ishlatilmoqda.



40-rasm. Biogumus.

Organik moddalar va hayvon chiqindilarining qayta ishlash va ularni bir biri bilan mutanosibligini ta'minlashning eng qulay usullaridan biri bu chuvalchang hazm sistemasidan foydalanishdir. Quticha ichida qayta ishlanmagan ozuqa moddalarini 65-80 % namlik sharoitida yer chuvalchangi bilan birmuncha muddat saqlash orqali maqsadga etish mumkin. Bu jarayon natijasida qutiga solingan ozuqa moddalar va hayvon chiqindisini 20-80 % miqdoridagi ozuq qiymatini saqlagan tayyor hidsiz o'g'it olish mumkin. Sifatli o'g'it olish uchun metr kvadrat maydon uchun 15-25 mingta chuvalchandan foydalaniladi. Aga sizning kompostingizda azot miqdori kam bo'lsa unda kantsentratsiyasi 5 % dan ko'p bo'lmagan machavina aralashtirish mumkin va bu ozuqa vadarod ionlarining aktivligini ta'minlaydi.

Biogumusning qo'llanilishi. Tuproqni yuqori qatlami bilan aralashtirish yoki torfni 1:3 nisbatida chiqarib olish. Biogumus asosan urug'larning o'g'itlash uchun ishlatiladi. Siz quruq biogumusni bog' tuprog'i bilan 2:1 nisbatda aralashtirib ishlatishingiz kerak bo'ladi. ***Biogumusning*** xususiyatlari quyidagilar:

- tarkib nazariyasidan qaraganda biogumus boshqa o'g'itlardan 4-8 barobar kuchli;
- tuproq zichligini kamaytiradi;
- tuproq unumdorligini oshiradi;
- tuproqni organik qorishmalar bilan boyitadi;

- tuproqning mikro floralariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- mikro organik oзуqalar miqdorini keskin oshiradi;
- namlikni yaxshi saqlaydi;
- mexanik jihatdan kuchli granulalardan tashkil topgan;
- o'simliklarning o'sish qobiliyatini 11 – 24 % ga oshiradi;
- tuproq unumdorligi 15 – 25 % kuchayadi;
- eng muhimi hosil 2 hafta oldin tayyor bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Anorda mikroelementlar yetishmasligida kuzatiladigan holatlarni ayting?
2. Azotning anorni rivojlanishi va hosildorligidagi ahamiyatini ayting?
3. Anorga oziqaviy elementlariga bo'lgan talabini mineral o'g'itlar bilanmi yoki organik o'g'itlar bilan to'ldirishning ahamiyatini izohlang.
4. Biogumusning tuproq unumdorligidagi ahamiyatini izohlang.
5. Biogumusning o'simlik rivojlanishidagi ahamiyatini izohlang?

VII-BOB. ANORNI SUG'ORISH

7.1. Anorni sug'orish bo'yicha umumiy ma'lumotlar

Yangi o'simliklarni barpo qilishda muntazam sug'orish talab etiladi. O'simliklar ekilgach, ular muntazam sug'orishni talab qiladi. Gullash va meva pishishi o'rtasida sug'orish muhim ahamiyatga ega, chunki namlik yetishmasligi gul va meva tushishiga, pishish vaqtida meva yorilishiga olib keladi. Garchi anorlar qurg'oqchil va yarim quruq hududlarda o'sib issiqlikni yoqtirsada ular optimal hosil va meva sifatiga erishish uchun ularni quruq mavsum davomida muntazam sug'orish kerak. Anor butalari qurg'oqchilik sharoitlarida nobud bo'lmasligi mumkin, ammo yetarli sug'orishsiz meva sifati va miqdori kamayishi mumkin. Qurg'oqchilik davrida barglar mevaning suv so'rayotgani va mahsulot sifatini pasayishi va buzilish oqibatida yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlash lozim. Umuman olganda, anorlarning suvga bo'lgan ehtiyoji yiliga 900-1000 m³ bo'lishi boshqa sitrus mevalariga o'xshaydi va agar yog'ingarchilik bo'lmasa, butalar kamida har 7 kun ichida sug'orilishi kerak. Vegetatsiya davrida ham tartibsiz sug'orish, kuchli yomg'ir hosilni nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin. Masalan, Isroilda sug'orish odatda aprel oyining oxirlarida boshlanadi va yozda davom etadi va 25 dan 45 tonnagacha hosildorlikka erishgan. Kiprda esa sug'orish odatda aprel oyida boshlanadi va eng issiq oy bo'lgan iyul va avgust oylarida har kungi 1 butaga 60 litrgacha suv berish bilan davom etadi. Hindistonda yoz oylarida haftalik sug'orish amalga oshiriladi.

Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda sug'orish o'simliklarning yaxshi o'sishi va yaxshi meva yetishtirish uchun juda muhimdir. Zarur bo'lgan miqdor gektariga 900-1000 m³ ga teng. Anor odatda, vegetativ davrida 12 marta sug'oriladi. Aprelda 1 marta, May va Iyun oylarida 2 marta, iyul va avgust oylarida 3 marta va sentyabrda 1 marta. Anor navlarining sug'orish darajasining samaradorligi va sug'orishmi vaqti va oralig'ining hosilga ta'siri haqida kam ma'lumotlar mavjud.

Anor bog'ining sug'orish rejimi ekin maydonining agroiqlim sharoiti, tuproqlari, ekinning biologik xususiyatlari, plantatsiyalarning yoshi va boshqa

omillar bilan belgilanadi.

Vegetatsiya davrida yosh bog'larda faol tuproq qatlamining 60-80 chuqurlikda namlanishini, meva pishish davrida 80-180 sm gacha, qumli tuproqlarda 55-60%, qumloqlarda 60-65%, ba'zi tuproqlarda 65-70% namlik chegarasiga ega. Sug'orishning muddati ham ildizning yashash joyidagi tuproq namligini bevosita aniqlash, ham o'simliklarning fiziologik holatiga qarab belgilanadi. Optimal tuproq namligi novdalarning o'sishiga yordam beradi, barglar sonini oshiradi, anor o'simliklarining quruq moddalarini to'playdi.

Anor mevalarining pishishi davrida tuproqning ortiqcha namlanishi yoki qurib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun bir xil va muntazam sug'orishni ta'minlash kerak. Sug'orishdagi uzilishlar o'sishning sekinlashishiga, pishib yetilish davrida - mevalar yorilishining kuchayishiga olib keladi. Namlik yetarli bo'lmasa, meva sifati yomonlashadi. Joriy yilda anorzorda tuproqni quritish kelgusi yilda uning hosildorligini pasaytiradi.

Anor o'simliklarining tuproq unumdorligi va qulay iqlim omillaridan samarali foydalanishida tuproq namligini yetarli darajada ushlab turish alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tuproq unumdorligining oshishi o'simliklar tomonidan namlikdan yanada samarali foydalanishga, quruq moddalarning ko'proq o'planishiga yordam beradi.

Ko'pincha ariqlar orqali sug'orish, suv har ikki tomonida bir yoki ikkita kesilgan jo'yaklar orqali yetkazib berilganda qo'llaniladi. Bir xil miqdordagi jo'yaklar bo'lsa, keng qatorlarga qaraganda tor qatorlar bilan ko'proq suv beriladi. Bog'ni sug'orishning davomiyligi va tezligi qator oralig'ining kengligi va qatordagi butalarning zichligini hisobga olgan holda belgilanishi kerak. Ildizlari tuproqning yuqori qatlamlarida joylashgan yosh o'simliklarning yaxshiroq nobud bo'lmasligini ta'minlash uchun ekish yilida, ayniqsa, birinchi 2-3 oyda, vegetatsiya davrida sug'orilishi kerak. Keyingi yillarda anor ildiz tizimining o'sishi bilan sug'orish soni kamayadi, ular chuqurroq qatlamlarni namlash uchun normalarga ko'ra ko'payadi.

Bog'ni yaratish davrida 12-15 gacha sug'orish quyidagi taxminiy taqsimot

bilan amalga oshiriladi: 1 mart, 1 aprel, 1 may - 1, 3 iyun, 3 iyul, 2 avgust-3, 1 sentyabr – 2-3. O'rtacha sug'orish darajasi 600-700 m³/ga.

Anor plantatsiyalarining yoshi ortishi bilan sug'orish soni kamayib, sug'orish tezligi oshadi. Mevali bog'larda vegetatsiya davrida 8-10 tagacha sug'orish taxminan quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi: 1-may, 1-iyun-2, iyul-2-3, avgust-2, sentyabr-1, oktyabr -1. Sug'orish darajasi 700-900 m³/ga. Bog'ning so'nggi vegetativ sug'orilishi o'rim-yig'imdan keyin kuzda hosilning yaxshi sifatini ta'minlash, shuningdek, butalarni ko'mish ishlarini yengillashtirish uchun beriladi.

Suv ta'minoti yetarli bo'lmagan va qishki yog'ingarchilik kam bo'lgan hududlarda qishda 1200–1500 m³/ga suv to'ldiruvchi sug'orish yaxshi samara beradi. Bir yoki ikkita bunday sug'orish noyabrdan martgacha amalga oshiriladi.

Mevali anor plantatsiyalarida sug'orish soni bog'ning joylashgan joyiga bog'liq. Yer osti suvlari yaqin bo'lgan og'ir tuproqlarda yaxshi hosil olish uchun har bir vegetatsiya davrida 2-3 marta sug'orish kifoya qiladi, yer osti suvlar chuqur bo'lgan qumloq tuproqlarda - 700-900 m³/ga me'yorda 8-10, toshli yerlarda me'yori 400-500 m³/ga, 12 va undan ko'p marta.

Sug'orishni boshlash vaqti bahorda ob-havo sharoitiga, qish-bahor yog'ingarchilik miqdoriga bog'liq. Mevali bog'larda aprel oyida sug'orish odatda amalga oshirilmaydi, lekin ular kam yog'ingarchilik va quruq kelgan yillarda kerak bo'ladi. Qishki yaxob suvi qo'yish ishlari olib borilganda bahorgi sug'orishlar soni kamayadi va sug'orish kechroq boshlanadi.

Birinchi yilda sug'oriladigan jo'yaklar o'simliklar qatorining ikki tomonidagi qatoridan 30-40 sm, ikkinchi-uchinchida-40-50 sm, uchinchi-to'rtinchidan boshlab-50-60 sm qilib qaziladi. Yaxshi rivojlangan va katta unumdor yerlarda butalar kattaligida qatorning har bir tomonida har 60-70 sm oralig'ida ikkitadan jo'yak qaziladi. Sug'orishdan so'ng egatlarni 10-12 sm ga ishlov beriladi. Tuproqning yaxshi namlanishini ta'minlash va suv oqimini minimallashtirish uchun sug'orish sekin oqim bilan amalga oshiriladi.

Meva o'simliklarini, shu jumladan anorni sug'orishning eng samarali usuli

tomchilatib sug'orishdir, unda suvning hisoblangan tezligi shlanglar orqali to'g'ridan-to'g'ri ildiz zonasiga teng ravishda yetkazib beriladi. Shu bilan birga, tuproq yuzasidan bug'lanish, oqizish va chuqurlikka oddiy sug'orishga qaraganda suv sarfi minimal darajaga tushiriladi.

7.2. Anorda suv rejimining mavsumiy o'zgarishi

Suv rejimining holati o'simliklardagi fiziologik jarayonlarning borishini tartibga soluvchi eng muhim omillardan biridir. Havo haroratining ko'tarilishi va hududning qurg'oqchiligi tegishli fenotipik va fiziologik adaptiv reaksiyalarni keltirib chiqaradi, bu esa daraxtsimon va butasimon o'simliklar tomonidan suvdan tejamkor foydalanishga yordam beradi. Bir xil o'sish sharoitida turli xil meva turlarini o'rganish issiqligi va sovuqqa chidamliligi bilan ajralib turadigan boshqa o'simliklar bilan solishtirganda anorning suv rejimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Turiga, namuna olish muddatiga, yil sharoitiga qarab anor barglarining o'rtacha namligi vegetatsiya davrida 55-58 %, anjir 72-74 %, yong'oq 60-62 %, olma 55-57 %. Barglarning namligi kun davomida o'zgaradi. Eng past suv miqdori peshin soatlarida, eng yuqori harorat va eng past havo namligi qayd yetilganda kuzatiladi. Barg namligining eng katta pasayishi (1,7-3,2% ga) odatda issiq va quruq yoz oylarida (iyul-avgust) kuzatilgan. Barglarning namligi botqoqlikka qarab asta-sekin kamayadi, bu barcha tur va navlarda kuzatilgan (O.P.Kulkov; 1983).

Yoshi va joylashuvi bir xil bo'lgan anor barglarida maydan oktyabrgacha 63,9 % dan 54,5 % gacha kamayganligi kuzatilgan. Xuddi shunday hodisa behi va olma daraxtlarida ham qayd etilgan. Barglar, kurtaklarning so'rilishiga chidamliligi va o'simlikning quruq sharoitga chidamliligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Biroq, barglarning suvni ushlab turish qobiliyatining qiymati har doim ham navning qurg'oqchilikka chidamliligi bilan bog'liq emas. Bog'langan suv tarkibining ko'payishi qurg'oqchilik davrida o'simliklarning yuqori suv miqdoriga yoki sovuq paytida muzlamaydigan suv miqdorining oshishiga yordam beradi. Bir necha yil davomida turli mevali daraxtlar ustida olib borgan kuzatishlar shuni

ko'rsatdiki, bargning suv yo'qotish intensivligi may oyida eng past bo'lib, kuzga kelib ortadi (93).

Anor (Qizil-anor navi) boshqa turlarga, shu jumladan subtropik turlarga nisbatan suyuqlikning ko'payishi va shuning uchun barglarning suvni ushlab turish qobiliyatining pasayishi bilan tavsiflanadi. Anor bargining o'rtacha vazni 0,25-0,30 gr, olma 0,7-0,9 gr, anjir 6,9-8,4 gr ekanligi aniqlangan (93).

Barglarning suvni ushlab turish qobiliyati va taqqoslangan mevalarning sovuqqa chidamliligi o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud. Misol uchun, anorda barglarning suvni ushlab turish qobiliyati anjirnikiga qaraganda past, sovuqqa chidamliligi esa yuqori. Yong'oq va olmani solishtirganda ham xuddi shunday hodisa qayd etilgan. Kunduzi suv va barglarda suv tanqisligining paydo bo'lishi turli xil ekologik guruhlardagi o'simliklarda kuzatiladi. Barglardagi suv tanqisligi tuproqning optimal namligi bilan ham sodir bo'lishi mumkin. Barglarning suv tanqisligining ma'lum darajadan oshishi transpiratsiya intensivligining pasayishiga, osmotik bosimning va hujayra shirasining konsentratsiyasining oshishiga, fotosintezning zaiflashishiga va o'sishning sekinlashishiga olib keladi (93).

Suv tanqisligi iyul-avgust oylarida maksimal darajaga yetadi, bu esa bu davrda haroratning oshishi va havo namligining pastligi bilan bog'liq. Kuni davomida eng katta suv tanqisligi peshin soatlarida kuzatiladi va kunning o'rtalarida barglarning to'liq to'yinganligi bilan 2-6% ga oshadi.

Suv tanqisligining eng past ko'rsatkichlari anor va anjirda, eng yuqori - olma daraxtlarida kuzatilgan. Yong'oqda suv tanqisligining kunlik o'sishi anorga qaraganda, ayniqsa vegetatsiya davrining ikkinchi yarmida kuchliroqdir. Buning sababi, anor butalariga qaraganda, katta yong'oq daraxtlarining bargi bilan suv yo'qotilishini ko'mishda bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

O'sish davrida barglarning suv tanqisligining o'zgarishi shuni ko'rsatadiki, subtropik mevalarda (anor va anjir) o'simliklarning suv rejimini tartibga solish mexanizmi mo'tadil mintaqa mevalariga qaraganda quruq issiq iqlim sharoitlariga ko'proq moslashgan (93).

Barg hujayralari shirasining konsentratsiyasi (HShK) RL-1 refraktometrda xuddi shu kun va soatlarda suv tanqisligini aniqlash uchun barglarni tanlash bilan bir vaqtda o'rnatildi. Eng yuqori HShK anor va olma barglarida kuzatildi. Barglarning HShK ning o'rtacha darajasi va vegetatsiya davrida uning dinamikasi biroz sovuqqa chidamli anor va sovuqqa chidamli olma daraxtida taxminan bir xil ekanligi o'tkazilgan tajribalarda aniqlangan (93).

Anor butalari uchun yetarli miqdorda suv ta'minoti fonida, suv rejimining ko'rsatkichlari o'sish sharoitlari va o'simliklarning biologik holatidagi mavsumiy o'zgarishlarga bog'liq. Transpiratsiya ko'plab o'simliklarning normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan funksiyadir. Uning intensivligi integral qiymat bo'lib, u ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi: tuproq namligi, havo harorati va namligi, rivojlanish bosqichi, fotosintetik faollik va boshqalar (93).

L.A.Ivanov va boshqalar (74) turli iqlim qismlarida o'suvchi daraxt turlarida fotosintez va transpiratsiya intensivligidagi farqlar bir qismdagi alohida chuqurchalar orasidagi farqdan ancha yuqori ekanligini ta'kidlaydilar. P.D. Kolesnikova (77) kun davomida transpiratsiyaning sezilarli o'zgarishi bilan uning mezofitlar va kserofitlardagi intensivligi taxminan bir xil ekanligini ko'rsatadi.

1974 yilda O'zbekiston janubida joylashgan Surxondaryo viloyatining Jandixon tumanidagi plantatsiyalarida Qizil-anor nav barglarining transpiratsiyasi aniqlangan (93).

Transpiratsiyaning intensivligi L.A.Ivanov usuli bo'yicha bilan aniqlangan. Umuman olganda, anor barglarining transpiratsiyasi ertalabdan tushgacha ko'proq bo'ladi. Bunda vaqt oralig'i 16-17 soatda, uning intensivligi yil fasliga qarab o'zgaradi. May oyida, havo namligi hali yetarlicha yuqori bo'lsa, havo haroratining pasayishi bilan transpiratsiya kamayadi. Iyul oyida namlikning sezilarli darajada pasayishi va havo haroratining oshishi bilan anor barglarining transpiratsiyasi soat 16-17 gacha o'sishda davom etganligi qayd etilgan (93).

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, kechasi yopilgan barg og'izchalar quyosh chiqqanda, barg og'izcha bo'shliqlarini ochish uchun fotoreaktiv mexanizm ishga tushganda ochiladi. Barg og'izchaning ochilishi bilan anor barglarining

transpiratsiyasi boshlanadi, u asta-sekin tinchlanadi va kunning birinchi yarmida maksimal darajaga yetgan. Kunduzgi, eng issiq vaqt, fotosintetik jarayonning faolligi turli sabablarga ko'ra pasayganda, anor barglarining barg og'izchalari qisman yoki to'liq yopiladi. Barg og'izchaning qisman yopilishi haroratning oshishi yoki havo namligining pasayishi bilan transpiratsiya intensivligining pasayishiga olib kelmaydi. To'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ostida barglarning barg og'izchalari tezroq yopiladi; soyada joylashgan barglarda barg og'izcha yopilishi kuzatilmasligi mumkin. Ertalab soat 8-9⁰⁰ da quyoshda va soyada joylashgan anor barglarining transpiratsiyasining intensivligi bir xil bo'lsa, soat 13-14⁰⁰ da soya barglarining transpiratsiyasi yuqori bo'lishi kuzatilgan. Bu ayniqsa, eng issiq vegetatsiya davri iyul oyida seziladi. 16-17 soatlarda may va iyul oylarida yoritilgan va soyali barglarning transpiratsiyasi intensivligidagi farq kamayadi, sentyabrda yoritilgan barglardagi transpiratsiya soyali barglarga qaraganda ancha yuqori.

Transpiratsiyaning 16-17 soatga oshishi, ehtimol, yuqori havo harorati ta'sirining zaiflashishi bilan bog'liq. D.A.Sabinin (139), T. Kozlovskiy (79), B. Rubin (137) 30-35° C dan yuqori harorat transpiratsiya va fotosintezga salbiy ta'sirini ko'rsatib, kunduzi barg og'izchalarning yopilishiga olib keladi. Bunday haroratlar O'zbekistonda tez-tez kuzatiladi.

Kurtaklardagi suvning tarkibi va holati yil fasliga, anor o'simliklarining holati va o'sish sharoitlariga bog'liq. Kurtaklardagi eng yuqori suv miqdori ularning o'sishi davrida kuzatiladi. Poyaning qalinlashishi va pishib yetilish jarayonida o'sishning to'xtashi bilan ularning namligi pasayib, vegetatsiya oxirida (noyabr oyining boshlarida) minimal darajaga yetadi.

Ko'pgina mualliflar qishga chidamli navlarda suvni yuqori darajada ushlab turish qobiliyatini, shuningdek qishda bog'langan suv miqdorining ko'payishini va kurtaklardagi erkin suvning kamayishini qayd etadilar (128; 81; 11). O'simliklarning suv rejimining ko'rib chiqilayotgan ko'rsatkichlari anorning odatiy kseromezofit sifatidagi xarakteristikasi bilan mos keladi, uning issiqlik rejimi va tabiiy o'sish sharoitlari bilan bog'liq.

Anorning quruq va issiq iqlim qismida o'sishga moslashishi asosan, yuqori harorat va quruq ob-havo sharoitida o'simliklarning normal o'sishini saqlab qolishga yordam beradigan transpiratsiyaning yuqori intensivligi bilan ta'minlanadi. Shu nuqtai nazardan, anor boshqa meva turlariga nisbatan kamroq suv tanqisligiga ega. Shu bilan birga, barglardagi suvning intensivligi barg hujayralari shirasining konsentratsiyasining oshishi sabablaridan biridir.

7.3. Anorni sug'orishda resurstejamkor usullardan foydalanish

Tomchilatib sug'orish yordamida sug'orish usuli. Tomchilatib sug'orish tizimini qurish qimmatroq bo'lsa-da, yaxshi boshqaruv ostida 80-90% suvdan foydalanishning juda yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi.

Anor bog'larda tomchilatib sug'orish usulini qo'llashning ahamiyati. Tomchilatib sug'orish bog', tokzor va ekinlarni sug'orish usullaridan biri bo'lib, bunda suv maxsus tomchilatgich apparatlari orqali tomchi shaklida tuproqqa berilib, o'simlikning ildiz tizimi tarqalgan tuproqni lokal namiqtirishga erishiladi. Tomchilatib sug'orishda o'simlik o'suv davri davomida uzluksiz holda suv bilan ta'minlanib turiladi, suv bilan o'g'itlarni aralashtirib berish imkoniyati mavjud. Sug'orish me'yorini bo'lib-bo'lib berish evaziga tuproqda qulay darajadagi amlikni ta'minlash mumkin.


Tomchilatib sug'orishning afzalliklari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: suvdan tejab foydalanish (1,5-2 marotaba kam); hosildorlikni 20-50% ga ortishi; yerni juda tekis bo'lishiga hojat yo'qligi; yomg'irnatib sug'orishga qaraganda kam xarajat talabligi; muvaqqat sug'orish tarmoqlari qurmaslik va boshqalar. Uning kamchiliklari esa quyidagilardan iborat: tomchilatgich apparat og'izchalarining loyqa bosishi va o'tlar tiqilib qolishi; suvni apparatlar bo'yicha tekis taqsimlanmasligi; quvurlarni kemiruvchilar tomonidan zararlanishi va boshqalar.

O'zbekistonda tomchilatib sug'orishdan foydalanish tarixi va uning samaradorligi. Tomchilatib sug'orish qishloq xo'jaligi amaliyotida qo'llanilayotgan nisbatan yangi sug'orish usuli bo'lib, bunda maxsus filtrlar yordamida tozalangan suv tomchilatgichlar orqali tomchi shaklida tuproqqa berilib, o'simlikning ildiz tizimi eng ko'p tarqalgan tuproq qatlamini lokal

namiqtirishga erishiladi. Tomchilatib sug'orish O'zbekistonda 1975 yildan boshlab tajriba tariqasida bog' va tokzorlarni sug'orishda tatbiq qilina boshlandi. Shu yili SANIIRI ning Jizzax viloyati Zomin tumanidagi tajriba xo'jaligida dastlab 10 ga, so'ngra 200 ga tokzorni, 1977 yilda Xorazm viloyati Xiva tumanida 1,5 ga mevali bog'ni, R.R.Shreder nomidagi BU va VITI da 2 ga bog'ni sug'orish uchun O'zbekistonda ishlab chiqilgan tomchilatib sug'orish tizimi tashkil etildi. 1993 yilda respublikada tomchilatib sug'orish tizimlari maydoni 1134 ga yetkazildi.

Shuningdek, tomchilatib sug'orishni himoyalangan yerlarda keng ko'lamda qo'llash imkoniyatlari aniqlandi. Tomchilatib sug'orish yer yuzasidan va yomg'irlatib sug'orishlarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: o'simliklarning ildiz tizimi tarqalgan tuproq qatlamigina namlantirilishi tufayli sug'orish texnikasining foydali ish koeffitsienti 90–95% ni tashkil etadi (egatlab va yomg'irlatib sug'orishlarda bu ko'rsatkich 70–75% dan ortmaydi); suvdan tejimli foydalanish (odatdagi sug'orishga nisbatan 1,5–2 marta kam); suvning filtratsiya va bug'lanishga eng kam miqdorda bo'lishi; oqova chiqarilmasligi; irrigatsiya eroziyasining yuzaga kelmasligi; qator oralarini zichlanmasdan, doim yumshoc holda bo'lishi; tuproqning qulay namligini ta'minlanishi; o'g'itlarni tuproqqa loka kiritish imkoniyatining mavjudligi; murakkab relyefli joylarda qo'llash mumkinchiligi; hosildorlikning o'rtacha 20–50 % ga ortishi va boshqalar.

Tomchilatib sug'orish tuproqning faol qatlamida namlikni deyarli bir xilda ta'minlab, ekinning bir tekisda o'sib rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi. Bunda tuproqning namqish konturi tuproq sharoitlariga bog'liq holda turlichabo'ladi (41-rasm).




41-rasm. Tomchilatib sug'orishda tuproqning namqish konturi:

a –og'ir tuproqda; *b* - yengil tuproqda.

Sug'orish suvi bosim ostida quvurlar tarmog'i orqali har bir o'simlikka yoki o'simliklar qatoriga uzatilib, o'suv davri davomida o'simliklarni suvga ehtiyojiga muvofiq kerakli miqdordagi suv bilan ta'minlab turiladi. Bunday tizimlarda suv bilan birgalikda mineral o'g'itlarni eritilgan holda tuproqqa berish imkoniyati mavjud.

Tomchilatib sug'orishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ushbu tizimda tuproqning namligi va unga berilayotgan suv to'liq boshqariladi. Sug'orish suvi o'sib rivojlanish davrlari bo'yicha ekinning ehtiyojiga muvofiq dala bo'ylab bir tekisda yetkazib beriladi va tuproqning namligini ta'minlaydi. Tomchilatib sug'orishda tuproq namligi doimo namlikning quyi va yuqori chegarasi o'rtasida bo'ladi. Egatlab sug'organda esa tuproq namligi ko'rsatkichi me'yorida ortiq bo'lib ketishi yoki o'simlikning so'lish namligi chegarasiga tushib qolishi mumkin.


Tomchilatib sug'orish usuli qator afzalliklar bilan bir qatorda quyidagi kamchiliklardan holi emas: tizimni barpo etishga asosiy xarajatlarning nisbatan ko'pligi; quvur va tomchilatgichlarni suvdagi yirik qo'shilmalar, kimyoviy irikmalar bilan ifloslanishi va suv o'tkazmay qo'yishi; suvni dala bo'ylab bir tekisda taqsimlanmasligi; sug'oriladigan dala mikroiklimini boshqarish mumkinchiligining yo'qligi; bog' va tokzorlarni qayta barpo etishda tizimni yangidan qurish lozimligi va boshqalar.



42-rasm. Egatlab va tomchilatib sug'orishlarda tuproq namligining boshqarilishi.

Tomchilatib sug'orishni suv resurslari bilan kam ta'minlangan qurg'oqchil mintaqalarda, boshqa sug'orish usullarini qo'llash mumkin bo'lmagan murakkab relyefli yerlarda, sug'orish suvi chuchuk yoki kam minerallasgan va suv o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan yengil qumoq, qumli sho'rlanmagan tuproqlarsharoitlarida qo'llash tavsiya etiladi. Bunday sug'orish tizimini chuchuk sizot suvlari 2 m. dan, minerallasgan sizot suvlari 4 m. dan chuqurda bo'lgan sho'rlanmagan va nishabligi 0,05 dan katta yerlarda barpo etish maqsadga muvofiqdir.

Mevali bog'larda tashkil etilgan tomchilatib sug'orish tizimining tarkibiy qismlari. Tizim quyidagi asosiy tarkibiy elementlardan tashkil topgan: suv olish va tozalash inshootlari, nasos stansiyasi, o'g'itlarni aralashtirish qurilmasi, sug'orish tarmog'i, aloqa liniyalari, avtomatlashtirish tizimi, ihota daraxtlari, dala yo'llari va boshqalar (43-rasm). Sug'orish tarmog'i polietilen yoki asbest sementdan tayyorlangan suv uzatish magistral quvuri, taqsimlash quvurlari, polietilendan tayyorlangan egiluvchan sug'orish quvuri va tomchilatgichlardan iborat bo'ladi.



43-rasm. Tomchilatib sug'orish tizimining sxemasi:


1 - suv olish uzeli; 2 - bosim hosil qiluvchi uzeli; 3 - bosh surma klapan; 4 - filtr; 5 - suv o'lchash qurilmasi; 6 - manometr; 7 - aloqa liniyalari; 8 - o'g'itlarni aralashtirgich, uzatgich; 9 - magistral quvur; 10 - taqsimlash quvuri; 11 - masofadan turib boshqariluvchi surma klapan; 12 - sug'orish quvurlari; 13 - suv chiqargich-tomchilatgich; 14 - sug'orish muqarrarligini aniqlovchi datchik; 15 - boshqarish pulti.

Nasos stansiyasi (qurilmasi) sifatida, odatda, ichki yonuv dvigatellari yordamida ishlovchi (motopompalar) va elektr nasoslardan keng foydalaniladi.

Tomchilatib sug'orish tizimida elektr nasoslarni qo'llash imkoniyati bo'lmagan yoki ulardan foydalanish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan hollarda motopompalardan foydalaniladi. Nasos stansiyasining quvvati (m /soat) sug'oriladigan maydonning suvga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira oladigan va tomchilatib sug'orishtizimining mo'tadil ishlashi uchun zarur bo'lgan bosimni (mPa) vujudga keltira oladigan holda tanlanadi. Aksariyat tomchilatib sug'orish tizimlari uchun suvning filtrlash inshootiga kiradigan qismida 2-3 atm (20-30 mPa) bosim hosil qiladigan nasos qurilmalari turi qo'llaniladi. Tanlangan nasos qurilmasi sug'orish tizimining eng uzoqda joylashgan qismida zarur bosimni hosil qila olishi lozim. Tizimda kamida 2 ta nasos qurilmasi (asosiy va zaxira) bo'lishi ko'zda tutiladi. Agar suv manbai ekinzordan ancha balandda joylashgan bo'lsa nasos qurilmasidan foydalanmaslik imkoniyati mavjud. Chunki suv o'zining og'irligi bilan ekinzorga oqib tushishi mumkin. Nasos qurilmasi yetarlicha bosim hosil qila olmasa sug'orish tizimining eng uzoqda joylashgan qismiga suv yetkazib bera olmaydi. Bu esa o'z navbatida ortiqcha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Asosiy nasos qurilmasi ishdan chiqadigan bo'lsa zahiradagi nasos qurilmasidan foydalansh mumkin bo'ladi. Buning natijasida tarmoqdan suvning uzilib qolish xavfini kamaytiradi.


Suvni filtrlovchi stansiya (qurilma) tomchilatib sug'orishtizimi faoliyatining samaradorligi va uzoq muddat ishlashini ta'minlaydi. Suvni tozalashda turli filtrlardan (sug'orishsuvini qisman yoki to'liq tozalovchi) foydalaniladi. Qo'llaniladigan filtrning turi manbadagi suvning sifatiga bog'liq holda tanlanadi. Suvni qismantozalovchi filtrlar, asosan, qumli filtrlar (diametri 1,2-2,4 mm bo'lgan qum) ko'rinishida bo'lib, ular suvdagi yirik zarrachalarni tutib qoladi. Suvni to'liq tozalovchi filtrlar to'rtli yoki diskli filtrlar ko'rinishida bo'lib, ular suvdagi mayda zarrachalarni tutib qolish uchun xizmat qiladi. Filtrlar ham qo'lda, ham avtomatik yuviladigan bo'ladi. To'rsimon filtrlar suvdagi qum va yirik dispers zarrachalarni, donador filtrlar esa organik va mineral mayda va yirik dispers zarrachalarni tutib qoladi. Sug'orish uchun yerosti suvlari ishlatilganda to'rtli yoki diskli filtrlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Har bir alohida sharoit uchun tozalach inshooti tegishli texnik-iqtisodiy hisoblar va variantlarni taqqoslash orqali tanlanadi. Filtrning shag'al qatlami suvni teskari oqizish bilan yuvib turiladi. Filtrni yuvish muddatlari oralig'isuvning tozaligi va qancha ko'p oqib o'tayotganligiga bog'liq. Suv qanchalik loyqa bo'lsa filtrni tez-tez yuvib turish talab qiladi. Odatda filtrlar sutkasiga kamida ikki marotaba yuviladi.



44-rasm. Sug'orish suvini tozalovchi qumli filtrlash qurilmasi.

O'g'itlarni tayyorlash va suvga aralashtirish moslamasi tomchilatib sug'orish tizimining ajralmas qismi hisoblanib, hozirgi kunda «Venturi» tipidagi injektor, o'g'itlovchi idish va dozatron (miksrayt, agrorayt va b.) moslamalar keng qo'llaniladi (5-rasm). «Venturi» moslamasi bosim o'zgarishi hisobiga ishlaydi va, odatdapolimer materialdan tayyorlanadi. Injektor tizimning o'g'it beruvchi moslamasiga o'rnatiladi. O'g'it eritmasini sug'orishsuviga bir tekisda qo'shilishini ta'minlaydi. O'g'itlovchi idish yopiq tipdagi idish bo'lib, uningkiruvchi va chiquvchi jo'mraklari idishga suv kirish va undan o'g'it aralashmasini chiqarilishi uchun xizmat qiladi.



45-rasm. «Venturi» tipidagi injektor o'g'it eritmasini sug'orish suviga bir tekisda qo'shilishini ta'minlaydi

Tomchilatib sug'orish tizimining quvurlari magistral (bosh) va tarqatuvchi quvurlarga bo'linadi. Magistral quvur sug'orishga beriladigan suvni nasos stansiyasidan taqsimlash quvurlarigacha yetkazib berish uchun xizmat qiladi. U zanglamaydigan turli xil materiallardan tayyorlanadi. Magistral quvur zarur miqdordagi suvni o'tkaza olish va yuqori bosimda ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Odatda, diametri 110 va 75 mm bo'lgan quvurlardan foydalaniladi. Quvurlar, aksariyat hollarda, tuproq ostiga (0,5 m. gacha chuqurlikda) yotqiziladi (46-rasm).



46-rasm. Magistral quvur va uni tuproq ostiga joylashtirish

Bosim rostlagichi tizimda bosim ortib ketishi va gidravlik zarba yuzaga kelishini oldini olish uchun bosimni kamaytirish va bir xilda tutib turishga xizmat qiladi. Ular gidravlik ko'rinishda yoki prujina tipida bo'lishi mumkin. Bosim rostlagichlar taqsimlash quvuridan oldin o'rnatiladi va ular avtomatik tarzda ishlaydi. Bosim manometr yordamida nazorat qilib turiladi. Taqsimlash (tarqatuvchi) quvurlari suvni magistral quvurdan tomizgichli shlanglarga yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Ular, odatda polietilendan tayyorlanadi va ichki diametri (32 mm dan 75 mm. gacha) zarur miqdordagi suvni o'tkaza oladigan holda tanlanadi. Taqsimlash quvurlari 0,7-1 m chuqurlikka, sug'orish quvurlari esa yer usti yoki tuproq ostiga joylashtiriladi. So'nggi vaqtlarda Leyflet tipidagi egiluvchan quvurlardan keng foydalanilmoqda.

Ular issiq va sovuqqa chidamli, 5 yildan ortiq xizmat qiladi va 4 atm. bosimga bardosh beradi. Mazkur quvurlar mavsum boshida ekin dalasida yer ustiga yotqiziladi va mavsum tugallanishi bilan yig'ishtirib olinadi.




47-rasm. Magistral quvurga taqsimlash quvurini ulash




48-rasm. Layflat tipidagi egiluvchan quvur


Tomizgichli shlanglar suvni taqsimlash quvuridan ekin ildizigacha yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Tomizgichli shlanglar polietilen materialdan tayyorlanadi va uning diametri suv sarfiga qarab tanlanadi. Amaliyotda diametri 20, 16 va 12 mm bo'lgan shlanglar va tomizgichli lentalar keng qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda quyidagi turdagi tomizgichli shlanglarda foydalanilmoqda: tomizgich shlangning tashqarisiga yoki shlangni qirqil o'rnatiladigan; tomizgich shlangning ichiga o'rnatiladigan va tomizgichli lentalar. Tomizgichli shlanglar yer ustiga joylashtirilganda bog' va tokzordagi qatorlar yo'nalishi bo'ylab 0,5-0,7 m balandlikda shpalera o'rnatiladi yoki daraxtga osib qo'yiladi. Ikkinchi holatda qator yo'nalishi bo'ylab yer ustiga yotqizib chiqiladi. Yangidan barpo etilayotgan bog' va tokzorlarda 0,5 m. dan kam tomchilatib sug'orish tizimlari ularda qo'llanilayotgan tomizgichlarning turi bo'yicha farqlanadi. Quyidagi turdagi tomizgichlar qo'llanilib kelinmoqda: suv bosimini kamaytiruvchi labirintli va spiral kanalli hamda membranali- kompensatorli tomizgichlar. Shlangga ornatilishiga ko'ra shlangni qirqib ornatiluvchi, shlangni teshib ornatiluvchi va shlangning ichiga o'rnatiluvchi tomizgichlar farqlanadi (49-50-51 rasmlar).



49-rasm. Shlangni teshib o'rnatiluvchi Moldova-1 mikrosuvchiqargich-tomchi- latgichi: 1 -korpusi; 2 - drossel; 3- shayba-qistirma;4 – qopqog'i.



50-rasm. Shlangni qirqib o'rnatiluvchi tomizgichlar



51-rasm. Shangni ichiga o'rnatiluvchi tomizgichlar


Membranali-kompensatorli tomizgichlar ko'p maqsadlarda, po'kak-suzgich (poplavok)li tomizgichlar asosan loyqa suvdan foydalanilayotgan sharoitlarda ishlatiladi. Yengil tuproqli yerlarda 1-4 m radiusda dispers sug'orish uchun mikrouchlik-purkagichlar, keng qator oralikka ega bog'larda 4-5 m radiusda sug'orish uchun mikroyomg'irlatgichlar qo'llaniladi. Moldaviya-1A (suv sarfi 4-8 l/sek.), Vodpolimer-3 (5 l/sek.), Tavriya-1 (7-10 l/sek.), Gornaya (1,5-2,5 l/sek.), KU-1(4 l/sek.), K-383 (5 l/sek.), Uzgiprovozoz-2, Bo'ston-1, Bo'ston-2, Bo'ston-3 kabi konstruksiyadagi tomizgichlar qo'llanilib kelingan. Tomizgichlar 1,5-2,0 kg/sm bosim ostida ishlaydi, 2,0-24 l/soat suv sarfiga ega. Ular diametri 16 mm bo'lgan tomizgichli shlanglarga biri-biridan ma'lum masofada (20, 25, 30, 50 sm.

dan 6 m. gacha) o'rnatiladi. Bog'larni sug'orish uchun sarfi 2,0 l/soatga teng tomizgichlar shlangning daraxt tanasi atrofida 2-3 tadan bir-biridan 25-50 sm masofada o'rnatiladi, shlangning qatordagi daraxtlar orasidagi qismiga o'rnatilmaydi. Suv sarfi katta bo'lgan tomizgichlardan foydalanilganda har bir daraxt tanasi yoniga 1-2 dona tomizgich o'rnatiladi. Shlang devorining tashqi qismiga yoki shlangni qirqib o'rnatiladigan tomizgichlar ko'p yillik daraxtlarni sug'orishda qo'llaniladi.

Shlangning ichiga o'rnatiladigan tomizgichlar mevali daraxtlarni va bir yillik ekinlarni sug'orishda foydalaniladi. Bunday tomizgichli shlanglar zavod sharoitida tayyorlanadi. Ulardan ko'p yillik ekinlarni sug'orishda foydalanishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tomizgichli lentlardan bir yillik ekinlarni sug'orishda foydalaniladi. Bunday shlanglarda tomizgichlar orasidagi masofa 10-50 sm ni tashkil etadi, tomizgichlar tizimdagi bosim 0,3 atm. bo'lgandayoq mo'tadil ishlay boshlaydi. Tomizgich tirqishli ko'rinishda hosil qilingan va shu bois uni tuproq orasida ham ishlatish mumkin. Ularning suv sarfi 0,5; 0,75; 1,0 va 2 l/soat miqdorida bo'ladi. Tomizgichli lentalarining kvingil (0,6-0,7 atm. bosimda ishlovchi), gidrolayt (0,5 atm.), akvagol (0,1 atm. bosimdayoq ishlovchi) turlar mavjud.

Mevali bog'larda tomchilatib sug'orish tizimlarini qurish, ishgatushirish va undan foydalanish. Tomchilatib sug'orishtizimlari tuzilgan loyiha asosida quriladi (montaj qilinadi). Quvurlar tomchilatib sug'orishtizimi sxemasiga mos ravishda uchastkaga yoyilib, yerga yotqizib qo'yiladi. Quvurlar shunday holatda to'liq to'g'rilangunga qadar (20-25 s yoki 1 sut.) yotishi lozim. So'ngra magistral quvurlarning taqsimlash quvurlari ulanadigan nuqtalarida taqsimlash tuguni uchun teshik ochilib, u yerga uchlik, shtutser va suvni ochib-yopuvchi mexanizmlar (ventil, soqqali kran va boshqalar) ulanadi (12-rasm). Taqsimlash tugunining chiqish joyiga taqsimlash quvurlari ulanadi. Taqsimlash quvurining tomizgichli shlanglar ulanadigan nuqtalarida quvurning yon tomonidan qirindi hosil qilmaydigan maxsusteshikochqichlar yordamida diametri 12 mm bo'lgan teshiklar ochiladi va ularga shtutser- drossellar ulanadi. Teshik-ochqich ichki diametri 12

mm bo'lgan po'lat quvurdan tayyorlab olinishi mumkin.



52-rasm. Namangan viloyati Yangi qo'rg'on tumanidagi "Isabayev Nurmira" fermer xo'jaligida mevali bog' uchun loyihalashtirilgan tomchilatib sug'orish tizimi.

Magistral quvur va taqsimlash tugunlari yer yuzasidan 0,25 m chuqurlikka joylashtiriladi. Shlangdagi suvni boshqarish vaqtida qiyinchilik tug'dirmasligi uchun taqsimlash tugunlari yog'ochdan tayyorlanadigan 0,5x0,5 m o'lchamdagi qopqoqli qutiga joylashtirilishi lozim. Tomizgichli shlanglar taqsimlash quvuriga doim perpendikulyar holatda yotqiziladi. Shlanglar taqsimlash quvurining bir yoki ikkala tomoniga ham yotqizilishi mumkin. Bir yillik ekinlar yetishtiriladigan alalarda tomizgichli shlanglar egatning tubiga yotqiziladi, tokzorlarda esa shpaleralardagi eng pastki simga ilib qo'yiladi. Taqsimlash quvuriga shtutser-drossel o'rnatilgandan so'ng unga egat bo'ylab yotqizilgan tomizgichli shlang ulanadi va shtutserning gaykasi bilan qotirib qo'yiladi. Bunda tomizgichli shlang tarang tortilib qolmasligi kerak. Taqsimlash quvuri va tomizgichli shlanglarning oxiri tiqinlar bilan berkitib qo'yiladi yoki quvur yohud shlang buklanib, bog'lab qo'yiladi. Tomchilatib sug'orish tizimlari ishga tushirilishidan oldin yaxshilab yuviladi. Buning uchun tizimga suv berilishidan avval quvur va shlanglarning oxiridagi tiqinlar olinib, ular ochib qo'yiladi. Birinchi modulning taqsimlash tuguni ochilib, taqsimlash quvuri bosim ostida yuvilgandan so'ng uning oxiri tiqin (zaglushka) bilan yopiladi. Bunda suv tomizgichli shlanglarga qarab oqadi va

ulardan oqib chiqqa boshlaydi. Suv shlanglardan 3-5 min. oqqanidan so'ng, ishlab turgan holatida ularning oxiri birma-bir yopib chiqiladi. Shundan so'ng suv oqib chiqayotgan hamma joylar berkitib chiqiladi. Taqsimlash quvuri va tomizgichli shlanglarning oxiri tiqinlar bilan berkitib qo'yiladi yoki quvur yohud shlang buklanib, bog'lab qo'yiladi.

Tomchilatib sug'orishtizimlari ishga tushirilishidan oldin yaxshilab yuviladi. Buning uchun tizimga suv berilishidan avval quvur va shlanglarning oxiridagi tiqinlar olinib, ular ochib qo'yiladi. Birinchi modulning taqsimlash tuguni ochilib, taqsimlash quvuri bosim ostida yuvilgandan so'ng uning oxiri tiqin (zaglushka) bilan yopiladi. Bunda suv tomizgichli shlanglarga qarab oqadi va ulardan oqib chiqqa boshlaydi. Suv shlanglardan 3-5 min. oqqanidan so'ng, ishlab turgan holatida ularning oxiri birma-bir yopib chiqiladi. Shundan so'ng suv oqib chiqayotgan hamma joylar berkitib chiqiladi.

Modul to'liq yuvilib, undan suv oqib chiqib ketmayotganligi tekshirib chiqilgandan so'ng tizimdagi bosim o'lchab ko'riladi: har bir tomizgich shlangning oxiridagi tiqin olinib, uning o'rniga shkalasi oralig'i 0,05 kg/cm² bo'lgan manometr qo'yib ko'riladi. Manometrning ko'rsatkichi daftarga qayd qilib boriladi. Bunda modul shlanglaridagi bosimlar 5% dan ortiq farq qilmasligi kerak. Zarur hollarda tomchilatib sug'orish tizimining har bir shlangidagi bosim drossellarning diametrini o'zgartirish orqali rostlanadi. Bosimini rostlash, odatda, eng uzoqdagi shlangdan boshlanadi. Tomchilatib sug'orishtizimining boshqa modullarida ham xuddi shunday tekshirish va rostlash ishlari o'tkaziladi.

Tomchilatib sug'orish tizimlarini ishlatishda uning germikligiga asosiy e'tibor qaratiladi va u doimiy ravishda tekshirib turiladi. Agar tizimning biron bir joyidan suv oqib chiqayotgan bo'lsa u darhol bartaraf etilishi lozim. Aks holda suv va o'gitlar dalaning barcha nuqtalariga bir xilda yetkazib berilmaydi. Tomchilatib sug'orishtizimlari har oyda 2 marta yuvib, tozalanib turilishi lozim. Buning uchun shlanglarning oxiridagi tiqinlar navbati bilan 3-4 sek.davomida ochib qo'yiladi.

Tizim shlanglarida qotib qolgan tuzlarni eritish va yopishgan suv o'tlarini chiqarib yuborish uchun mavsum davomida quvur va shlanglarga 1-2 marta nitrat

kislotasining 0,5% li eritmasi yuboriladi va 15-20 s. dan keyin har bir modul toza suv bilan yuvib tashlanadi. Mavsum oxirida esa tizimga nitrat kislotasining 2-3% li eritmasi bilan ishlov beriladi va tomizgichli shlanglar shtutser-drossellardan ajratiladi hamda ularning o'rniga qopqoqlar kiydiriladi. Tomizgichli shlanglar daladan yig'ib olinib, omborlarga saqlash uchun qo'yilishidan oldin ularga xlorid kislotasining 1-3% li eritmasi bilan ishlov beriladi. Tizimning barcha kranlari mavsum oralig'ida ochiq holda qoldiriladi va mavsum oldidan ular yaxshilab yuviladi.

Nazorat savollari:

1. Anorni vegetatsiya davrida necha marta sug'orish kerak?
2. Anorni sug'orish qaysi oylarda necha martadan qo'llanilish kerak?
3. Anorni sug'orishda boshqa qanday innovatsion usullardan foydalangan ma'qul?
4. Tomchilatib sug'orish tizimining sxemasini izohlang.
5. Mevali bog'larda tomchilatib sug'orish bo'yicha misollar keltiring.

VIII-BOB. ANORNI ZARARKUNANDALAR VA KASALLIKLARDAN HIMOYA QILISH

8.1. Anor zararkunandalari turlari va ularga qarshi kurash choralarini

Hamma o'simliklar kabi, anor butalari kam turli bog'imoyoqli zararkunandalar tomonidan shikastlanadi. Bu bog'lanish tarixiy evolyutsion qonuniyatlarga bo'ysungan holda, vujudga kelgan. Misol uchun, o'tgan asrda bu masala bilan shug'ullangan olimlar anorning zararkunandalari sifatida hozirda o'z ahamiyatini yo'qotgan hasharot va o'rgimchakkanalarni ko'rsatib o'tganlar. O'zbekistonda V.V. Yaxontov, Qirg'izistonda L.S. Krivosheva, Kavkazda B.S. Rozanov, Ozarbayjonda A. Samedov, Turkmanistonda T.A. Krasilnikovalarning ko'rsatishicha, anorda 30 dan ortiq hasharot va o'rgimchakkana uchraydi. Bularning ichida qalqondorlardan boshlab, shira, komstok qurti, o'rgimchakkana va boshqalar mavjud. Ammo anor mevaxo'ri ikkilamchi bir hasharot sifatida ko'rsatilgan.

Anordan yuqori va sifatli hosil olish hamda ularga bo'lgan aholi ehtiyojini qondirish uchun bu daraxt va uning mevasini turli zararli organizmlardan himoya qilish zarur. Chunki anor daraxtining ildizidan tortib bargining uchigacha shifobaxsh hisoblanadi. Shu asnoda mutaxassislariga yaxshi ma'lumki, anorning daraxtsimon butasiga asosan quyidagi hasharotlar zarar keltiradi: shira (*Aphididea*), komstok qurti (*Pseudococcus comstoci* Kuw) va anor mevaxo'ri (*Euzophera punicaella* Mooze). Bularning ichida keyingi yillarda anor mevaxo'ri hasharotining ta'siri ayniqsa kuchayib, masalaning dolzarbligi hatto anorchilikning bo'lish-bo'lmasligiga qadar ko'tarildi. Zararkunandaning Toshkent va Sirdaryo viloyatlari xo'jaliklarida tezda tarqalib, zararlangan daraxtlar hosilining 20 % dan 95 % gacha shikastlanishi bunga dalil bo'la oladi.

Yiliga 3-4 marta avlod berib rivojlanadigan bu hasharot, savdo yo'llari orqali boshqa mintaqalarga ham tezda tarqala boshladi. Anor mevaxo'rining biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish asosida, unga qarshi ilmiy asoslangan kurash usullari tizimi hamda vositalarini yaratish va amaliy tavsiyalar berish talab etiladi. Bunda anor qurti bilan birga bir yo'la boshqa zararkunandalarga ham qarshi

kurashish nazarda tutiladi.


Oddiy o'rgimchakkana (*Tetranychus urticae koch*) va yassi kana (*brevipalpus lewisi*). Bo'g'imoyoqlilar *arthropoda* turi, o'rgimchaksimonlar Arachnidae sinfining akariform kanalar Acariforms turkumiga kiruvchi o'simlikxo'r jonzot hisoblanadi.

Belgilari: oddiy o'rgimchakkana (*Tetranychus urticae Koch*) barglarning ostki qismida yaltiroq oq-jigarrang dog'lar namoyon qiladi va kananing qattiq ko'payishi qizg'ish tus beradi. Zararlangan barglar buraladi va sekin to'kilishni boshlaydi. Zarari meva bandidan boshlanadi va jigarrang o'zgarish meva qobig'i bo'ylab harakatlanib, uning yorilishiga sabab bo'ladi (53-rasm).



53-rasm. Oddiy o'rgimchakkana (*Tetranychus urticae Koch*) imagosi va tuxumi.

Meva yoriqlarida o'rgimchakkana va ulardan ajralgan po'st kuzatilishi mumkin. Boshqa nuqsonlar mevaning turli joylarida paydo bo'lishi mumkin va yorilgan joydan tashkarida rangsizlanish kuzatilmaydi. O'rgimchakkanalar bilan zararlangan daraxt iyul-avgust oylarida ko'pincha bargsiz holatga kelib qolishi mumkin, chunki zararlanish oqibatida barglar sarg'ayib to'kilib ketadi, umuman daraxt qiynalib, hosili mayda, sifatsiz va kam bo'lib qoladi, hosildorlik 35-70 % gacha kamayishi mumkin (54-rasm).



54-rasm. Yassi kana (*Brevipalpus lewisi*) ning anor mevasiga zarari.

Rivojlanish xususiyatlari: oddiy o'rgimchakkana (*Tetranychus urticae* Koch) bog'larda yakka yashamaydi - u bir qator boshqa turlar (do'lana kanasi hamda bog' o'rgimchakkanasi) bilan aralashib hayot kechiradi. Ularning hammasi otalangan urg'ochi zot shaklida qishlab chiqadi. Bahorda anor daraxtlari gullab bo'lgan davrda qishlovdan chiqib, yangi barglarning ostki tarafiga tuxum qo'yishni va rivojlanishni boshlaydi (54-rasm).

Mavsumda 11-13 bo'g'in beradi. Kuzda kunlar qisqarib havo harorati pasayishi bilan va oziqa manbasi yomonlashgach, sekin-asta qo'ng'ir va qizil tusli kana zotlari paydo bo'la boshlaydi va qishlashga ketadi.

Biologik kurash chorlari. Anor bog'larida oddiy o'rgimchakkanaga qarshi oltinko'z entomofagini turli nisbatlarda tarqatishning samarasi yuqori bo'ladi.

Kimyoviy kurash choralari. Bog'larda chang ko'tarilishini kamaytirish va daraxtlarni doimiy suv bilan ta'minlab turish kanalarning tez ko'payishining oldini oladi. Kurtaklar bo'rtishi vaqtida mineral moylar bilan tarkibida xlorpirifos, abamektin yoki diazinon bo'lgan vositalarni aralashtirib ishlov beriladi. Vegetatsiya davrida esa har bir bargda 10 tadan ortiq tirik kana topilsa, tarkibida abamektin, gesitiazoks, spirotetramat, amitrats, bifentrin va propargit bo'lgan preparatlar bilan ishlov beriladi.

Anor shirasi - *aphis punicae* theob. Bu zararkunanda hasharotlarning Hemiptera turkumiga kiradi va o'simlik bitlari daraxt shirasini so'rib, daraxtlarni kuchsizlantiradi, gullariga zarar yetkazadi, hosilni kamaytiradi va uning sifatini

pasaytiradi. *Aphididae* oilasiga mansub tur hisoblanadi. *Aphis punicae* Theob anor bog'larida ko'p uchraydigan va jiddiy zarar yetkazadigan zararkunandalardir. U asosan bahorda yosh novdalarda, barglarda va ba'zan gullarda o'simlik shirasini so'rib oziqlanuvchi hasharot hisoblanadi, lekin kamdan kam hollarda mevalarida uchraydi (55-rasm).



55-rasm. O'simlik bitlari (*Aphis punicae* va *acyrthosiphon gossypii*) anor guliga zarari.

O'simlik bitlarining ko'p miqdorda bo'lishi daraxtlarni o'sishdan to'xtatadi, yosh daraxtlarda barglar to'kilishiga yoki yoshi katta daraxtlarda meva to'kilishiga sabab bo'ladi va to'kilgan mevalar o'rnini egallaganlari esa mayda bo'ladi.

Aphis punicae bir yilda 17-20 marta avlod berib rivojlanadi. Ular ikki yo'l bilan ko'payadi: tuxum qo'yib va tirik tug'ib, bu tug'ilish jarayoni atrof-muhit sharoitlari va oziq-ovqat mavjudligiga bog'liq. Qachon oziq-ovqat mo'l-ko'l bo'lsa, tirik tug'adi.

Uyg'unlashgan kurash choralari. Zararkunanda kuchli zararlagan shoxlarni ko'klamda qirqib tashlash va ularni bog'dan olib chiqib tashlash lozim. Hosil uchun ahamiyati bo'lmagan erkak novdalar ham ko'klamda va yozda qirqib

tashlanadi, chunki bularda bitlar ommaviy rivojlanadi. Bitlar 60 % dan ortiq novdalarni zararlaganda kimyoviy kurash choralarini qo'llash tavsiya etiladi. Kurtaklar bo'rtish vaqtida yog'li vositalarni qishlayotgan zararkunandalarga qarshi purkash eng samarali hisoblanadi.

Kimyoviy kurash choralari. Kurtaklar bo'rtish vaqtida mineral moylar bilan tarkibida xlorpirifos yoki diazinon bo'lgan vositalarni aralashtirib ishlov beriladi. Vegetatsiya davrida esa tarkibida spirotetromat, tioklopid, imidoklopid, atsetamiprid yoki diazinon bo'lgan preparatlar bilan ishlov beriladi.

Komstok qurti -*Pseudococcus komstoci* kuw. Teng qanotlilar turkumining, koksidlari - *Coccidae* kenja turkumiga, so'ruvchi hasharotlarning un-g'uborli qurtlar oilasiga mansub bo'lib, xavfli ichki karantin hasharotidir. Komstok qurti qishloq xo'jaligi ekinlarining o'ta xavfli zararkunandasi bo'lib, yovvoyi va madaniy o'simliklarning 300 turida yashay oladi. Mevali daraxtlardan anor, behi, olma, nok, shaftoli, shuningdek, tutlarga qattiq zarar keltiradi. Ular daraxt tanasi shoxlari va barglarida katta-katta koloniya bo'lib joylashadi va daraxt shirasi so'rib olib, u kuchsizlantirib o'sishini zaiflashtiradi va quritadi (56- rasm).



56-rasm. Komstok qurti (*Pseudococcus komstoci* Kuw).

Kuchli zararlangan daraxtlarda shishlar paydo bo'lib, yosh novdalar quriydi va barglari to'kiladi. Hosildagi mahsulot sifati pasayib, hosildorligi kamayadi. Anor o'simligida komstok qurtining nimfalari va balog'atga yetgan urg'ochilari anor daraxtining barglari, gullari va mevalarining sharbatini so'rib oziqlanib, ularga jiddiy zarar yetkazadi. Natijada barglar sarg'ayadi, to'kiladi va meva yumshaydi. Barglar virus ta'siriga o'xshab bujmayadi. Unsimon qurt ajratadigan

shirada qurumli mog'or qoplami yuzaga kelishi mumkin. Zararlanish oqibatida meva to'kilishi mumkin. Zararkunanda mevani dog'lantiradi va meva qobig'i tuzilishini o'zgartiradi. Anor mevasining kosachasi komstok qurti va uning tuxumining yaxshi rivojlanishida qo'l keladi va hosildorlikni keskin kamaytiradi.

O'zbekistonda komstok qurti bir yilda uch marta nasl beradi, qisman to'rtinchi marta ham nasl tarqatadi. Lekin sovuq tushishi bilan to'rtinchi nasl qirilib ketadi. Komstok qurti tuxum bosqichida qishlaydi. Bir urg'ochi qurt 250-600 ta sarg'ish-zarg'aldoq tUSDagi tuxumni mumsimon oq qopchiqqa tashlaydi. Bu qopchiqni urg'ochi qurtning mum ajratuvchi bezlari yasab chiqaradi. Uchinchi nasl sentyabr-dekabr oylarida qishlash uchun tuxum qo'yadi. Bu mumsimon qopchiqlar yozdagilariga nisbatan sertuk va zichroq bo'ladi. Bir avlodning rivojlanishi 42-65 kungacha davom etadi.

Agrotexnik kurash. Mevali va manzarali daraxtlarning qurigan shoxlari kesilib, zararlangan novdalari olib tashlanadi, daraxtlar eski po'stloqlaridan tozalanadi. Ularning tanasi erta ko'klamda qattiq cho'tka yordamida tozalanadi. Begona o'tlardan holi qilinib, daraxtlarning qator oralariga, poyasining atroflariga agrotexnik mevali va manzarali ishlov beriladi. Muayyan tuproq iqlim sharoitlariga mos keladigan daraxt turlari va navlari tanlab ekiladi. Zararkunandaning kuchli tarqalishi va rivojlanishi xavfi bo'lgan joylarga chidamli navlarni ekish tavsiya etiladi. O'simlik ko'chatlarini ekishdan oldin yerni mineral o'g'itlar bilan boyitish va agrotexnik qoidalarga rioya qilgan holda tayyorlash zarur.

Biologik kurash. Psevdafikus entomofagini biolaboratoriyada dala sharoitlarida ko'paytirib, zararkunanda mavjud bo'lgan tut daraxti, anor, anjir va boshqa ekinlarga tarqatiladi. Buning uchun kuzda mumiyalashgan komstok qurtlarini tabiatdan yig'ishtirib olib, laboratoriyaga olib kelinadi va sovitgichlarda -3⁰ dan -60⁰C gacha bo'lgan sharoitda bahorgacha saqlanadi. Mart-aprel oylarida esa qaytadan tabiatga, komstok qurti tarqalgan daraxtlarga qo'yib yuboriladi.


Kimyoviy kurash. Zararkunandalarga qarshi mevali daraxt va ekinlarga quyidagi insektitsidlar bilan ishlov beriladi: Bagira 20% s.e.k. 0,5 l/ga, Difen Super 55% n.kuk. 0,15-0,25kg/ga preparatlari o'simlikning o'suv davrida purkaladi.

Alipro 950 g/l em.k. 10-15 l/ga, Ovipron 2000 em.k.(800g/l) 10-15 l/ga preparatlari o'simlikning gullagunigacha yoki gullashidan so'ng purkaladi. Preparat №30 76% n.e. 40-100 l/ga erta bahorda daraxtlar kurtak yozguncha purkaladi.

Anor qalqondorlari. Olma vergulsimon qalqondori - *Lepidosaphes ulmi* L. Nomoptera turkumi Diaspididae oilasi lepidosaphes avlodi vakili hisoblanib, olmadan tashqari anor bog'lariga zarar yetkazadi. Anor daraxtida eng ko'p uchraydigan muhim qalqondorlar quyidagilar:

- Sitrus qalqondorisi: Coccidae (*Coccus pseudomagnoliarum*);
- Qo'ng'ir yumshoq qalqondor: Coccidae (*Coccus hesperidum*);
- Qora qalqondor: Coccidae (*Saissetia oleae*);
- Evropa akatsiya qalqondorisi: Coccidae (*Parthenolecanium corni*).

Sitrus qalqondorisi. Sitrus qalqondori Coccidae (*Coccus pseudomagnoliarum*), Qo'ng'ir yumshoq qalqondor bilan adashtirilishi mumkin, ammo rang va avlod soni ularni farqlaydi. Sitrus qalqondorisining balog'atga yetganlari kulrang, qo'ng'ir bo'ladi, yumshoq qalqondor esa sariq va jigarrang bo'ladi (5-rasm). Sitrus qalqondori yiliga bir yoki ikki marta avlod beradi va mavsumning istalgan vaqtida har ikki avlod vakillarini uchratish mumkin.



57-rasm. Sitrus qalqondorisi (*Coccus pseudomagnoliarum*).

Qo'ng'ir yumshoq qalqondor Coccidae (*Coccus hesperidum*), yiliga ko'p sonli avlodlar beradi va mavsumning istalgan vaqtida barcha bosqichdagi avlodlarini uchratish mumkin bo'ladi. Sitrus qalqondorining daydilari iyun va iyul oylarida paydo bo'ladi (58-rasm).



58-rasm. Qo'ng'ir yumshoq qalqondor

Qo'ng'ir yumshoq qalqondor Citrus qalqondorisiga o'xshab ketadi. Rangi va avlodlar soni ularni farqlaydi. Qo'ng'ir yumshoq qalqondor sariq va jigarrang bo'ladi va Citrus qalqondorisi esa kulrang bo'ladi. Qo'ng'ir yumshoq qalqondor ko'p sonli avlodga ega va bir vaqtni o'zida barcha bosqichdagi avlodlarini kuzatish mumkin. Citrus qalqondorisi esa yiliga fakat bir yoki ikki marta avlod beradi.

Qora qalqondor Coccidae (*Saissetia oleae*). Qora qalqondorning balog'atga yetgan urg'ochilari diametri 5 mm gacha bo'lib, tuk jigarrang yoki qora rangda bo'ladi, orqasida ko'zga tashlanadigan H-shaklli toji mavjud (59-rasm).



59-rasm. Qora qalqondor (*Saissetia oleae*).

Yevropa akatsiya qalqondorisi - Coccidae (*Parthenolecanium corni*). Bu qalqondor yiliga ikki marta avlod beradi. Bu yosh novdalarda va kichik shoxlarda nimfa holatida qishlaydi. Bahorda tez rivojlanadi, yaqqol ko'zga tashlanadi va yaltiroq qo'ng'ir qoplama (diametri 6 mm, orqasi bo'ylab bir necha tojlari bilan) shakllanadi (60-rasm).



60-rasm. Yevropa akatsiya qalqondorisi (Parthenolecanium corni).

Kech bahorda urg'ochilari ko'p tuxum qo'yadi, qoplamasi ostini tuxumlari bilan to'liq to'ldiradi va tuxumlarni qo'yiboq nobud bo'ladi. May oyining oxirlaridan iyun oyigacha nimfalari qalqondor qoplamasi ostidan tuxumni yorib chiqadi va asosan barglar ostiga o'mashadi. Iyul oyining oxirlarida va avgust boshida mevaga ko'chib o'tadi.

Belgilari. Qalqondorlar shoxlarda va mevalarda kichik qora shishgan dog'lar ko'rinishida uchraydi. Balog'atga yetganlar va g'umbaklar meva hujayrasidan uning sharbatini so'rib oziqlanadi va shoxlarni nimjonlatib quritadi. Qattiq zararlanish oqibatida butun bir daraxt qurib qolishi mumkin. Sitrus mevalar va zaytunda ushbu qalqondor tufayli uchraydigan shira va qurumli mog'or anorlarda kuzatilmagan.

Yuqoridagi barcha to'rtta yumshoq qalqondor keltiradigan muhim iqtisodiy zarar bu qalqondor mevaning ajralganda o'mida ochiq rangli dog' qoldiradi va bu quyosh nurini to'sib, mevaning ayni shu joyida rang olishiga halaqit berganligiga dalildir. Agar mevada bir yoki ikkita shunday dog'lar bo'lsa, meva sifati pasayadi.

Agrotexnik kurash choralarini. Qalqondorning zararlashi natijasida nimjon bo'lib qolgan daraxtlar kompleks agrotexnik tadbirlarga muhtoj bo'lib qoladi, jumladan, o'sish va hosilga kirish jarayonlarini tezlashtirish, shakl berish, sug'orish, mineral o'g'itlar berish, yoriqlarni suvash, eski po'stloqlarni olib tashlash va xokazolar. Kaliforniya qalqondori bilan zararlangan bog'larda kimyoviy kurash usullarini tabaqalashtirib tashkillashtirish ularga qarshi kurash

choralarini bir muncha yengillashtiradi. Shu sababli yangi bog'lardagi navlarni har chorakda qalqondor bilan zararlanishiga qarab guruhlarga ajratib olish lozim, ya'ni kuchli zararlanadigan, o'rtacha zararlanadigan va kuchsiz zararlanadigan guruhlar. Shunday qilib, faqat ajratib olingan guruhlardagina qalqondor doimiy nazorat qilib boriladi.

Biologik kurash choralari. *Prospaltella* (*Prospaltella perniciosi*). Bu tur parazit faqat Kaliforniya qalqondori tanasining ichida rivojlanadi. Ba'zi davlatlarda qalqondorlarga qarshi biologik kurash sifatida ishlatiladi. Bizning sharoitimizda ushbu parazit qalqondorlarning atigi 10-18 % ni zararlashi aniqlangan. *Prospaltella* paraziti 1 va 2-yoshdagi lichinkalarni va jinsiy yetilmagan urg'ochilarni zararlaydi. Zararkunandaning bir avlodi hisobiga parazitning 2 ta avlodi rivojlanishi mumkin. Qishlovga ketgan qalqondor lichinkasi tanasi ichida parazit tuxumi ham qishlab chiqadi. Parazitning 2 yoshdagi lichinkasi paydo bo'lishi bilan qalqondorning tana yuzasi to'q tusga kiradi va qattiqlashadi. Lichinkasining rivojlanishi 15 kun davom etadi. Yetuk hasharot uchib chiqqandan keyin xo'jayin tanasida va qalqonida teshikchalar qoldiradi. *Prospaltella* paraziti juda kam urug' qo'yadi. Laboratoriya sharoitida bu parazit 20 donagacha urug' qo'yishi aniqlandi.

Kimyoviy kurash choralari. Qalqondorlarga qarshi kimyoviy kurash choralari ko'chatlarning yoshi, kelib chiqishi, nav tarkibi hamda zararkunanda bilan zararlanish darajasi hisobga olingan holda tabaqalashtirib olib boriladi. Hasharotlar o'chog'i kuzatilsa, faqat shu o'choqlar ishlanadi. Erkak qalqondorlarning uchish davridagi ko'payishining oldini olish maqsadida tavsiya ilgan kimyoviy vositalarni ham ishlatish mumkin.

Qandalalar: Leptoglossus clypealis va leptoglossus zonatus

G'arbiy barg oyoqli qandalalar fitofag hasharotlar hisoblanib, asosan, bodom, pista, anor bog'lariga zarar yetkazadi. Bu zararkunandalarning anor bog'larida juda katta populyatsiyasini uchratish mumkin. Hattoki bitta anor mevasida to'da holatida 100 tadan ortiq topish mumkin. Qandalalar anor mevalarini teshib so'rib oziqlanadi. Ular, ayniqsa, yorilgan mevalarni yoqtirishadi.



61-rasm. Barg oyokli kandalalar (*Leptoglossus clypealis*) ning anor mevasiga zarari

Bu zararkunandalarni yil bo'yi anor bog'larida topish mumkin, ammo mavsum oxirigacha zarar keltirmaydi. Oziqlangan qandalalarning zararini meva tashqarisidan ko'rish oson emas. Ammo hasharotlarning oziqlanishining yuqori populyatsiyalari anor mevalari yuzasida qandalalarning qalin qatlamlariga olib keladi va bu jarayon kasalliklarning ko'payishiga olib keladi.

Kimyoviy kurash choralari. Qandalalar faqat erta tongdagi vaqtlarda soat 5:00 dan 7:00 gacha sust bo'ladi, shuning uchun o'simliklarni himoya qilish vositalarini qo'llash erta tongda belgilanishi lozim. Bada qandalasiga qarshi Surxondaryo viloyatida Dalate plyus preparatidan 1 gektar maydonga 0,25 entolucho preparatidan 1 gektar maydonga 0,3 l, entometrin preparatidan 1 gektar maydonga 0,3 l, Bi-58 preparatidan 1 gektar maydonga 0,5-1 litr, entospilan preparatidan 1 gektar maydonga 0,3 kg, deltasisi preparatidan 1 gektar maydonga 0,1-0,6 l va entomektin preparatidan 1 gektar maydonga 0,3-0,4 l ishlatilganida samarasi 90-95% gacha tashkil etdi.

Anor mevaxo'ri (*Euzophera punicaella mooze*). Anor mevaxo'ri, asosan, anor daraxtining meva nig'unchalarini (gul, g'uncha va mevani mavsum mobaynida rivojlanish davrida) zararlaydi. Shikastlangan mevalar ikkilamchi mikroorganizmlar faoliyati oqibatida chiriydi, yoriladi, to'kiladi va yaroqsiz bo'lib qoladi. Buning natijasida daraxt va bog' hosildorligi kamayadi, mevaning sifati pasayadi.

Mevaxo'r zararlagan anor mevasi ancha vaqtgacha bilinmay turib,


keyingina sarg'ayib, qizarib, yorilib to'kilib ketishi va chirishi mumkin. Mevaxo'ring 1-2 avlodlari deyarli bilinmay, keyingilaridagina zarar sezilishi mumkin. Avloddan-avlodga o'tgan sari zarar ko'proq seziladi. Kuzga borib, ko'pincha yashirin zararlanish kuzatiladi, ya'ni meva tashqi ko'rinishidan hech qanday zararlanganligi sezilmasa ham, u ichidan zararlangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan (1-2 oy) namoyon bo'lishi mumkin.



62-rasm. Anor mevaxo'ri (*Euzophera punicaella* Mooze)

***A*-meva ichidagi zarari; *B*-gulkosachadagi zarari.**

Himoya qilinmagan anor daraxti hosilining 25,2 % dan 77,5 % gacha (Izboskan tumani) qismi yuqolishi mumkin (Xo'jaev, 2010).



63-rasm. Anor mevaxo'ri (*Euzophera punicaella* Mooze) imagosi.

Anor mevaxo'rining tarqalishi ozuqa o'simligining oz yoki ko'pligi, uni parvarishlash holati, shuningdek, hududning iqlim sharoiti kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Jumladan, anor yetishtirishga ixtisoslashgan bog'dorchilik xo'jaliklari va xonadonlarda zararkunandalarga qarshi kimyoviy hamda agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida qo'llanilishi natijasida, zararlanish ko'rsatkichi sezilarli bo'lmaydi, biroq yirik anor butalari mevaxo'ring doimiy va asosiy tarqalish o'chog'i

hisoblanadi.

Biologik kurash choralari. Anor mevaxo'ri (*Euzophera punicaella* Mooze) tuxumlariga qarshi *Trichogramma ostrinae* va lichinkalariga qarshi brakon entomofagini 1:10 nisbatda qo'llanilsa, yuqori samara beradi.

Kimyoviy kurash choralari. Anor mevaxo'riga xarshi kimyoviy preparatlardan sipermetrin va xlorprifos bo'lgan (Nurel-D 55% em.k, Agrofos-D 55% em.k. va boshqalar) gektariga 1 l hisobidan yoki ta'sir etuvchi moddasi lyambda-sigalotrin bo'lgan (Karate 5% em.k. Atilla 5% em.k., Dalate 5% em.k. va boshqalar) gektariga 0,5 l hisobidan yoki bifentrin asosidagi (Talstar 10% em.k. yoki DVA-TRIN 10% em.k. va boshqalar) gektariga 0,5 l hisobidan qo'llanilishi zarur bo'ladi.

8.2. Anor kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari

Anor vilti (so'lishi). Vilt o'simlik o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi anorning muhim kasalliklaridan biri. Zararlangan shoxlarida barglar sarg'ayadi va qovjiraydi. O'simlikning bir yoki undan ortiq, shoxlarida barglar to'kiladi. Natijada butun bir daraxt bir necha hafta ichida to'liq so'liydi va nobud bo'ladi. Vilt belgilari ba'zida kutilmaganda paydo bo'ladi va birdaniga butun o'simlik barglarining sarg'ayishiga sabab bo'ladi. Kasallangan o'simliklarda barglar quriydi va bir necha oy davomida qurigan mevalar shoxlariga yopishib qoladi. Ksilema (daraxt tanasining suyuqlik harakatlanadigan qismi) atrofi to'q qizil jigarrangdan binafsha to'q jigarrangga yoki qora dog'ga aylanadi. Kasallangan o'simlik qismlarining kesishgan va vertikal bo'limlarining tomirlarida va yon qobiq to'qimalarida to'q kulrang-jigarrang chiziqlar paydo qiladi.



64-rasm. Anor butalarining vilt bilan kasallanishi.

Kasallikka qarshi kurashish. Kasallikka qarshi bog' sanitariyasiga rioya qilish, a'nanaviy usullar, kimyoviy nazorat va kasallikka chidamli navlarni ekish kabi keng ko'lamli chora tadbirlar bilan samarali kurashish mumkin. Qumoq bo'z tuproqli sharoitlarda daraxtlarni 4,5 m x 3,0 m masofada ekish va tuproqning suv o'tkazuvchanligini yaxshilash. Tuproqni 0,2% li karbendazim yoki 0,15% li propikanozol yoki 0,15% li tridemorf - 0,25% li Xlorpirifos bilan yuvish (tuproqni dezinfeksiya qilish) zarur.

Alternariya (*alternaria*). Meva etining chirishi yoki qora chirish. Boshlanishida, anor mevasining yuzasida va barglarida kichkina qizg'ish qo'ng'ir dumaloq dog'lar paydo bo'ladi. Ichki chirish kasalligi bog'da ko'p holatlarda gullash va meva rivojlanishining boshlang'ich davrlarida yomg'irdan keyin paydo bo'ladi va shakllanish davrigacha rivojlanishni davom ettiradi. Shu sababdan uni saqlash davridagi kasallik deb ham yuritiladi.

Bu kasallik gul kosasi atrofidan tarqaladi, lekin gul kosaning tashqi po'stlog'i va qattiq qobig'i o'zining sog'lom ko'rinishini saqlab qoladi. Kasallangan mevaning qattiq qalin qobig'i sog'lom ko'rinadi va qattiqligicha qoladi. Ichki o'zagi esa gul kosasidan tortib qisman yoki to'liq chirydi va mevada kichkina qizg'ish qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi. Zararlangan mevalar och rangga kiradi va iste'mol uchun yaroqsiz bo'lib qoladi.



65-rasm. Alternariya kasalligi bilan kasallanishi.

Kasallikka qarshi kurashish. Bog'ni samarali boshqarishdagi amaliyotlar, masalan, changni nazorat qilish va sanitariya (eski mevalarni va qurigan shoxlarni olib tashlash) yordamida kasallik tarqalishini kamaytirishi mumkin. Gul kurtaklari

ko`rina boshlaganida va barglar chiqa boshlaganida zamburug'ga qarshi kimyoviy preparatlarni qo'llang. Mancozeb (0,25%) yoki Dithane M- 45 (0,25%) yoki Captaf (0,25%) preparatlaridan purkalsa, kasallikni samarali nazorat qilsa bo'ladi. Mevalar yarim hajm olgunga qadar preparatlarni qo'llash davom ettiriladi. Daraxtlar ichida va bog'da yaxshi havo aylanishini ta'minlash maqsadida daraxtlarga shakl bering.

Antroknoz kasalligi. Kasallik barglarda, poyada, mevalarda yoki gullarda har xil o'lchamdagi botiq dog'lar bilan namoyon bo'ladi. Zararlangan barglar sariq rangga kiradi va to'kiladi. Anor mevasi rivojlanishining barcha bosqichida kasallikka chalinishga moyildir. Mevalarda dog'lar oldin dumaloq, keyinchalik notekis shaklda rivojlanadi, Qo'ng'ir rangdan to'q qo'ng'ir rangga kiradi va mevani qisman yoki butunlay botiq dog'lar qoplab oladi. Kasallik belgilari faqat meva pishganda namoyon bo'ladi. Kasallik sentyabr - oktyabr oylari namlik yuqori va harorat 20-27°C bo'lganda kuchayadi.



66-rasm. Anorning antraknoz kasalligi bilan kasallanishi.

Kasallikka qarshi kurashish choralari. Terim davridan keyin kasallikni kimyoviy nazorat qilish katta samara bermaydi, shu sababdan antroknoz kasalligini va shunga o'xshash boshqa kasalliklarni hosil terishdan oldin nazoratga olish juda muhimdir. Bu yo'l bilan kasallikning daladan terimdan keyingi davrga (saqlash jarayoni) o'tishini cheklash mumkin.

- bordo suyuqligi (mis kuporasi bo'yicha 10-15 kg/ga, 1% li eritma);
- vektra 10% sus.k. (0,3 l/ga);
- ohak-oltingugurt qaynatmasi (0,5-1°);
- temir kuporasi 53 % e.kuk. (30-40 kg/ga, daraxt kurtak yoyguncha va ostidagi tuproqqa 2-3 % li eritma) va Folikur BT 22,5 % em.k. (0,25 l/ga);

- alto super 33% em.k. (0,3 l/ga);
- impakt 25% em.k. (0,2 l/ga);
- vektra 10 % sus.k. (0,3 l/ga);
- bamper 25% em.k. (0,25 l/ga).

Bakteriyali kuyish natijasida chirish. Belgilar barglarda va mevada dog'lar, poyalarda, shoxlarda, va daraxt tanasida chirish (rak) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kasallik o'simlikning barcha qismlarini zararlaydi, barglarda va mevada kichik, to'k jigarrang, tekis-notekis suvli yaralar hosil qiladi. Poya qismida kurtaklar atrofida kasallik jigarrang va qora rangli dog'lar ko'rinishida rivojlanadi. Kasallik rivojlanishinig yuqori bosqichlarida novdalarning po'stloqlarini qovjiratib, yorilishiga olib keladi va natijada ular sinadi.

Barglarda esa kasallik kichik, notekis, 2 dan 5 mm gacha o'lchamdagi suvli dog'lar va to'g'nog'ich shaklidagi nekrotik dog'lar paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Kasallik kuchaygan davrida, suvli yaralar erta barg to'kilishiga sabab bo'ladi. Mevalardagi kuygan yaralar hattoki boshlang'ich bosqichlarda ham kichik yoriqlar shakllanishi bilan ajralib turadi. Bu yaralar birlashib meva yorilishiga va ikkilamchi infeksiyalarning (ko'k mog'or) rivojlanishiga sabab bo'ladi. Zararlangan poya va novdalar qovjirab quriydi va sinib tushadi. Infeksiyaning rivojlangan bosqichlarida asosiy poyada va shoxlarda chirish (rak) rivojlanishi odir bo'ladi. Bakterial kuyish $+9^{\circ}\dots+43^{\circ}\text{C}$ haroratda va kamroq namlikda ham hayot kechirishi mumkin, ammo yuqori namlik sharoitlarida ($>80\%$) va mo'tadil haroratda ($+25^{\circ}\dots+35^{\circ}\text{C}$) infeksiya yanada kuchayadi. Kasallik sog'lom o'simliklarga shamol sachratadigan yomg'ir orqali va yangi kesilgan shoxlar orqali tarqaladi.



67-rasm. Anorning bakteriyali kuyish natijasida chirishl

Kasallikka qarshi kurashish choralari. Kasallik bilan zararlanmagan ko'chat tanlashga harakat qiling. Bordo (1,0%) suyuqligidan foydalaning. Streptotsiklin (0,025%) bilan mis oksidloridi (0,25%) aralashmasi yoki karbendazim (0,15%) preparatlaridan 15 kunlik tanaffus bilan 5-6 marta barglar chiqish davridan boshlab daraxtlarga ishlov bering. Imkoni bo'lsa, shoxlarning kesilgan uchlariga bordo (10%) pastasi surtish tavsiya qilinadi.

Kulrang mog'or ko'rinishidagi chirish. Anor saqlanish davrida rivojlanadigan va iqtisodiy jihatdan katta zarar keltiruvchi kasallik hisoblanadi. Terimdan keyin, odatda, 30 % hosil ushbu kasallik tufayli nobud bo'ladi. Nekrotrofik zamburug' anor gulkosasi atrofida zarar yetkazib, mekada chirish rivojlanishiga sabab bo'luvchi infeksiya rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Mexanik zarar yetgan mevalarda kasallik juda jadal rivojlanadi.

Kasallik belgilari. Kulrang zamburug' mevaning toj qismida paydo bo'ladi va ochiq qo'ng'ir yoki qora dog'lar ko'rinishidagi yara mevaning bo'yin qismidan pastga qarab sekin rivojlanadi. Zamburug' rivojlanishi bilan, anor urug'laridan qizil sharbat oqishi sababli yaralar rangi vaqt o'tishi bilan qorayadi. To'qimalar va qobiq kengayishi bilan yoriqlar ko'zga tashlana boshlaydi. Meva chirib borishi bilan kulrang mitseliy (spora) ham rivojlanib boradi. Zararlanish yonma-yon joylashgan mevalar orasida hattoki sovuqxonada ham rivojlanishi mumkin, chunki kasallikni qo'zg'atuvchi zamburug' $-0,5^{\circ}\text{C}$ dan past haroratda ham (garchi sekin bo'lsada) rivojlanish xususiyatiga ega. *Botrytis cinerea* infeksiyasi bog'da va meva saqlash davrida ham ko'rinmaydigan va ko'rinadigan yaralar ko'rinishida

uchraydi. Daraxt gullashi davrida havoda harakatlana oluvchi kasallik sporalari ochiq gullarga yoki yosh mevalarning tojlariga tarqaladi. Kasallik qo'zg'atuvchi zamburug' gul qismlarida rivojlanadi va kulrang qoplama hosil qiladi.

Meva yuzasini zararlantiruvchi konidiya va mitseliy (kasallik sporalari) mevadagi yaralar va yoriqlar orqali rivojlanadi. Sklarotsiya, mitseliy va konidiya (sporalari) tuproqda, o'simlik chirinisida va havoda uchraydi. Terimdan oldin rivojlangan ko'rinmas infeksiyalardan kelib chiqadigan kulrang mog'or kasalligi xavflidir, chunki bu infeksiyalar terimdan keyingi sanitariya maqsadida yuviladigan suvda va yuqori nam sharoitlarda faollashadi. Masalan, Gretsiyada anorda terimdan oldin mevada chirish kuzatilgan. Birinchi belgilari mevada kichik dog'lar paydo bo'lishi bilan kuzatilgan va keyinchalik o'lchami kattalashib kengaygan to'q qo'ng'ir dog'larga aylangan. Ichki to'qimalar yumshashib va qo'ng'irlashgan, kun davomida (5° dan 6°C gacha) to'liq chirib, hosilning 20 % nobud bo'lgan.



68-rasm. Anorning kulrang mog'or ko'inishidagi chirishi.

Kasallikka qarshi kurashish choralari. Terimdan keyingi fungitsid yordamida beriladigan kimyoviy ishlov meva toji ichiga ham kirib borishi mumkin va bu o'z navbatida infeksiyaning yanada tarqalishining oldini olishga yordam beradi. Shunday bo'lsada, bog' sanitariyasi zamburug'lar paydo bo'lishining oldini olinishda eng muhim himoyalovchi strategiya bo'lib qolaveradi. Kulrang mog'or yuzaga kelishini fenxeksimid va fludioksanil fungitsidlari yordamida nazorat qilish mumkin.

Terimdan keyin mevalarni saqlashdan oldin kimyoviy preparatlar bilan birga xlor, gipoxlorit va fungitsid eritmasiga botirib olish tavsiya qilinadi. Bu

zamburug'larda fungusidlarga qarshi chidamlilik yuzaga kelishining oldini olishga yordam beradi. Karbon dioksidga to'yintirilgan atmosferali sovuqxonalar zamburug' harakatlanishiga qarshilik qiladi va *B.cinerea* zamburug'i rivojlanishini to'xtatadi.

Nazorat savollari:

1. Anor zararkunandalarini so'ruvchi va kemiruvchilarga ajrating.
2. Anor mevaxo'ri bizning sharotimizda nechta avlod beradi.
3. Anor shirasi va komstok qurti bir yilda nechta avlod beradi.
4. Anorni kasalliklardan himoya qilishning yana qanday usllarini bilasiz?
5. Anorning bakteriyali kuyish kasalligidan saqlash uchun qanday tadbirlar amalga oshiriladi?

IX-BOB. BOG' HOSILINI TERISH VA UNGA ISHLOV BERISH

Anorni yetilib pishmagan mevalarni yig'ib olish yoki pishib o'tib ketgan mevalar mevaning sifatiga ta'sir qiladi. Meva naviga ko'ra meva 4-7 oy davomida pishadi. Shimoliy yarim sharda anorlar odatda sentyabrdan fevralgacha pishadi, janubiy yarimsharda esa ular mart-may oylarida mavsumda bo'ladi. Mevalar butada qancha uzoq tursa, ularning shirinlik darajasi shunchalik baland bo'ladi, shuning uchun mahalliy iqlim sharoitiga mos keladigan meva butada pishishiga imkon berish muhim ahamiyatga ega.

Meva terimi. Meva pishib o'tib ketmasdan oldin terib olinishi kerak. Hosilni yig'ish davomida mevalarni tortib olinmasligi kerak, lekin ularni terish va tashish paytida boshqa mevalarni zararlamaslik uchun qaychi bilan qirqib olinishi kerak. Meva terish qo'lda yig'ib olinadiga ish bo'lib, ishchilar shoxlardagi ko'plab tikonlardan himoya qilinishi uchun terish paytida himoya kiyimini kiyishlari kerak. Meva terishda va taxlashda ehtiyot bo'lish juda muhim, chunki anor shikastlanishga juda moyil bo'ladi. Meva terish keng ko'lamlı jarayondır, chunki barcha mevalar bir vaqtning o'zida pishmaydi. Bir paytning o'zida bir marta yig'ib olish vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan jadal ishlab chiqarishdan tashqari, mavsum uchun ikki yoki to'rt marta yig'ib olishni rejalashtirish kerak. Mevalar terish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri bog' ichiga qo'yilgan plastik yashiklarga yoki elkaga osilga qopchalarga joylashtiriladi. Har ikki holda ham, mevalarni chayqaltirish yoki yorilishini kamaytirish uchun ehtiyot bo'lish kerak (kuchli zarba mevani shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin). Daladagi terilgan mevalarni quyosh nurida qolib ketishi ularda jigar rangli dog'lar va meva po'stlog'ining dag'allanishiga olib keladi. Shuning uchun, mevalar tezroq saralanishi va sovutgichli omborxonaga yoki biror soya joyga o'tkazilishi kerak.

Meva yig'im-terimidan keyingi hosilni boshqarish. Yig'im-terimdan keyin mevalar o'z vaqtida saralash joyiga o'tkaziladi. Yig'imdan keyin mevani oldindan sovutish shart emas, ammo meva terilganidan keyin iloji boricha tezroq sovuqxonaga o'tqazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Meva po'stlog'iga mexanik jarohatlarni va shilinishlarni oldini olish uchun yig'ib olingandan keyin maksimal

darajada e'tibor va parvarish zarur.

Anorlarni terib olish jarayonida ularni gulkosasini va mevani jismoniy shikastlashni kamaytirish juda muhimdir. Yangi bozor uchun tayyorlangan mevalar xlor bilan yuviladi, suv bilan yuviladi va yoriqlar, qusurlar, rangi, hajmi va vazni bo'yicha tartiblanadi. Mevalar, yig'im-terimdan keyingi fungitsid bilan ishlov berilishi mumkin, ayniqsa, ular sovuqxonada uzoq muddatga joylashtirilsa. Mevalarni rangi o'zgarishi va yorilish kabi har qanday nomutanosiblik uchun anorlarni muntazam ravishda ajratish kerak. O'rash-qadoqlash va transportga yuklovchi ishchilar mevalarni saqlash va sotish jarayonida eng iqtisodiy jihatdan muhim anor saqlash kasalligi bo'lgan *B.cinerea* (kulrang mog'orli chirish) kabi kasalliklarning tarqalishini oldini olish uchun mevalarni muntazam ravishda ajratib turishlari kerak.

Yig'im terimdan keyin ishlov berish. Yangi mahsulotni suv bilan yuvish po'stlog'ini ifloslantiruvchi va buzadigan patogen (kasallik tarqatuvchi bakteriya) larni olib tashlash saqlashdan oldingi keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Biroq, faqat saqlashdan oldingi suv bilan ishlov berish jarayoni, aslida, "quruq davolanish bilan solishtirganda mikroblarning o'sishiga yordam beradi. Xlor yuvishlari kulrang mog'orli chirish xavfini kamaytiradi. Ushbu suvga bo'ktirib yuvish odatda yig'im terimdan keyingi hosil bo'ladigan *fludioxinil* va *fenhexamid* kabi zamburug'larni oldini olish uchun bajariladi. Fenheksamid va fludioksinilli davolanishni qo'llash, ayniqsa, anorlardagi gulkosasida *B. cinerea* tomonidan paydo bo'ladigan kul rang mog'orli chirish holatini samarali kamaytiradi. Aksariyat fungitsidlar bo'ktirib, purkab, fumigantlar, o'rab qo'yish kabi choralar bilan ishlov beriladi. Hosil yig'im-terim kasalliklardan asrash va anorning saqlash muddatini uzaytirish va sovuqxonada saqlash sharoitlarini kengaytirish uchun mevali mum fungitsidlar bilan qo'shilishi mumkin. Omborxonada mevalarning ko'rimlilik sifatini oshirish va namlik yo'qotilishini kamaytirish orqali uning saqlash muddatini ko'paytirish uchun qo'llanilishi mumkin.

Mevalarni saralash. Mevalarni saralash jarayoni dalada boshlanib, qayta ishlash zavodlariga va obyektlarga begona narsalar kirishini va ko'rinadiga katta

va kichik nuqsonlarni aniqlab beradi. Bu degani toshlar, shisha yoki metall kabi narsalarni dalada olib tashlashni anglatadi. Deyarli barcha obyektlar boshqa turdagi mevalarini ham qadoqlashi mumkin. Qo'l bilan yoki optik tarzda saralash quyosdan qorayish, darz ketish, yetarli bo'lmagan po'stloq rangi kabi tashqi nuqsonlarni bildiradigan mevalarni olib tashlashni bildiradi. Anorlarni Yevropa va boshqa mamlakatlarning standartlariga muvofiq eksport qilinadigan muammolardan biri anorlarni rang, vazn va hajmi bo'yicha saralashdir. Yarim avtomatik va to'liq avtomatik tizimlardan mevalarini saralashda foydalanish mumkin. Bu iste'molchilarga zarar yetkazilgan va nostandart anorlarni yuborishdan saqlaydi. Ushbu qurilmalar saralash vaqtida qo'l mehnatini qisqartirish yo'li bilan xarajatlarini kamaytiradi. Saralash texnologiyasini joriy qilish begona narsalardan ifloslanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi, ishlab chiqarish liniyasida oziq-ovqat xavfsizligini oshirishga imkon beradi. Saralash jarayoni davomida begona narsalarni izlab topish va olib tashlash, chirish, nuqsonlar, dog'lar va zararni bartaraf etish qobiliyati mavjud. Bu yuqori rentabellikni va iste'molchilarni xavfsizroq, yuqori sifatli mahsulot bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va sifatiga qarab ajratiladi. Bu ularni saralash va turli savdo kanallariga topshirish uchun ishlatiladi. Yig'im-terimdan keyin mevalarni ajratish - yig'im-terim jarayonida muhim qadam bo'lib, agroiqlim sharoiti bo'yicha og'irlik, o'lchov, rang, shakl va kasallikdan holi po'lish kabi jismoniy va sifat ko'rsatkichlari asosida qo'lda yoki avtomatik ravishda (elektron ajratish) amalga oshirilishi mumkin. Sifat uchun yangi shaklda mevalarni ajratish juda muhim, chunki odamlar kun sayin sifat talab bo'lib bormoqda. Odatda, qishloq xo'jalik mahsulotlarining yuqori sifat darajasi yuqori daromad keltiradi.

O'zbekistonda anorning ko'pchilik navlarining mevalari oktyabr oyining birinchi yarmida pishadi. Ularning o'sishi va sharbat sifatini yaxshilash vegetatsiya davri oxirigacha davom etadi. Shuning uchun, hosilni yig'ish kechiktirilganda keskin ko'payadigan mevalarning yorilishining oldini olish uchun keyingi davrda amalga oshirilishi kerak. Erta yig'im-terimda mevalar yaxshi yetilmagan, mevalar

past sifatga ega.

Shirin anor navlari shirin va nordonga qaraganda erta pishadi. Turli navlarni yig'ish ketma-ketligi pishib yetish vaqtiga qarab belgilanadi. Gullashning uzoq davri va shunga mos ravishda, tugilish vaqti turli bo'lgani kabi, o'rim-yig'im vaqtiga kelib, barcha mevalar bir xil pishib yetish darajasiga ega emas, shuning uchun erta pishgan mevalarni tanlab yig'ish kerak. Ammo mevaning tashqi belgilari bo'yicha yetilganlik darajasini baholash har doim ham yetarli darajada aniq emas, shuning uchun bitta umumiy to'plam samaraliroq.

Mevalar shoxchalardan olib tashlanadi, so'ngra ehtiyotkorlik bilan qog'ozlarga o'raladi va kuchli ta'sirlarsiz daladan chiqariladi. Shuningdek, tarozida tortish, saqlanish, yuklash va tushirishni ehtiyotkorlik bilan bajariladi. Urilishlar, teshilishlar, qattiq zarbalar va chayqalishlarda meva ichidagi suvli donalar eziladi, bu tez parchalanishiga va uzoq muddatli saqlash uchun yaroqsizligiga olib keladi.

O'rim-yig'im pomologik navlarga ko'ra amalga oshirilishi kerak, b saralashni osonlashtiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Saralashda mevalar mevaning kattaligi va sifatiga qarab ikkita tijorat naviga va nostandartga bo'linadi.

Birinchi va ikkinchi navlarning mevalari iste'molchi yetilganligiga ega bo'lishi kerak. Birinchi nav uchun eng katta ko'ndalang diametrga ko'ra meva hajmi 65 mm dan kam emas, ikkinchisi uchun - 50 mm dan kam bo'lmazligi kerak. Mevalar pomologik xilma-xilligida shakli va rangiga xos bo'lishi kerak, zararsiz va kasallik belgilarisiz, saqlanib qolgan kosacha va meva tagida bir tekis kesilgan bo'lishi kerak. Birinchi nav uchun meva yuzasining 1/8 qismidan ko'p bo'lmagan maydonda, ikkinchisi uchun - 1/4 dan ko'p bo'lmagan joyda quyoshdan kuyish joylari va qobig'ining notekisligiga ruxsat beriladi. Sirtning 1/4 qismidan ko'p bo'lmagan maydonda kuyik zamburug'li mevalar ikkinchi nav deb tasniflanadi. Qolgan mevalar, ya'ni kichikroq, katta kuyish joylari bo'lgan, yorilib ketgan va boshqa nuqsonli nostandart deb tasniflanadi.

Birinchi va ikkinchi navli mevalar saqlash uchun yoki eksport uchun tegishli qadoqlanganidan keyin ishlatiladi. Nostandart anor mevalari mahalliy

sharoitda sotiladi yoki sharbat ishlab chiqariladi. Saqlash yoki qadoqlashdan oldin mevalar quruq, yaxshi havo almashadigan joyda bir necha kun quritilishi kerak. Bu ularni saqlash sifati va saqlanish imkoniyatini yaxshilaydi, nuqsonlarni aniqlash va keyingi chiqindilarni kamaytirish imkonini beradi. Pastki qatlamlarning mevalariga zarar bermaslik uchun mevalarni uch qatordan ko'proq yig'ish tavsiya etilmaydi. Chiqindilarning eng yuqori foizi saqlashning boshida kuzatiladi.

Xonadagi havo harorati 2-6°, nisbiy namlik 80-90% oralig'ida saqlanishi kerak. Saqlash joyida shamollatish tizimi bo'lishi kerak.

Anor mevalari 25-30 kg sig'imli standart qutilarda saqlanishi kerak, ular orasida saqlash jarayonini nazorat qilish uchun bo'sh joy qoldiriladi. Qadoqlash va saqlash hajmiga bo'lgan ehtiyojni hisoblashda qutilardagi anor mevasining g'ovakliligi 45-55% ni tashkil etishini hisobga olish kerak.

Anor hosilining ma'lum qismini yetilgan yorilib ketgan mevalar tashkil etadi, ularning soni va yorilish darajasi naviga, o'rim-yig'im vaqtiga va boshqa sabablarga bog'liq. Bunday mevalar uzoq muddatli saqlash uchun mos emas va darhol iste'mol qilinadi yoki sharbatga qayta ishlanadi.

Konserva zavodlarida anor sharbati maxsus texnologiya va uskunalar yordamida olinadi. Anor sharbatining kichik partiyalarini oddiy uskunalar yordamida to'g'ridan-to'g'ri dehqon xo'jaliklaridan olish mumkin. Shu maqsadda lqat pishgan butun yoki yorilgan mevalar ishlatiladi, qolganlari tashlanadi.

Mevalarni sharbat uchun qayta ishlashda qobig'i qisman unga o'tib, sifatini keskin pasaytiradi. Shuning uchun, sharbatni faqat donalardan siqib, ularni qobig'i va po'stlaridan ajratib olish yaxshiroqdir. Presslovchi yoki sharbat chiqargichlar yordamida doka mato orqali siqilgan sharbat bir kun davomida katta shishalarda tindiriladi.

Sovuqxonalarda mevalarni saqlash. Anorlar yig'ib olingandan so'ng namlik darajasi past joyda suvsizlanishni boshlaydi va parchalanib ketishga moyil bo'lib, hosilni buzish uchun fiziologik zarar yetkazishi mumkin. Hosil yig'im terimidan so'ng bir nechta fiziologik va biokimyoviy jarayonlar sodir bo'ladi va natijada rang, ta'm, to'qimalar va meva sifati pasayadi. Saqlash paytida

mahsulotning yomonlashuvi va zararlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun harorat va namlikni boshqarish juda muhimdir. Ko'p anor mevasi uchun hosil yig'im terimidan keyin eng yaxshi saqlash harorati quyidagicha: ikki oydan ko'p vaqt davomida saqlash uchun 80% nisbiy namlik va 7°C harorat, ikki oygacha 90-95% nisbiy namlik va 5°C harorat hisoblanadi. Saqlash haroratini 22 dan 5 °C gacha kamaytirish anorning nafas olish tezligini 75% ga kamaytirishi mumkin.

Umuman olganda, «Wonderfull» navi 3-4 oy davomida sovuqxonada 5-7°C haroratda, 80% dan 85% gacha bo'lgan nisbiy namlikda saqlanadi. Anor ekstraksiyasidan o'tadigan mevalar ba'zi xususiyatlariga ta'sir qilmasdan sovuqxonada 3 oy davomida saqlanishi yaxshiroqdir. Harorat va namlik sharoitlari har doim patogen o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va mevani tashqi ta'sirga chidamsizlikka olib kelmaydigan muhitni ta'minlash uchun tekshirilishi kerak. Patogenli mog'or o'sishi harorat 5°C dan baland va past haroratlarda tezlashadi. Shuning uchun anor po'stlog'i shikastlanishiga olib keladi. Turli xil anor navlarini saqlashga yaroqliligini o'rganish, oldini olish mumkin bo'lgan mevani nazorat qilishda muhim omil bo'lishi mumkin. Nisbatan namlik anorning transpiratsiy tezligiga ta'sir qiladi. Saqlash vaqtida shikastlangan joylarga infeksiyalarning asosiy sababchi moddalari bular *penicillium spp.* va *botrytis cinerea*. Bundan tashqari, anorni saqlash muddati boshqa patologik kasalliklar bilan chegaralanadi: keng tarqalgan patogen zamburug'larni o'z ichiga oladi:

Alternaria spp (Heart rot), *Aspergillus spp*, *Coniella granati*, xonalarda paydo bo'lib, katta yo'qotishlarga olib keladi. Patogen zamburug'larning belgilari va tekshiruv uchun batafsil ma'lumot: *Aspergillus* meva chirishi, kulrang mog'or (*Botrytis cinerea*), *Penicillium spp*, *Coniella granati* meva chirishi va *Alternaria* kasalliklari. Umuman olganda, mevalar 50-80° C haroratda va 80-85 % nisbiy namlikda 2 oydan 3 oygacha sovuqxonada saqlanishi mumkin. Sovuqdan shikastlanishga va vazn yo'qotishga yo'l qo'ymaslik uchun uzoqroq saqlash 100 va 95% nisbiy namlikda bo'lishi kerak. Kiprda mahalliy bozor uchun anor (Akko va Wonderful navlari) o'sadigan maxsus bog'da mevalar ikkita toifaga ajratiladi: «A» va «B» sifatli. Saqlash uchun sovuqxonalardan foydalanmoqda. Mevalar taxminan

18 kg meva o'z ichiga olgan plastik xaltaga joylashtiriladi. Har bir plastik xalta plastmassa yashikga joylashtiriladi. Keyim meva joylashtirilgan qutilar 5°C harorat va 80-85% nisbiy namlikda sovuqxonalarga joylashtiriladi. Saqlash muddati "Akko" navi uchun 1 oy va „Wonderful“ navi uchun 3-4 oy.

Nazorat savollari:

1. Anorni saralash qanday bajariladi?
2. Sovuqxonalarda saqlashda harorat necha ° C bo'lishi va nisbiy namlik bo'lishi kerak?
3. Anorning yaxshi va sifatli mevalari diametric qancha bo'lishi kerak?
4. Anorni qanday mahalliy sharoitda saqlash usullarini bilasiz?
5. Anorni terish vaqtida nimalarga e'tibor berish kerak?

X-BOB. ANORNI KO'MISH, OCHISH, BUTALARNI SOVUQDAN HIMOYALOVCHI USULLARDAN FOYDALANISH

10.1. Anorni ko'mish va butalarni ochish ishlarini bajarish

Qishda anor butalarini ko'mish barglarning tushishi bosqichida, odatda oktyabr oyining oxirida-noyabr oyining birinchi yarmida amalga oshiriladi. Butalar shoxlari siqilib, tuproqqa egilib, butalarni muzlashdan himoya qiladigan yer qatlami bilan qoplanadi. Shoxlar ustidagi yer qatlamining qalinligi 10-15 sm bo'lishi mumkin. Ba'zida anor butalari o'simlik qoldiqlari (qamish, o't) bilan oldindan qoplanib, keyin esa tuproq bilan qoplanadi. Butalar odatda mart oyining ikkinchi yarmida - aprel oyining boshida ochiladi. Bu jarayonlar juda mashaqqatli va anor plantatsiyalarini parvarish qilish uchun yillik xarajatlarning 30-40 foizini tashkil qiladi.

Qishi issiqroq bo'lgan hududlarda, masalan, Tojikistonning janubida (58) ba'zan yarim ko'mish ishlari qo'llaniladi, ya'ni faqat ko'p yillik novdalar va butaning poydevori qoplanadi. Biroq, bu usulining nomukammalligi, mevali shoxlarning bir qismini muzlashi ishlab chiqarishda yarim ko'mish anorchilik keng tarqalmasligiga olib keldi.

Anor bog'ining kichik maydonlari va bog'larda yetarli ishchi kuchi mavjudligida butalarni qilishda ko'mishning alohida qiyinchiliklar yo'q. Minglab anor butalari bo'lgan bog'larda kuzgi dala ishlarining qizg'in davri tufayli ko'mish ishlari ko'p mehnat talab qiladi. Bundan tashqari, kichik bog'lar butalarni agro parvarish qilish bilan bog'liq jarayonlarni mexanizatsiyalash imkonini bermaydi.

Anor yetishtirish samaradorligini oshirish uchun o'nlab va yuzlab gektar massivlarda bog'lar barpo etish, bu yerda turli qishloq xo'jaligi mashinalaridan oqilona foydalanish, ko'mish va butalarni ochish jarayonlarini mexanizatsiyalash, shu orqali mahsulot tannarxini pasaytirish mumkin. Bunday yirik plantatsiyalarni yaratish zamonaviy anor ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishiga mos keladi.

Janubiy O'zbekiston stansiyasi (hozirgi M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy

tajriba stansiyasi)da oldindan yerga qo'lda qadalgan mayda butalarni yopish uchun "PRVN-3" bilan, yirik butalarni yopish uchun esa ekskavatorli "Belarus" traktoridan foydalanilgan. Ko'mish uchun ekskavatoridan foydalanish butalarni ochish va yerni tekislash xarajatlarini sezilarli darajada oshirdi. Butalar ochilgandan keyin qatorlar orasidagi tuproqni qisman tekislash uchun kichik greyder ishlatilgan.

Anor yetishtirishning agrotexnik usullarini, mavjud traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarining texnologik xususiyatlarini o'rganish butalar ko'mishni mexanizatsiyalashning yangi texnologik sxemasini hamda tegishli mashinalarning sxematik tamoyillarini ishlab chiqish imkonini bergan (93).

Mexanizatsiyalashtirilgan ko'mish va anor butalarini ochish muammosi maxsus mashinalar kompleksini ishlab chiqish va shunga mos ravishda anor o'simliklarini shakllantirish orqali hal qilinishi kerak.

Anor butalarini qo'lda egilganda va qoplaganda, ko'mish uchun har xil miqdordagi yer tuproqini talab qiladigan teng bo'lmagan o'lchamdagi butalar hosil bo'ladi. Butalarning turli o'lchamlari, ayniqsa poyalarning egilish burchagi va ularning egilish balandligi, butalarni ko'mish va ochish jarayonlarini mexanizatsiyalashiga to'sqinlik qiladi, qoplama birliklarining hajmini va ko'chirilgan yer miqdorini oshiradi. Shuning uchun, ko'p yillar davomida qo'lda qoplangan butalarni yopish uchun mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

Yoshi ortishi bilan qoplagan anor butalari qiya, har tomonlama o'sgan shaklga ega bo'lib, asosi qator chizig'ida va poyalari qator oralig'iga qarab bir necha burchak ostida cho'ziladi. Tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar butalar qiyaligi yo'nalishi bo'yicha harakat qilganda, ishchi organlarni qator oralig'idan o'tuvchi mashina qator tomon og'ib ketishib poyalarni sindirishidan qo'rqmasdan, qator chizig'iga yaqinlashtirish mumkin. Mashinaning orqaga qaytishi paytida, ishchi organlar qator chizig'idan bir xil masofada, lekin poyalarning qiyaligiga qarshi bo'lsa, jihoz mashina yordamida tomon buriladi va butalarni sindiradi, bu esa bir necha yil davomida buta hosilini yo'qotish yoki pasayishiga olib keladi. Bu holat butalarga yaqinlashtirmaslik uchun texnikani qator chizig'idan uzoqroqqa

haydashga majbur qiladi. Natijada, bog'da ishlov berilmagan tuproq maydoni keskin oshadi.

Mexanizatsiyalashtirilgan anor ko'mishning texnologik shartlariga qisqa emas, balki uzun cho'zilgan poyalari bo'lgan, pasti qismi yerga egilgan butalar to'liq mos keladi. Poyaning mevalari hosil bo'lgan shoxlangan qismi egiluvchan yupqa shox va novdalardan iborat bo'lib, yerga oson egiladi. Anor butalarini ekishdan keyingi dastlabki yillardan boshlab ko'mish va ochish uchun mashinalardan foydalanish butalar hajmini va poyaning egilish burchaklarini tenglashtiradi, bir xil plantatsiyaning turli butalarini ko'mish va ochish uchun bir xil texnologik sharoitlarni yaratadi.

Butalarni qo'lda ko'mish jarayoni ikkita operatsiyani o'z ichiga oladi. Birinchidan, tayyorgarlik orqali amalga oshiriladi, uning davomida butaning shoxlari bir to'plamga yig'iladi, yerga egiladi va oz miqdorda tuproqni tashlab, bu holatda qoldiriladi. Ikkinchi operatsiya to'g'ridan-to'g'ri tupni tuproq qatlami bilan ko'mishdan iborat bo'lib, uning qalinligi butalar muzlashdan himoya qilishi kerak.

Traktorning yon tomonida joylashtirilgan uzum shoxlarini yig'uvchi mashinadan foydalanish tizimli ravishda anor butasining qalin va elastik poyalarining yerga kerakli siqilishi va egilishini ta'minlamaydi. Anor butalarining ko'mishini mexanizatsiyalash uchun buta yoyuvchi - mexanizatsiyalashgan ko'mish uchun butalarni tayyorlash uchun qurilma - ko'mish mashinasidan iborat bo'lgan mashinalar birligi sinalgan.

Ko'mish mashinasi bilan traktorning markaziy o'qida buta yoyish moslamasining joylashishi agregatni yon tomonga siljituvchi ta'sirlarni yo'q qiladi, traktorning ish sharoitlarini yaxshilaydi va unumdorligini oshiradi. Kichkina butalarni ko'mish uchun PRVN-3 yoki NYU-39 plug korpuslari shaklida ramkaga osilgan ishchi korpusli mashinadan foydalaniladi. Korpuslar himoyalangan butalar ustidagi devorning eng katta balandligini ta'minlaydigan masofaga o'rnatadi. G'oz panja orasiga o'rnatilgan buta qatlamining chiqish qismi va ko'mish korpusi ramka ostidagi qoplama korpuslari o'rtasida, shakli va o'lchami bo'yicha buta qatlamining chiqish qismiga mos keladigan gumbazli qalqon biriktirilgan.

Ko'mishdan so'ng, butalar holati tekshiriladi, yopilmagan joylar tuproq bilan qoplanadi. Himoyalangan butalarni tekshirish va to'g'rilash qishda bir necha marta amalga oshiriladi. Anorni ochish bahorda iliq ob-havoning boshlanishi bilan, butalarga zarar yetkazadigan sovuqlardan keyin amalga oshiriladi, respublikaning janubiy viloyatlarida - mart oyining ikkinchi yarmida, shimolda - mart oyining oxiridagi ob-havo sharoitlarini hisobga olgan holda - aprel boshida amalga oshiriladi.

Ochilish jarayoni uchta operatsiyani o'z ichiga oladi: yerning tashqi qatlamini tushirish, butaning shoxlarini bo'shatish; butaning shoxlarini yerdan chiqarish; yerning qatorlar va yo'laklarga joylashtirish. Kichik butalar PRVN-3 yoki NYU-39 birligi yordamida yopiladi va ochiladi. Ko'milgan butalar oldiga plugli traktor yuradi, uning korpusida ko'milgan butalarning kattaligiga qarab bir-biridan 40-60 sm masofada o'rnatiladi.

Shoxlarni yerdan chiqarish va qatorlardagi tuproqni qisman taqsimlash pnevmatik ochuvchi bilan, ya'ni kuchli havo oqimi yordamida ta'sir qilish orqali amalga oshiriladi.

10.2. Anorni sovuqdan himoyalovchi innovatsion texnologiyalari

Keskin harorat sharoitlariga moslashish. Anor butaini o'stirish uchun qulay iqlim sharoiti bu O'rta yer dengizi iqlimi kabi sharoitlarir. Bunday qulay iqlim sharoitiga quyosh nuri ko'p tushadigan, 11°C darajadan past bo'lmagan harorat, iliq qish, va meva rivojlanishining so'ngi bosqichida yomg'irsiz quruq issiq yozlar ob-havo sharoitlari kiradi. Shunday qulay sharoitlarda, meva juda yaxshi hajm, rang va shira oladi va bu esa o'z navbatida meva yorilishi bilan bog'liq muammolarni kamaytiradi. Bugungi kunda anor butun dunyo bo'yicha ko'p turli xildagi mikroiklim zonalarning harorat o'rta me'yordagi, subtropik va tropik hududlarida yetishtiriladi.

Anor butasi past haroratli qish bo'ladigan hududlarda barg to'kadi va tropik-subtropik sharoitlarda doimiy yashil bo'ladi yoki qisman barg to'kadi. Meva rivojlanish va pishish davrida buta issiq va quruq iqlim sharoitini talab qiladi. Buta tinim davrida ma'lum bir darajada sovuqqa chidamli, ammo -11 °C dan past

bo'lgan haroratda zararlanadi. Anor butaini -9°C dan -12°C gacha bo'lgan sovuq haroratga chidamliligi qayd etilgan. Shunday bo'lsada, ularga yaxshi rivojlanishi uchun uzoq issiq iqlim sharoit kerak bo'ladi. Agar harorat -20°C dan pastga tushsa, anor butalarining butun tanasi yer yuzasiga muzlab quriydi. Vegetativ o'sish davri yetarlicha uzun bo'lgan ammo harorat -15°C dan pastga tushishi mumkin bo'lgan sharoitlarda, yaxshi hosil olish uchun anor butai sovuqdan himoyalanihga muhtoj. Bahorgi sovuqlar gullash uchun muammo tug'dirmaydi chunki anor kech gullaydigan o'simlikdir, ammo hosil yig'ishdan oldingi kuzgi sovuqlar buta uchun havfli bo'lishi mumkin. Meva yaxshi pishishi uchun issiq yoz va uzun, quruq va iliq kuz talab qilinadi. Hayotiy vaziyatlar shuni ta'kidlaydiki, qattiq urug'li navlar yumshoq urug'lilariga nisbatan sovuqqa chidamliroq bo'ladi. Anor navlarining ko'pchiligi butalar uchun talab qilinuvchi sovuq harorat soatlarini talab qilmaydi, ba'zi sovuqqa chidamli navlar bundan istisno. Natijada, buta yog'ochi doimi zararlanishga moyil bo'ladi. Barcha navlar tinim davridan naf olishadi, garchi butalar uchun talab qilinuvchi sovuq harorat soatlari talab qilinsada. Butaning qish oylarida sovuqqa chidamliligi yuqori bo'ladi. Kuzda to'liq uyquga kirishidan oldin va bahorda kurtak yorish davrida butaning sovuqdan aziyat chekish ehtimoli ortadi. Shu davrlar mobaynida, buta po'stlog'i sovuqdan zararlanishga juda moyil bo'ladi va birinchi bo'lib butaning janubiy tomonidan yerga yaqin qismida sovuqdan zararlanish sodir bo'ladi. Agar sovuqdan zararlanish ehtimoli bo'lsa, kun va tun orasidagi keskin harorat o'zgarishlarini kamaytirish uchun buta po'stlog'ini vodoemulsiya bo'yog'i bilan bo'yash muammoga echim bo'lishi mumkin.

Anor butalari issiqqa juda chidamlidir va bir yilda kamida 120 kun davomida 30°C harorat bo'lgan sharoitda juda yaxshi rivojlanadi. Butalar qurg'oqchilikka ham chidamlidir. Shunday bo'lsada, butani rivojlantirish davrida yetarlicha sug'orish talab qilinadi va bu tijorat maqsadida meva yetishtirayotgan bog'larda juda katta ahamiyatga ega. Qurg'oqchilik uzoq davom etgan davrda yetarlicha sug'orilmasa hosil yo'qotiladi (to'kiladi).

Anor butalarini sovuqdan himoyalovchi asosiy usullar quyidagilar:

-Sug'orish tizimidan foydalanib sovuq havoni nazorat qilish.

- Bog' isitgichlaridan foydalanib sovuq havoni nazorat qilish.
- Shamol hosil qiluvchi qurilmalar.
- Isitgich va shamol hosil qiluvchi qurilmalar qo'shilmasa orqali nazorat qilish.

Sug'orish tizimidan foydalanib sovuqni nazorat qilish. Sovuqning tabiati shundaki, uning eng katta zarari sovuq havo yerdagi massaga (yoki bog' orasi oraliq ekin bilan qoplangan bo'lsa, shu o'simlik ustiga) tekkanda sodir bo'ladi. Agar harorat muzlash darajasidan pastga tushsa, o'simlik tanasidagi suyuqlik muzlaydi va bu ichki shikastlanishga olib keladi. Sovuqdan zararlanganda, barg chetlari kuyadi (quriydi), mevada chandiqlar yuzaga keladi, novda uchlarini sovuq urib asta sekinlik bilan novdaning to'liq nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Yangi ekilgan butalarda, sovuq asosan buta poyasi atrofidagi halqadagi to'qimlarni shu darajada yomon kuydiradiki, bu o'z navbatida buta po'stlog'ini poyadan shilib nobud qiladi. Nazorat qilish mumkin bo'lgan sug'orish tizimidan foydalanish oraqali, suv harorati tabiatan nol darajadan yuqoridir, butalaringiz atrofidagi haroratni muzlash darajadan yuqorida saqlanishingiz mumkin bo'ladi. Buni oldini olish uchun sug'orish tizimi harorti +3 daraja bo'lganda ishga tushiriladi va harorat +5 darajaga ko'talilguncha ushlab turadi, so'ngra o'chiriladi.

Bog' isitgichlaridan foydalanib sovuqni nazorat qilish. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bog' oralab ko'p miqdorda kichik olovlarni yondirish bog'ning turli joylarida yondirilgan bir necha katta olovlardan ko'ra yaxshiroq himoya vositasi bo'la oladi. Qanchalik himoya bera olishishidan kelib chiqib quyida isitgichlarning afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan:

Ularning afzalliklari:

- Havfsiz haroratni ta'minlash uchun faqatgina kerakli miqdorda isitgichlar yoqilishi kifoya.
- Dalada kutilmagan holatlar uchun qo'shimcha isitgichlar va yoqilg'i saqlanilishi mumkin.
- Isitgichlar issiqlikni bog' bo'ylab bir tekisdan taqsimlashga yordam beradi.

Ularning kamchiliklari:

- Ko'p tutun chiqaradi. Lekin ba'zi turlari to'g'ri ishlatilganda kam tutun chiqaradi.

- Ularni oʻrnatish va boshqarish katta sarmoya talab qiladi.
- Buta ostidagi quruq barglar tufayli yongʻin chiqish xavfi mavjudligi.
- Ishlatish va taʼmirlash uchun koʻp mehnat talab qilinadi.
- Koʻp ishchi kuchi talab qiladi.

Shamol hosil qiluvchi qurilmalar. Baʼzi joylarda shamol hosil qiluvchi qurilmalar yaxshi himoya vazifasini oʻtaydi. Ularning taʼsiri shundaki, katta ventilyator bogʻ oralab va usti boʻylab havoni aralashtiradi va natijada yer yuzasiga yaqin masofadagi oʻrtacha harorat koʻtariladi.

Ularning afzalliklari:

- Bogʻ isitgichlariga qaraganda iqtisodiy tomondan afzalroq
- Boshqarish uchun kam mehnat talab qilinadi
